

Huriniso USMONOVA

GAP
BO'LAKLARINING
POZITSION
STRUKTURASI

Monografiya

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

Huriniso USMONOVA

**GAP BO‘LAKLARINING POZITSION
STRUKTURASI**

Namangan – 2022

UO‘K: 811.512.133-70

KBK: 81.633.1

U-34

ANNOTATSIYA

Ushbu monografiya o‘zbek tili sintaksisining eng dolzarb masalalaridan biri bo‘lgan gapni bo‘laklarga ajratish muammosiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda gap bo‘laklarini pozitsion nuqtai nazaridan belgilash masalalari yoritiladi.

Monografiya filolog olimlar, bakalavrlar, magistr va aspirantlar uchun mo‘ljallangan.

Монография посвящено актуальным вопросам раздела синтаксиса узбекского языка. В нём раскрываются определения, построение и значения членов предложения на различных позиционных уровнях.

Монография рекомендовано филологам, магистрам и аспирантам, изучающим синтаксис узбекского языка.

This monograph is devoted to one of the main problems of dividing the parts of the speech in stylistics and at the same time its position in the sentences.

This is designed for the scientists, students of master’s and bachelor’s degree.

Mas’ul muharrir: **Sh. ISKANDAROVA** – filologiya fanlari doktori, FarDU professori

Taqrizchilar: **D.NABIYEVA** – filologiya fanlari doktori, ADU professori
D.BOBXONOVA – filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

ISBN: 978-9943-7936-2-1

Usmonova, Huriniso

Gap bo‘laklarining pozitsion strukturasi / Huriniso Usmonova; mas’ul muharrir: Sh.Iskandarova. – Namangan, 2022. – 164 b.

Ushbu monografiya NamDU Ilmiy Kengashi yig‘ilishining 2022-yil “_____” _____dagi №____-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlandi.

© “ARJUMAND MEDIA”

KIRISH

Hozirda o'zbek tilini an'anaviy metodlar orqali o'rganish bilan birga, jahon tilshunosligida keng qo'llanayotgan sistem-struktur metodlar asosida o'rganish tobora kengayib bormoqda. Tilga va uning birliklariga sistema sifatida yondashuv shu kunga qadar tilshunoslik uchun qorong'i bo'lib kelayotgan jihatlarni aniqlashga yordam beradi. Ana shundan kelib chiqib, o'zbek tilidagi sintaktik birliklarni shakl va mazmun qarama-qarshiligi va birligi qonuniyatini hisobga olgan holda sistem tadqiq qilish zaruriyati tug'iladi.

Lisoniy birliklarni sistema sifatida tadqiq etish, uni tashkil etgan ichki uzvlarning o'zaro munosabatini belgilash hozirgi o'zbek nazariy tilshunosligi oldida turgan dolzarb vazifalardandir. Shuni hisobga olgan holda, sintaktik birliklarning, xususan, «propozitiv nomlanish» deb yuritiladigan birliklarning gap tuzilishidagi o'rni, ularning ichki uzvlariga xos butun ichidagi o'zaro mazmuniy va shakliy munosabatini belgilash hamda xarakterli xususiyatlarini ochish muhimdir

Sintaksisning azaliy muammolaridan biri fikr almashuv va aloqalaralashuvning asosiy birligi — kommunikativ birlik bo'lgan nutqiy gapning tarkibiy qismlarga ajratish gap bo'laklari va har bir bo'lakning gap qurilishidagi o'rni masalasidir.

Hozir fanimizda gapning tarkibiy (struktur) qismlarini ajratishda: a) bosh bo'laklar, ikkinchi darajali bo'laklar, bog'lanmagan bo'laklar; b) bosh bo'laklar, ikkinchi darajali bo'laklar, uchinchi darajali bo'laklar; d) gap bo'laklari va bo'lakning bo'laklari; e) funksional va nofunksional (amaliy va noamaliy) bo'laklar; f) gapning markazi, gap kengaytiruvchilari va so'z kengaytiruvchilari kabilarni farqlash nazariyalari keng ommalashgan. Fanda shakllangan va ma'lum davr yashagan har bir ilmiy yondashuv va yo'nalishning, har bir talqinning o'ziga xos durdonasi, samarali urug'i mavjudligi fanlar tarixidan ma'lum. Shuning uchun fanda ko'p yo'nalishlilik shakllangan va rivojlangan

davrda turli xil talqin va tavsiflarni qiyosiy o'rganish, har bir yo'nalishdan unumdor talqinlarni saralash va ulardan sohaning chigal masalalari yechimini berishda oqilona va tadbirkorona foydalanish alohida ahamiyat va mohiyat kashf etadi va ilmiy taraqqiyotning keskin ilgarilashiga va yuksalishiga turtki bo'ladi. Ushbu qo'llanmada sintaksisning muhim masalalaridan bo'lgan shakl va mazmun, struktur va pozitsion asimmetriya yorqin namoyon bo'ladigan masalalaridan biri – gapning struktur qismlarini aksariyat gaplarda transformatsiyalangan bo'laklar bilan to'ldirish, gapning yuza qurilishida bunday bo'laklarni ajratish, ularning ichki qurilishini hamda gapning umumiy qurilishidagi o'rnini aniqlash, uning o'zbek tilshunosligida o'rganilishi masalalari qamrab olinadi.

GAPNI BO‘LAKLARGA AJRATISH MASALASI

Gap bo‘laklarini o‘rganish va uning asosiy bosqichlari

Barcha fanlar kabi tilshunoslik ham o‘zining muayyan tarixiga ega. Tilshunoslik tarixida XIX asr alohida ajralib turadi. F. de Sossyurning “Umumiy lingvistika kursi” nashr etilishi bilan tilshunoslikda katta o‘zgarish bo‘ldi. Bu o‘zgarishni ayrim mualliflar, xususan, A.Gardiner tilshunoslikda buyuk inqilob deb hisoblaydi.¹ Chunki bu asarda ilk bor substansiya bilan shakl izchil ravishda farqlanadi. Substansiya nutqiy jarayonda voqelangan va sezgi a’zolarimizga bevosita ta’sir qiluvchi moddiylik, shakl deganda esa, bu moddiyliklar orqali voqelangan inson xotirasidagi umumiylik tushuniladi. Mana shu zidlanish asosida til va nutq bir-biridan farqlandi. Ayni paytda, til va nutq birliklari bir-biriga zid qo‘yildi. B.A.Serebrennikovning fikricha, nutqda voqelangan barcha moddiy vositalar tilda imkoniyat tarzida mavjud bo‘lgan umumiyliklarning vakillari sanaladi. Nutqda voqelangan har qanday hodisalarning tilda izi mavjud bo‘ladi².

Til va nutqning farqlanishi tilning barcha sathlarini umumiylik va xususiylik, mohiyat va hodisa, imkoniyat va voqelik dialektikasi asosida qayta o‘rganib chiqishni taqozo etadi. Ana shu farqlanish asosida sistem-struktur tilshunoslik deb yuritiluvchi tilshunoslik maydonga keldi. Sistem tilshunoslikning vakillari tilning fonologik sathidan to sintaktik sathigacha yuqoridagi zidlanish asosida o‘rganib chiqdilar. O‘zbek tilshunosligi ham bundan mustasno emas.

Xususan, keyingi yillarda sintaktik nazariya taraqqiyotida jiddiy o‘zgarishlar ro‘y berdi. Tilshunoslikda ham ilmiy tadqiqotlar bevosita kuzatish bosqichidan, lisoniy hodisalarni avtonom holda tadqiq qilishdan ularning amaliy kuzatish bosqichida ilg‘ash mumkin bo‘lmagan, faqat hodisalar

¹ Нурмонов А., Искандарова Ш. Умумий тилшунослик. – Андижон. 2007. –Б. 173.

² Трубачев О.Н. “Этимология – 1984” китобиға сўз боши, – М., 1986. –С.5.

munosabatidagina namoyon bo'ladigan yashirin xususiyatlarini ochishga imkon beradigan nazariy bosqichga ko'tarildi¹.

Ilmiy tadqiqotlarning amaliy bosqichdan nazariy bosqichga ko'tarilishi tilshunoslikning katta nazariy yutuqlarga erishuviga zamin yaratadi.

Tilshunoslik tarixida substansiya va shaklning ajratilishi tilshunoslik fanining ham ikki bosqichga ajralishiga olib keldi. Tilshunoslikning bunday bosqichlarini nazariy va amaliy bosqich deb yuritiladi. Amaliy bosqich, o'z navbatida, empirik bosqich deb ham yuritiladi. Ayrim struktur tilshunoslik vakillari shu darajaga yetdilarki, nazariy tilshunoslikni amaliy tilshunoslikdan uzib qo'ydilar. Xususan, fonologiyaning otasi hisoblanuvchi N.S.Trubetskoy amaliy bosqich bilan ish ko'ruvchi fonetikaning nazariy bosqich bilan ish ko'ruvchi fonologiyadan ajratib qo'yishga harakat qildi. Tilshunoslik faqat fonologiya bilan shug'ullanishi lozim, fonetika esa fizikaning tarkibiy qismidir degan g'oyani ilgari surdi.

Kopengagen maktabining asoschisi L.Yelmslev ham tilshunoslik sezgi a'zolarimizga ta'sir qiluvchi moddiy vositalarni emas, balki ularning zahirida yashiringan va har bir hodisada takrorlanuvchi mohiyatlarni o'rganish lozimligini ta'kidlaydi².

Aslida dialektik falsafa nuqtayi nazaridan imkoniyatni voqelikdan, umumiylikni xususiylikdan ajratish mumkin emas. Har qanday hodisa mohiyatli, har qanday mohiyat esa hodisalidir.

Shunday ekan, nazariy tilshunoslik amaliy tilshunoslik bilan uzviy aloqadadir. Nazariy tilshunoslik amaliy tilshunosliksiz yashay olmaydi, u amaliy tilshunoslik bergan materiallarga tayanib ish ko'radi.

Har qanday fanning bosh maqsadi o'rganilayotgan obyektni abstrakt qurilma darajasiga ko'tarish³ ekan, amaliy tilshunoslik ham muayyan obyekt haqidagi chinakam ilmiy haqiqatni nazariy tilshunoslikda ko'radi.

¹ Нурмонов А. ва бошқ. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. – Т.: Янги аср авлоди, 2001. –Б. 4.

² Нурмонов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. – Т.: Ўқитувчи, 1990. –Б. 6-8

³ Киров Е.Ф. Теоретический проблемы моделирования языка. – Казань. изд. КазГУ. 1989. –С. 58.

Nazariy tilshunoslik amaliy tilshunoslik yutuqlariga tayansa ham, u o'zining hodisalarni tekshirish usuliga ko'ra farq qiladi. Hodisalar muayyan tizimning bir bo'lagi sifatida uning tarkibida boshqa hodisalar bilan munosabatda o'rganiladi. Bunga muvofiq, har qanday lisoniy hodisa muayyan uzvlardan tashkil topgan butunlik sifatida talqin qilinadi. Shu nuqtayi nazardan sintaktik birliklar ham, avvalo, shakl va mazmun birliklaridan tashkil topgan bir butunlik bo'lish bilan birga, boshqa xuddi shunday butunliklar bilan paradigmatic munosabatda bo'ladi.

O'zbek tilining barcha sathlari amaliy bosqich bergan materiallar asosida nazariy bosqichda o'rganila boshladi. Shu asosda o'zbek tilining fonologiyasi va morfologiyasi, morfemikasi, sistem leksikologiyasi, nazariy grammatika singari asarlar maydonga keldi¹. Bu asarlarning maydonga kelishi o'zbek tilshunosligini yangi bosqichga olib chiqishga imkon berdi.

Sintaksisning vazifasi sintaktik birliklarning nimalardan tashkil topishini o'rganish bilan birga, ularning boshqa birliklar bilan munosabatini ham ochib berishdan iborat bo'lishi kerak.

Tilning fonologik sath birliklaridan boshqa barcha sath birliklari shakl va mazmun munosabatidan tashkil topgan murakkab qurilma sanaladi. Shuning uchun ham bu sathlarga mansub bo'lgan lisoniy birliklarning har ikki tomonini o'rganish, ularning o'zaro munosabatini belgilash hozirgi sistem tilshunoslikning muhim vazifalaridan biridir.

Sintaktik sathning markaziy birligi bo'lgan gapning tuzilishi morfemik, leksik, morfologik sath birliklari tuzilishiga nisbatan ham murakkabroqdir. Chunki gap mazmuni leksik va morfologik birliklarda mavjud bo'lmagan yangi mazmuniy uzvlar bilan boyiydi. Shuning uchun ham sintaktik birliklar

¹ Нурмонов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. –Т.: Ўқитувчи, 1990. – 45 б.; Абдуазизов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. –Т.: Ўқитувчи, 1992. – 50 б.; Мирзакулов Т. Ўзбек тили морфемикасининг асосий аспекти ва уларнинг муносабати. Хўжанд, Нашриётсиз. 1992. – 68 б.; Неъматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. –Т.: Ўқитувчи, 1995. – 128 б.; Нурмонов А. ва бошқ. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. – Т.: Янги аср авлоди, 2001. – 248 б.; Махмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Синтаксис. – Т.: Ўқитувчи, 1995. – 232 б.

mohiyatini belgilashda nosintaktik ma'nolar, ya'ni leksik va morfologik ma'nolarni chetlashtirish zaruriyati tug'iladi.

Shu kunga qadar o'zbek tilshunosligida gapning asosan shakliy tuzilishiga e'tibor jalb qilindi. Ahyon-ahyondagina mazmuniy tuzilishga xos bo'lgan xususiyatlar ham esga olindi¹. Mazmuniy tuzilish va uning qanday qismlardan tashkil topganligi, ularning mohiyati tadqiqotchilar nazaridan chetda qoldi.

Keyingi yillarda o'zbek tilshunosligida bu yo'nalishda bir qator asarlar maydonga keldi². Buning natijasida gapning mazmuniy aspekti hali yoritilishi lozim bo'lgan bir qancha muammolarga boy bo'lsa, uning shakliy aspekti ma'lum darajada oydinlashdi.

An'anaviy tilshunoslik gapning, asosan, shakliy tomonini o'rganishga e'tiborni qaratgan bo'lsa-da, lekin bu sohada ham o'z yechimini kutayotgan muammolar oz emas.

Gapning shakliy tuzilishi, odatda gap bo'laklari rukni ostida o'rganib kelindi.

V.S.Xrakovskiy ta'kidlaganidek, gap bo'laklari konsepsiyasi tilshunoslikda XX asrning o'rtalariga qadar sintaktik tahlilda yetakchi o'rin egallagan³. Shunday bo'lishga qaramasdan, gap bo'laklari konsepsiyasi hech qachon bir xil bo'lgan emas. Bu masalaga turlicha qarashlar turli davrdagina emas, balki bir davrning o'zida ham mavjud bo'lgan⁴.

Shuning uchun ham o'zbek tilshunosligida ayrim mualliflar tomonidan uchinchi darajali bo'lak tushunchasi olib kirildi va an'anaviy gap bo'laklari sirasiga kiritilmaydigan, grammatik aloqadan tashqaridagi gapning uzvlari, uchinchi darajali bo'lak hisoblandi⁵. Akademik G'.Abdurahmonov gapning

¹ Абдурахманов Г. Қўшма гап синтаксиси асослари. – Т.: ЎзФА, 1958. – 325 б.; Ҳозирги ўзбек адабий тили. II том. – Т.: Фан, 1966. – 508 б.; Ўзбек тили грамматикаси. II том. – Т.: Фан, 1976. – 560 б.

² Нурмонов А., Маҳмудов Н., Аҳмедов А., Солихўжаева С. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. – Т.: Фан, 1992. – 392 б.; Неъматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Т.: Ўқитувчи, 1995. – 128 б.; Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Синтаксис. – Т.: Ўқитувчи, 1995. – 232 б.; Маҳмудов Н. Ўзбек тилидаги содда гапларда семантик-синтактик асимметрия. – Т.: Ўқитувчи, 1984. – 146. б.;

³ Храковский В.С. Очерки по синтаксису арабского языка. – М.: Наука, 1974. – 289 с.

⁴ Нурмонов А.Н. Гап ҳақидаги синтактик назариялар. – Т., 1988. –Б. 10.

⁵ Сайфуллаев А. Ҳозирги ўзбек тилида гап бўлақларининг семантикаси ва грамматикаси: Филол. фанлари д-ри ... дис. автореф. – Т., 2001. –Б. 48.

ajratilgan ikkinchi darajali bo‘laklarini alohida tipdagi bo‘laklar ekanligini ta’kidlaydi¹.

Shu davrgacha yetakchilik qilib kelayotgan yo‘nalish atributiv mantiq ta’sirida vujudga kelgan o‘zaro tobelanish asosidagi gapni bo‘laklarga ajratuvchi yo‘nalishdir.

Bunga muvofiq, gapning tarkibida ishtirok etgan sintaksemalarning hammasi ham gap bo‘lagi hisoblana bormaydi. Gap bo‘lagi bo‘lishning birdan-bir sharti o‘zaro tobelanish munosabatida bo‘lishdir. Tobe aloqaga kirishmagan birliklar gap bo‘lagi doirasiga kirmay qoldi. Bu esa keyinchalik bir qator tilshunoslarning e’tiroziga sababchi bo‘ldi.

A.Sayfullayev uzoq yillardan buyon fidoyilik bilan gap bo‘laklari doirasiga kirmay qolgan sintaktik birliklarni tadqiq qilib keladi va bunday birliklarni gap bo‘laklari sirasiga kiritish uchun asos qidirib keladi. Natijada gap bo‘laklarini an’anaga ko‘ra ikki darajaga emas, balki uch darajaga ajratadi.

U kirish va kiritmalarni gap bo‘laklari sirasiga kiritar ekan, an’anaviy ikki cho‘qqili nazariyani asos qilib oladi. Gap tarkibidagi ikki cho‘qqi – ega va kesimni bosh bo‘laklar, bosh bo‘laklarga tobe bog‘lanib, ularning ma’nosini izohlab kelgan bo‘laklarni ikkinchi darajali bo‘laklar, har ikki guruhga kirmaydigan sintaktik birliklarni esa uchinchi darajali bo‘laklarga kiritadi.

Gap tuzilishining iyerarxik tabiatini ko‘rsatishda gapning struktur asosini nimalar tashkil qiladi, qanday bo‘laklar ularni kengaytiradi, degan masalalarda tilshunoslik tarixida xilma-xil fikrlar bayon qilindi. Ana shunday xilma-xillik sintaksisning markaziy masalasi bo‘lgan gapning muhim belgisi sanaluvchi predikativlikni turlicha talqin qilish bilan bog‘liqdir.

XX asrning boshlariga qadar ham gapning muhim belgisi sifatida predikativlik e’tirof etib kelingan, har qanday gapning predikativlik ifodalashi va ana shu belgisi bilan so‘z birikmasidan farqlanishi ta’kidlangan. Lekin

¹ Абдурахмонов Ғ.А. Гапнинг ажратилган иккинчи даражали бўлаклари. – Т., 1955. –Б. 48; Ўзбек тилининг грамматикаси. II том. – Т., 1977. – 153 б.

predikativlikning ifodalanishi masalasiga kelganda atributiv mantiqdagi hukm strukturasi asosida izohlangan.

XX asrning 30- yillaridan boshlab yevropa tilshunosligida gapning tuzilish markaziga yondashuv o'zgardi. Bunday o'zgarishga nemis tilshunosi J.Furke va fransuz tilshunosi L.Tenyerlar sababchi bo'ldilar. Ular o'zlarining sintaktik qarashlarida verbosentrik nazariyaga asoslandilar. Bunga ko'ra har qanday gapning markazida zamon va mayl shakllarini olgan fe'l yotishini ta'kidladilar.

Xususan, L.Tenyer o'zining «Struktural sintaksis asoslari» deb nomlanuvchi kitobida ana shu g'oyani olg'a suradi. L.Tenyer gapning struktur cho'qqisi fe'l ekanligini, butun bir gap fe'lning bo'sh o'rinlarini to'ldirib kelishi va uni yoyiq tusga kiritishi haqida fikr yuritadi. Shuning uchun ham butun gapni «verbal fraza» nomi bilan yuritadi. Verbal frazaning tarkibiy qismlari sintaktik tugunlar hisoblanadi. Har qaysi sintaktik tugun fe'l kesim bilan munosabatga kirishadi va uning bo'sh o'rnini to'ldirib keladi.

Garchi L.Tenyer asarida gap bo'laklari atamasidan qochilgan bo'lsa ham, sintaktik tugunlar tushunchasi gap bo'laklari tushunchasiga muvofiq keladi. Sintaktik tugunlar «aktantlar» nomi bilan yuritiladi va bu aktantlar kesimning qanday bo'sh o'rnini to'ldirishiga ko'ra uch darajaga bo'linadi. Birinchi aktant egaga, ikkinchi aktant vositasiz to'ldiruvchiga, uchinchi aktant kesimga to'g'ri keladi. Ko'rinadiki, L.Tenyerning sintaktik konsepsiyasida kuchli tomon bo'lishi bilan birgalikda ojiz tomonlari ham yo'q emas. Kuchli tomoni shundaki, gap qurilishida kesimni markaziy birlik, gapning shajaraviy tuzilishining asosi sifatida e'tirof etishi sintaktik nazariya tarixida katta burilish yasadi. Ojiz tomoni shundaki, an'anaviy sintaktik nazariyadagi hol va aniqllovchilar, shuningdek, gap tarkibida kelgan va grammatik aloqadan tashqarida sanaluvchi undalma va kirishlar nazardan chetda qoldi. Keyingi yillarda yaratilgan tadqiqotlarda verbosentrik nazariyaning gap asosida kesim yotishi, gapning boshqa elementlari esa kesim vazifasida kelgan so'zning semantik va sintaktik valentliklarini to'ldirib keladi degan g'oyaga tayanib, ana shu bosh g'oya asosida sintaktik birliklarning ham o'rnini belgilashga harakat qilinadi.

Gap bo‘laklari o‘zining uzoq tarixiga ega. Shuning uchun, bu masalani o‘rganishni shartli ravishda ikki bosqichga ajratish mumkin. Ulardan birinchisi klassik yoki an’anaviy davr, ikkinchisi esa hozirgi davr. Birinchi davr antik davr tilshunosligidan XX asrning 60-yillarigacha, ya’ni struktur tilshunoslik paydo bo‘lgungacha davrni o‘z ichiga olgan bo‘lsa, ikkinchi davr 60-yillardan keyingi davrni o‘z ichiga oladi.

Gap bo‘laklarini o‘rganish tarixini bunday davrlarga bo‘lish tilshunoslik tarixini davrlashtirishga ham to‘g‘ri keladi. Xususan, E.Benvenist XIX asrning o‘rtalarigacha bo‘lgan grammatika davri, qiyosiy-tarixiy tilshunoslik davri, yosh grammatikachilar davri singari tilshunoslik davrlarini yagona nom – an’anaviy tilshunoslik atamasi ostida birlashtirgan va bu tilshunoslikni hozirgi tilshunoslikka zidlagan edi¹. Bunday bo‘lish tilshunoslikning ontologik va gnoseologik tabiatidan kelib chiqqan bo‘lib, tilning ichki strukturasiga yondashuv va uni amaliy yoki nazariy bilishga asoslanib yoritishga tayangan edi.

O‘zbek tili sintaksisi boshqa bo‘limlar kabi rus tilshunosligi ta’sirida maydonga kelganligi barchaga ma’lum. Rus tilshunosligida gap bo‘laklari atamasi va gapni bo‘laklarga ajratish N.I.Grechga borib taqaladi.

Mashhur rus tilshunosi akademik V.V.Vinogradov N.I.Grechning gap bo‘laklari sintaksisining shakllanishidagi roliga baho berar ekan, uning «Amaliy rus grammatikasi» (1827) kitobida bosh va ikkinchi darajali bo‘laklar haqida, ularning o‘zaro munosabati haqida, to‘ldiruvchi va aniqlovchi haqida ilk tushunchalar berildi. Holni qanday qilib ajratishga intilish sezildi².

Gap bo‘laklari sintaksisi bo‘yicha F.I.Buslayevning fikrlari rus tilshunosligi tarixida alohida qimmatga ega. Uning sintaktik konsepsiyasi logiksizmga asoslangan bo‘lib, gap a‘zolarini hukm a‘zolariga qiyosan belgilaydi. Hukm a‘zolari bo‘lgan subyekt va predikatga muvofiq keluvchi a‘zolari bosh bo‘laklar, boshqa bo‘laklarni esa ikkinchi darajali bo‘laklar

¹ Нурмонов А. Структур тилшуносликнинг илдиzlари ва йўналишлари // Ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари. – Наманган, 2006. – Б. 220.

² Виноградов В.В. Из истории изучения русского синтаксиса. – М.: Высш.шк., 1958. – С. 160.

hisoblaydi. Ikkinchi darajali bo‘laklar sintaktik qo‘llanishi va mazmuniy belgisiga ko‘ra aniqlanadi.

Ikkinchi darajali bo‘laklarning sintaktik qo‘llanishga qarab tavsifida ularning shakliy belgisiga tayaniladi: bosh bo‘lakka moslashuv yo‘li bilan bog‘langan bo‘lak aniqlovchi sanaladi. Bosh bo‘lakka boshqaruv yo‘li bilan bog‘langan bo‘lak to‘ldiruvchi, bosh bo‘lakka moslashuv yo‘li bilan ham, boshqaruv yo‘li bilan ham emas, ulardan boshqacha bog‘lanadigan bo‘lak hol hisoblanadi.

Ikkinchi darajali bo‘laklarning mazmuniy tavsifi esa bulardan tamomila boshqacha guruhlanishni taqozo etadi.

A.A.Potebnya «Из записок по русской грамматике» kitobida F.I.Buslayevning yuqoridagi tasnifiga tanqidiy baho berdi. Uning fikricha, so‘zning ma‘nosi gap bo‘laklari sifatida formaldir va u sintaktik qo‘llanishga ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi. Shuning uchun A.A.Potebnya gapni bo‘laklarga ajratishda mantiqiy asosdan voz kechgan holda so‘z turkumlariga tayanadi. U gap bo‘laklari bilan so‘z turkumlarini bir-biriga yaqinlashtiradi.

V.V.Vinogradov A.A.Potebnyaning gap bo‘laklarini tasnif qilish tamoyiliga ijobiy baho beradi va uni gap bo‘laklari haqidagi ta‘limot bilan so‘z turkumlari haqidagi ta‘limot o‘rtasida ko‘prik o‘rnatganini ta‘kidlaydi¹.

A.A.Potebnya gap bo‘laklari haqidagi an‘anaviy qarashlarga burilish yasalishiga zamin yaratdi. U tilshunoslik tarixida ilk bor gap tuzilishida kesimning roli katta ekanligini ta‘kidladi. Ma‘lumki, barcha gap bo‘laklarining vazifasi faqat boshqa bo‘lakka munosabatga kirishgandagina namoyon bo‘ladi. Masalan, aniqlovchining vazifasi aniqlanmishga nisbatan, to‘ldiruvchining vazifasi to‘ldirilmishga nisbatan, holning vazifasi hollanmishga nisbatan, eganing vazifasi kesimga nisbatan belgilanadi. Xususan, ega bo‘lish uchun uning faqat bosh kelishikdagi ot va otlashgan so‘z bo‘lishi kifoya qilmaydi. Bunday so‘zlar egadan boshqa vazifalarda, jumladan, undalma, to‘ldiruvchi vazifalarida ham kelishi mumkin. Shuning uchun bunday so‘zlarning aniq

¹ Виноградов В.В. Из истории изучения русского синтаксиса. – М.: Высш. шк., 1958. – С. 352.

vazifasi ularning sintagmatik munosabatida, kesim bilan grammatik va mazmuniy aloqaga kirishishi yoki kirishmasligiga qarab belgilanadi. Bu jihatdan kesim gap strukturasida o'ziga xos mavqega ega. Uning kesim ekanligini belgilash uchun sintagmatik munosabat zarur bo'lmaydi. O'zining shakli asosida belgilanadi. Gap strukturasidagi kesimning ana shu o'ziga xos xususiyati A.A.Potebnya diqqatini jalb qildi. Natijada gap bo'laklari ichida eng mustaqil, boshqalari mavjud bo'lmaganda ham gapni gap qilib shakllantiradigan bo'lak sifatida kesimni e'tirof etdi. Bu esa gapning tuzilish markazi haqidagi an'anaviy, klassik qarashdan yangi struktur qarashga o'tish uchun asos bo'lib xizmat qildi.

Agar an'anaviy tilshunoslikda bahslar ko'proq ikkinchi darajali bo'laklar masalasida bo'lsa, hozirgi tilshunoslikda tadqiqotchilarning diqqat markazi bosh bo'laklarga qaratildi. Yuqorida ta'kidlanganidek, ayrim mualliflar **gap bo'laklari** atamasidan voz kechishga va gapni struktur jihatdan boshqacha asosda o'rganishga harakat qildilar. Xususan, T.P.Lomtev o'zining «Rus tili sintaksisi asoslari» (1958) asarida gapning sintaktik strukturasini tadqiq etishda **gap bo'laklari** atamasini **pozitsiya** atamasi bilan almashtiradi. Pozitsiya tushunchasi ostida u muayyan so'z shaklining gap tuzilishida egallagan o'rnini tushunadi. T.P.Lomtev nazariyasining ratsional mag'zi shundaki, u pozitsiyaning paydo bo'lish sabablarini ochib berdi. Bosh va ikkinchi darajali pozitsiyalarni bir-biridan ajratdi. T.P.Lomtev izidan borib, A.M.Muxin ham gap bo'laklari atamasidan voz kechadi va gaplarning struktur tahlilini sintaksemik tahlil bilan almashtiradi. A.M.Muxinning qarashiga ko'ra, sintaksema bu elementar sintaktik birlik, bevosita kuzatishda variantlar orqali namoyon bo'ladigan invariant sanaladi. Uningcha, sintaksemik tahlil bilan gap bo'laklari tahlili o'rtasida muayyan vorislik mavjud. Bu vorislik shunda ko'rinadiki, gap tarkibidan sintaktik aloqani e'tiborga olgan holda, gap tarkibidan ajratiladigan diskret birliklarga tayanadi. Shu bilan birgalikda, gap bo'laklari bilan sintaksemalar teng emasligini ham ko'rsatib o'tadi. Xususan, sintaksema, uning ta'kidlashicha, gap strukturasida elementar, ya'ni sintaktik bo'linmas birlik hisoblanadi, gap bo'laklari esa sintaktik bo'linuvchanlik xususiyatiga ham ega

bo‘lishi, ya’ni sintaktik aloqani o‘zida namoyon qiluvchi konstruksiyalarni ham o‘z ichiga olishi mumkin¹.

G.A.Zolotova ham gapning sintaktik tuzilishini gap bo‘laklari rukni ostida o‘rganuvchi an’anaviy tilshunoslikka tanqidiy yondashgan holda A.M.Muxin olg‘a tashlagan sintaksemik nazariyani davom ettirdi. Uning fikricha, sintaksema quyidagi farqli belgilarga ega:

- 1) kategorial-semantik ma’no;
- 2) bu ma’noga mos keladigan morfologik shakl;
- 3) yuqoridagilarning muayyan pozitsiyadagi sintaktik imkoniyati².

Ana shundan kelib chiqib G.A.Zolotova tilshunoslik tarixida ilk marta rus tilining sintaktik lug‘atini tuzdi. Sintaktik lug‘atning bosh vazifasi, uning fikricha, minimal sintaktik elementlar, ya’ni sintaksemalarni ilmiy jihatdan sistemaga solishdan iboratdir³. G.A.Zolotovanning bu qarashlari garchi gap bo‘laklari sintaksisiga salbiy munosabatda bo‘lganligi tufayli dunyoga kelgan bo‘lsa ham, lekin an’anaviy gap bo‘laklari haqidagi nazariyani ham struktur, ham mazmuniy jihatdan to‘ldiradi.

A.A.Potebnyaning gap bo‘laklari haqidagi, xususan, gapning sintaktik va mazmuniy tuzilishida kesimning alohida o‘rin egallashi haqidagi fikrlaridan ilhomlangan bir qator mualliflar an’anaviy bosh bo‘lak haqidagi yondashuvga ham aniqlik kiritishga harakat qildilar. Natijada gapning mazmuniy va struktur markazi egadan kesimga ko‘chirildi. Bosh bo‘laklarga bunday qarash fransuz tili materiallari asosida L.Tenyer, rus tili materiallari asosida T.P.Lomtev tomonidan olg‘a surildi.

Dunyo tilshunosligida sintaktik nazariya bo‘yicha ro‘y bergan bunday o‘zgarishlar o‘zbek tilshunosligiga ham ta’sir etmay qolmadi. O‘zbek tilshunosligida ham gap bo‘laklari sintaksisiga bag‘ishlangan qator asarlar maydonga keldi. O‘zbek ilmiy tilshunosligining ilk davrlarida A.G‘.G‘ulomov, R.Jumaniyozov, T.Ibrohimov, H.Komilovalarning gap bo‘laklari sohasidagi

¹ Мухин А.М Сентаксемный анализ и проблемы уровня языка. – Л., 1980. – С. 21.

² Золотова Г.А Очерк функционального синтаксиса русского языка. – М., 1973. –С. 314; Шу муаллиф слово в синтаксическом слове» С. 28.

³ Золотова Г. А Очерк функционального синтаксиса ... – М., 1973. –С. 316-317.

asarlari maydonga keldi.¹ Bularning ichida A.Gʻulomovning 1940-yilda aniqlovchilar tadqiqiga bagʻishlangan nomzodlik dissertatsiyasi alohida ajralib turadi.

XX asrning 2-yarmida gap boʻlaklari masalalariga bagʻishlangan qator tadqiqotlar paydo boʻldi. Xususan, Gʻ.Abdurahmonovning «Ajratilgan ikkinchi darajali boʻlaklar», H.Boltaboyevaning «Ajratilgan boʻlaklar va ularning maʼnoviy funksiyalari», A.Safayevning «Hozirgi oʻzbek tilida gapning bosh boʻlaklari», F.Ubayevaning «Hozirgi oʻzbek tilida hol kategoriyasi», D.S.Semigulovning «Hozirgi oʻzbek tilida oʻrin va payt hollarining rus tiliga qiyosi», B.Egamberdiyevning «Hozirgi oʻzbek adabiy tilida sodda gap kesimining ifodalanishi», T.Akramovning «Hozirgi oʻzbek tilida ot kesimlar», Sh.Shoazizovning «Hozirgi oʻzbek adabiy tilida ega va uning ifodalanishi» singari qator ilmiy tadqiqotlar maydonga keldi.

M.Boshmonov toʻgʻri taʼkidlaganidek, XX asr 80-yillarga kelib oʻzbek tilshunosligi gap boʻlaklari masalalari boʻyicha anʼanaviy tilshunoslik tomonidan barcha vazifalarni bajarib boʻldi².

80-yillardan boshlab oʻzbek tilshunosligi oldida oʻrganilayotgan obyektni tavsifiy bosqichdan tadqiqot bosqichiga koʻtarish oʻzbek tilining barcha sath birliklarini sistem-struktur oʻrganish metodikasi nuqtayi nazaridan tadqiq qilish vazifasi³ koʻndalang qilib qoʻyildi. Shu yillardan boshlab gapga sistema sifatida yondashuv gapning eng muhim struktur markazi sifatida kesim eʼtirof etila boshlandi va gapning boshqa boʻlaklari kesimning kengaytiruvchilari sifatida izohlana boshlandi. Bunday gʻoya A.Nurmonov, N.Mahmudov, H.Neʼmatovlar tomonidan olgʻa tashlangan boʻlsa, keyinchalik R.Sayfullayeva, M.Qurbonova, M.Boshmonov, L.Raupova va boshqalar tomonidan rivojlantirildi. Xususan, N.Mahmudov, A.Nurmonovlar tomonidan yozilgan «Oʻzbek tilining nazariy grammatikasi»da kesimga quyidagicha baho beriladi:

¹ Сайфуллаев А.Р. Семантико-грамматические особенности членов предложения в современном узбекском языке. – Т.: Фан, 1984. – С. 6.

² Бошмонов М. Монопредикатив содда гапларнинг бўлаклари лисоний система сифатида. 1-қисм. Хўжанд, 1994. –Б. 11

³ Нурмонов А. Талаб, эҳтиёж, имконият. Олий ва ўрта мактабда ўзбек тилини ўқитишни қайта қуришнинг йўналишлари // Ўқитувчилар газетаси. – 5-март 1988 й.

«Oʻzida predikativlikni aks ettiradigan, gapni uyushtiruvchi va shakllantiruvchi markaziy boʻlak kesimdir. Kesim gapning markaziy boʻlagi boʻlganligidan gapning butun tavsifi-grammatik kategoriyalari: tasdiq-inkorlik, shaxs (personallik), zamon (temporallik), kommunikativ maqsad va hokazolar kesimga qarab belgilanadi. Kesim gap qurilishida uyushtiruvchilik rolini oʻynaydi»¹.

Sintaksisni sistem-struktur nuqtayi nazardan oʻrganishning boshlanishi natijasida sintaktik birliklarni ham til-nutq dixotomiyasi asosida oʻrganishga katta eʼtibor berildi. Natijada **gapning yadrosi, struktur sxemasi, modeli** nomlari bilan yuritiluvchi sintaktik tushunchani belgilashga katta ehtiyoj tugʻildi. Buning natijasida struktur sxemani belgilashda nimaga tayaniladi degan savolga javob berish zarur boʻlib qoldi. Ana shu savolga javob asnosida obligator va fakultativ boʻlaklar bir-biridan farqlana boshlandi. Obligator boʻlaklarni ajratish yuzasidan xilma-xil qarashlar maydonga keldi. Shuningdek, gap tarkibida ishtirok etgan barcha soʻz shakllarining gap boʻlaklari darajalanishidagi mavqeyi masalasi ham tadqiqotchilar diqqatini tortdi.

Ayrim tilshunoslar gapning struktur sxemasini mazmuniy asosda belgilashga harakat qilsalar², boshqalari shakl asosida belgilaydilar³. Bir guruh tadqiqotchilar esa struktur sxemani belgilashda ham mazmuniy, ham shakliy tomonini eʼtiborga oladilar. Mazmuniy va shakliy gapning eng kichik qolipini belgilashda L.Yelmslev tavsiya etgan chetlashtirish usuliga tayaniladi.

Shuning uchun gapda uning mazmuniy va grammatik jihatidan mohiyatini yoʻqotmagunga qadar boʻlgan aʼzolar chetlashtirib boriladi. Ana shu asosda gapni gap qilib turgan minimal birlik aniqlanadi. Oʻzbek tilshunosligida ham ana shunday minimal birlikni aniqlashga 80-yillardan boshlab qadam qoʻyildi. Mualliflar guruhining «Советская туркология» jurnalida sodda gap strukturasiga bagʻishlangan maqolasida va A.Nurmonovning «Gap haqidagi sintaktik nazariyalar» kitobida bunday eng kichik birlik WPm deb belgilandi. Bu

¹ Махмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Синтаксис. – Т.: Ўқитувчи, 1995. – Б. 66.

² Грамматика современного русского литературного языка. - М.: Наука, 1970. – С. 270.

³ Структурный синтаксис английского языка. - М., 1977. – С.43.

ramziy ifodaning W qismi atov birligiga ishora, P qismi uning predikat vazifasida kelishi, m qismi esa predikativlik shaklini ifodalaydi. Ko‘rinadiki, bu ramziy ifoda gapning eng muhim belgisi bo‘lgan predikativlikni o‘zida namoyon qiladi. Predikativlik shakllari turkiy tillarda odatda kesimga qo‘shiladi. Shunday ekan, har qanday gapning markazida kesim turishi tabiiy. Ikkinchidan, kesimdan boshqa barcha gap bo‘laklarini belgilashda nisbatlash asosiy o‘lchov bo‘lib xizmat qiladi. Gap tarkibidagi so‘z shakllari kesimga nisbatan belgilanadi. Jumladan, ega ham kesimga nisbatlanmasdan belgilanishi mumkin emas. Ana shuni e‘tiborga olgan holda, A.N.Nurmonov va Sh.Shahobiddinova kesim gapning bo‘lagi emas, balki, eng kichik gapning o‘zidir, qolgan barcha bo‘laklar uning kengaytiruvchilari yoki kengaytiruvchilarining kengaytiruvchilaridir, deb hisoblaydilar.¹

Lisoniy birliklarda shakl va mazmun dialektikasi

Olamdagi narsa va hodisalar o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik va bog‘lanishning turlaridan biri shakl va mazmun dialektikasidir.

Shaklsiz mazmun bo‘lmagandek, shaklning mavjudlik usuli, tarkibi va tuzilishi ham mazmunsiz bo‘lmaydi.

Demak, shakl va mazmun ma’lum bir obyektning o‘zaro dialektik aloqador bo‘lgan ikki tomonidir².

Mazmun deganda obyektning barcha elementlarining tarkibi, uning xossalari, ichki jarayonlarining, aloqalarining rivojlanish ziddiyatlari va mayllarining birligi ko‘zda tutiladi. Masalan, organizmning mazmuni uning organlarining oddiy majmuidan iborat emas, balki muayyan shaklda o‘tadigan hayotiy faoliyat jarayonidan iborat.

¹ Нурмонов А., Шахобиддинова Ш. Гап бўлаклари категорияси ва унинг ташкил этувчилари ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2006. – № 1. – Б. 50-53.

² Нурмонов А., Йўлдошев Б. Тилшунослик ва табиий фанлар. – Т.: Шарқ, 2001. – Б. 33

Shakl deganda mazmunning tashqi ifodalanish usuli, mazmun elementlari aloqalarining nisbatan barqaror muayyanligi va ularning o'zaro ta'siri, mazmunning tipi va strukturasi tushuniladi.

Mazmun va shakl bir obyektning o'zaro ziddiyatli ikki qarama-qarshi qutbidir. Bu tushunchalar bir-birini taqozo qiluvchi, birisiz ikkinchisi mavjud bo'lolmaydigan tushunchalardir.

Shakl bilan mazmun bir konkret obyektga o'zaro ajralmasdir.

Shakl ichki va tashqi birlikdan iborat. Mazmun elementlarining bog'lanish usuli sifatida shakl ichki bir hodisadir. U obyektning strukturasi tashkil etadi va mazmunning bamisoli bir momenti bo'lib qoladi. Muayyan mazmunning boshqa narsalar mazmuni bilan bog'lanish usuli sifatida shakl tashqi bir narsadir. Masalan, badiiy asarning ichki shakli avvalo syujetdan, asarning mazmunini tashkil etuvchi badiiy obrazlar, g'oyalarning bog'lanish usulidan iborat. Tashqi shaklni esa asarning hissiy fahmlanadigan qiyofasi, uning tashqi shakllanishi tashkil etadi.

Gegelning ta'kidlashicha, shakl va mazmun o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni qarab chiqayotganda shuni nazardan qochirmaslik kerakki, mazmun shaklsiz bo'lmaydi. Shakl esa ayni vaqtda mazmunning o'zida ham mavjuddir va unga nisbatan tashqi bir narsadan iboratdir¹.

Shakl va mazmun munosabatida yetakchi tomon mazmundir. Tashkil topish shakli nimaning tashkil topishiga bog'liqdir. Hech qanday tashqi kuch emas, balki mazmun o'zini-o'zi shakllantiradi. Mazmun bilan shakl o'rtasida ichki ziddiyat bor. Narsalarning, jarayonlarning shakli bilan mazmuni o'rtasidagi ziddiyatlarning paydo bo'lishi, rivojlanishi va bartaraf qilinishi - taraqqiyotning qarama-qarshiliklar yo'li bilan eng muhim va eng umumiy ifodalanishlaridan biridir.

Shakl va mazmun o'zaro dialektik bog'liq bo'lsa ham, lekin ular ma'lum darajada nisbiy mustaqillikka ega. Shakl va mazmun, avvalo, o'z ichki tuzilish

¹ Гегель. Энциклопедия философских наук. – М.: Мысль, 1974. – С. 290.

birliklari bilan farq qiladi. Shakl va mazmun tuzilishi bir-biriga muvofiq kelishi ham, muvofiq kelmasligi ham mumkin.

Bu dialektik aloqadorlik tilda ham yorqin o'z ifodasini topadi. Chunki til sistemasining fonologik sathdan boshqa barcha sath birliklari uchun shakl va mazmun munosabati daxldordir.

Har qanday mazmun muayyan moddiy shakl vositasida ifodalangandagina u real lingvistik birlikka aylanadi. Shunday ekan, lingvistik birliklar o'rtasidagi shakl va mazmun munosabatini o'rganish ham katta ahamiyatga ega.

Lingvistik birliklarning shakl va ma'nosi o'rtasidagi munosabat antik davrlardayoq faylasuflar e'tiborini tortgan. Ular uzoq vaqt lingvistik birliklarni ifodalovchi va ifodalanmish tomoni o'rtasidagi munosabatning xususiyati, ya'ni ular o'rtasidagi munosabat erkinmi yoki tabiiymi, degan masala ustida bahs yuritdilar. Nihoyat filosoflarning katta guruhi ifodalovchi bilan ifodalanmish o'rtasidagi munosabatning erkin ekanligini tasdiqladilar.

Shuningdek, shakl va mazmun munosabatiga substansional yondashuv ham ana shu muammoning tarkibiy bir qismi sanaladi.

Mashhur Daniya tilshunosi L.Yelmslevning figuralar haqidagi qarashlari ham, leksikada uzviy tahlil tamoyillari ham, S.N.Ivanovning substansional morfologiya haqidagi qarashlari ham til tuzilishiga substansional yondashuv asosida maydonga keldi.

Grammatik shaklni munosabatda, sintaktik funksiyada namoyon bo'ladigan ma'lum xususiyat – ma'nolar tashuvchi sifatida substansional tushunish uning ikkilangan va ziddiyatli morfologik-sintaktik tabiatini o'zida aks ettiradi. Substansionallik nuqtayi nazaridan muayyan munosabatga kirishgunga qadar ham o'zining mustaqil mavjudligiga ega. Shu bilan birgalikda u o'zining yakka aloqalaridagina real mavjud bo'ladi. Ana shu nuqtayi-nazaridan grammatik shakllarning bunday ziddiyatli birligi dialektikadagi umumiylik va alohidalikning, mohiyat va hodisaning namoyon bo'lishi sanaladi.¹

¹ Нурмонов А., Йўлдашев Б. Тилшунослик ва табиий фанлар. – Т.: Шарк, 2001.-Б. 32

Leksik, morfologik birliklarning shakl va mazmuni o'rtasidagi munosabatni o'rganish qanchalik muhim bo'lsa, sintaktik birliklarning shakl va mazmuni o'rtasidagi munosabatni yoritish ham hozirgi o'zbek tilshunosligi uchun shunchalik muhimdir.

Bir ma'noning bir necha shakllar orqali ifodalanishi leksik va morfologik sath misolida yetarli darajada o'rganilgan. Lekin xuddi shu masalaning sintaktik sathda namoyon bo'lishiga hanzgacha jiddiy e'tibor qaratilganicha yo'q.

Sintaktik sathda muayyan axborotning turli sintaktik shakllar orqali ifodalanishi yoki bir sintaktik shakl orqali bir necha axborotni ifodalashi mumkinligi masalasini yoritish shu tilning ichki imkoniyatlarini, uning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatib berishga olib keladi. Bu esa har bir tilning umumiylik va o'ziga xoslik dialektikasini ochishga imkon tug'diradi.

Shuning uchun ham sintaktik birliklarning shakl va mazmun munosabati bir qator o'zbek tilshunolarining diqqatini jalb etdi. Bu sohada prof. N.Mahmudov, A.Berdaliyev singari olimlarning ishlarini alohida ta'kidlash lozim¹.

Avvalo, sintaktik birliklarning shakl va mazmun o'rtasidagi munosabati haqida fikr yuritilganda, dastlab uning qaysi tomonini asos qilib olish mumkin, degan masala ko'ndalang bo'lishi tabiiy.

Bu masalani hal etishda hozirgacha bo'lgan tilshunoslikda ikki yo'nalish maydonga keldi: 1) semasiologik yo'nalish; 2) onomasiologik yo'nalish. Semasiologik yo'nalish tarafdorlari shaklni asos qilib oladilar va har bir shakl qanday ma'nolarni ifodalashini ochib berishga harakat qiladilar. Onomasiologik yo'nalish tarafdorlari esa, aksincha, ma'noni asos qilib oladilar va muayyan ma'no qanday yo'llar bilan ifodalanishini yoritishga ahamiyat beradilar.

Tilshunoslikda mavjud bo'lgan har ikki yo'l bir-birini inkor etmaydi, balki bir-birini to'ldiradi. Onomasiologik yo'nalish muayyan ma'noning qanday ifoda vositalari bilan ifodalanishi masalasini o'rganishga e'tiborni

¹ Махмудов Н.М. Ўзбек тилидаги содда гапларда семантик-синтактик асимметрия. – Т.: Ўқитувчи, 1984.- 146 б.; Бердалиев А.Эргаш гапли кўшма гап конструкцияларида семантик-сигнификатив парадигматика. – Т.: Фан, 1989. – 107 б.

qaratar ekan, xuddi mana shu yo‘nalish turli sistemadagi tillarni tipologik planda o‘rganishga, bu tillarning umumiy, turli nuqtalari qayerda-yu, xususiy, o‘ziga xos tomonlari qayerda ekanligini yoritishda katta ahamiyatga ega. Shuning uchun ham bu usul turli sistemadagi tillarning tipologik tadqiqotlarida ham katta ahamiyatga ega.

Onomasiologik yo‘nalishda tayanch nuqta mazmun, sintaktik birliklarning mazmuniy tuzilishi deb qaralar ekan, avvalo, ana shu mazmuniy tuzilish birliklari qanday belgilanadi, degan masalani hal etish eng zaruriy masalalardan sanaladi.

Bu masalani hal etishga e‘tiborni qaratgan olimlar falsafadagi **propozitsiya** atamasini tayanch nuqta qilib oldilar.

Propozitsiya tushunchasi har bir nutq egasining ongida mavjud bo‘lgan obyektiv reallikning in‘ikosi, nutq vaziyatidir. Ma’lum nutq vaziyati elementlari obyektiv borliqda o‘zaro munosabatda bo‘lgan va inson sezgi a’zolariga ta’sir etadigan elementlarning umumlashgan obrazlarining ongda aks etishidir. Inson ongida aks etgan ana shu borliq elementlarini ayrim tilshunoslar **signifikat** atamasi bilan ham nomlaydilar.

Bundan ko‘rinadiki, signifikat elementlari shakliy elementlar bilan qiyoslashga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Bir signifikativ ma’no tuzilishi bir necha shakliy tuzilish birliklari orqali ifodalanishi mumkin. Bu sintaktik sinonimiyani vujudga keltiradi. Aksincha, bir necha signifikativ ma’no bir sintaktik shakl tuzilishi bilan ifodalanishi mumkin. Natijada sintaktik omonimiya vujudga keladi.

Demak, sintaktik birliklarning shakl va mazmun dialektikasi mazmuniy birliklarning to‘liq yoki noto‘liq shakliy ifodasini topishi masalasini o‘rganishdan, bu ikki struktura o‘rtasida mutanosib (simmetrik) va nomutanosib (asimmetrik) munosabat mavjudligini aniqlashdan tashqari, sintaktik sinonimiya, sintaktik omonimiya va sintaktik polisemiya masalalarini ham qamrab oladi.

Shuning uchun ham sintaktik sinonimiya, sintaktik omonimiya va sintaktik polisemiya masalalarini sinchiklab o'rganish sintaktik birliklarning shakli va mazmuni o'rtasidagi munosabatni chuqurroq yoritishga qulay imkoniyat yaratib beradi.

Ko'rinadiki, nutqiy jarayonda mazmuniy birliklar bilan shakliy birliklar o'rtasida ko'pincha nomutanosiblik mavjud bo'ladi. Chunki nutq jarayonida so'zlovchi oz moddiy vositalardan foydalangan holda, ko'proq ma'noni ifodalashga harakat qiladi, so'zlovchining obyektiv olamdan olgan taassuroti to'lig'icha o'z shakliy ifodasini topmaydi. Faqat eng muhim jihatlari fikran ajratiladi va ana shu eng muhim deb ajratilgan jihat o'z shakliy ifodasiga ega bo'ladi. Qolgan tomonlar so'zlashuvchilarning oldindan bilish fondiga va til ko'nikmasiga ko'ra ma'lum bo'ladi.

Masalan, biron-bir qalam ma'lum bir xontaxta ustida turganligi vaziyatini ko'raylik. Bunda qalamning rangi, shakli, uchining holati, xontaxtaning shakli, rangi, estetik ko'rinishi va boshqa jihatlari bor. So'zlovchi shu vaziyatning axborot tashishi uchun eng muhim jihatlarni tanlaydi va ana shu tanlangan qismlarga mos shakllarni belgilaydi.

Shuning uchun mashhur nemis olimi V.Gumboldt nutqda so'zlashuvchilar o'rtasida bir vaqtning o'zida ham tushunish bor va ham tushunmaslik bor, deydi. Shakl bilan mazmunning nisbiy mustaqilligini shunda ham ko'rish mumkinki, ayni bir mazmun turli shakllarga kirishi mumkin (sintaktik sinonimiya). Bir shaklning o'zi esa bir necha mazmunga ham ega bo'lishi mumkin (sintaktik omonimiya). Sintaktik sath birliklaridagi ana shunday shakl va mazmun dialektikasi ayrim asarlarni e'tiborga olmaganda, hali tilshunoslar diqqatini yetarli ravishda jalb etgani yo'q. Bu esa bugungi o'zbek tilshunosligi uchun ushbu mavzuning naqadar dolzarb ekanligini ko'rsatadi.

Gapning shakli va mazmuni o'rtasidagi aloqa to'g'risida fikr yuritgan D.Lutfullayeva «gapning mazmuni o'ziga muvofiq shaklni taqozo etar ekan, bu ikki tomonning butunlay nomuvofiqligi haqida gapirib bo'lmaydi. SHakl va

mazmuni butunlay muvofiq kelmaydigan gapning o'zi yo'q» ekanini ta'kidlaydi¹.

Lisoniy birliklarning shakl va mazmuni o'rtasidagi munosabatni ifodalashda umumiylik - xususiylik dialektikasini ham e'tiborga olamiz. Chunki har qanday lisoniy birlik bevosita kuzatishda xususiy birliklar sifatida namoyon bo'ladi. Xususiy birliklarni qiyoslash, ular o'rtasidagi umumiy jihatlarni topish orqali xususiyliklar ma'lum umumiyliklarga fikran birlashtiriladi. Shunday qilib, har qanday umumiyliklar bevosita kuzatish bosqichida xususiyliklar orqali namoyon bo'ladi.

Gap bo'laklari sathida umumiylik - xususiylik dialektikasi morfologik shakl va sintaktik shakl, morfologik ma'no va sintaktik ma'no munosabati orqali ifodalanadi. Morfologik shakl va ma'no sintaktik shakl va ma'noning ichki tomonini, nimadan tashkil topishini, strukturasini belgilaydi. Funktsional tomoni esa gap tarkibida qanday pozitsiyasini egallashni nazarda tutadi.

Ana shuni hisobga olgan holda ishda morfologik shakl bilan sintaktik shakl, morfologik ma'no bilan sintaktik ma'no o'rtasidagi munosabat ochib beriladi.

Sintaktik vaziyat

Gap tarkibida mazmuniy va grammatik tayanch nuqta predikativlik shaklidagi predikat, ya'ni kesim hisoblanadi². Boshqa barcha bo'laklar kesimning «bo'sh o'rinlari»ni to'ldirib, unga nisbatan ma'lum vaziyatda keladi. Kesimning «bo'sh o'rinlari»ni to'ldirib, ma'lum sintaktik vaziyatda (ega, to'ldiruvchi, hol) kelgan sintaktik birliklar moddiy jihatdan bir yoki bir necha morfologik shakllardan tashkil topadi³.

¹ Лутфуллаева Д.Э. Тасдиқ гапларда инкор ва шаклий-мазмуний номувофиқлик: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Т., 1997. – Б. 5.

² Теньер Л. Основы структурного синтаксиса. – М., 1988. – С 653.

³ Нурмонов А. Гап ҳақидаги синтактик назариялар. – Т., 1988. – 99 б.; Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. – Т.: Ўқитувчи, 1995. – Б. 60

Bir necha morfologik shakllardan ifodalangan, kesimga nisbatan biror sintaktik vaziyatda kelgan sintaktik butunlik yaxlit holda funksiyalashadi. Bunday sintaktik butunliklarda bir uzv boshqa uzvlarni birlashtiruvchi yetakchi vosita sanaladi. Ayni paytda bu yetakchi qism o'zi ergashtirib kelgan boshqa qismlar bilan birgalikda bir butun holda kesimga nisbatan tobe vaziyatda keladi.

“Sintaktik pozitsiya” deganda, gapning markaziy birligi bo‘lgan kesimning bo‘sh o‘rinlarini tushunamiz. Uning bo‘sh o‘rinlarini to‘ldiruvchi sintaktik birliklar kesimga nisbatan muayyan vazifani bajaradi. Masalan, ***Dalalarda qushlar sayramoqda*** gapida grammatik va mazmuniy markaz hisoblanuvchi ***sayramoqda*** kesimi subyekt, lokal hamda payt valentliklariga ega bo‘lib, dastlabki ikki valentlik ***qushlar*** va ***dalalar*** sintaktik birliklari bilan to‘ldirilmoqda. Subyekt valentligini to‘ldiruvchi sintaktik birlik bosh kelishikdagi ot orqali ifodalanib, ega pozitsiyasida, lokal valentligini to‘ldiruvchi ***dalalarda*** sintaktik birligi o‘rin payt kelishigidagi ot orqali ifodalanib, hol pozitsiyasida kelmoqda. Demak, sintaktik pozitsiya kesimning bo‘sh o‘rinlariga (valentliklariga) qarab belgilanadi. Ayrim hollarda kesimga argument bo‘lib kelgan bo‘laklar ham o‘zlarining bo‘sh o‘rinlariga ega bo‘lib, ma’lum argumentlar bilan to‘ldirilishi mumkin. Bunday vaqtda sintaktik pozitsiya tushunchasi faqat kesimga nisbatan emas, kesim argumentlarining argumentlariga nisbatan ham qo‘llanadi. Ana shu holatlar e’tiborga olinsa, muayyan so‘z shaklining boshqa so‘z shakliga nisbatan holati uning vaziyati sanaladi. Ayni bir so‘z shakli turli xil sintaktik vaziyatda turli gap bo‘lagi vazifasida kelishi mumkin. Tobe aloqaga kirishayotgan so‘z shakllari juftligida tobe qism hokim qism talab etgan vaziyatda keladi. Ko‘rinadiki, tobe qismning vaziyati aniq, hokim qismning vaziyati esa noaniq bo‘ladi. Uning qaysi vaziyatda kelayotganligi nutq zanjirining keyingi halqasida aniqlanadi. Masalan, gap qurilishi ***a, b, c*** va boshqa so‘z shakllaridan tashkil topgan bo‘lsin. Agar biz ***a*** so‘z shaklining vaziyatini ***b*** so‘z shakliga munosabatiga ko‘ra belgilasak, ***b*** so‘z shaklining vaziyatini ***a*** shakliga qarab belgilab bo‘lmaydi. Uning vaziyati ***c***

soʻz shakli munosabatiga koʻra, oʻz navbatida, *c* soʻz shaklining vaziyati esa *d* shakliga koʻra belgilanadi¹.

Yuqorida taʼkidlanganidek, ayrim hollarda kesimga argument boʻlib kelgan birliklar oʻzlarining argumentlari bilan kengayib, u bilan birgalikda yaxlit holda kesimga nisbatan bitta sintaktik pozitsiyada kelishi mumkin. Bu haqda B.Mengliyev nutq jarayonida oʻzaro munosabatga kirishuvchi boʻlaklarning bogʻlanishi xususida toʻxtalib: «... qaratqich kelishigida «otni otga aniqlovchi vazifasida bogʻlash», «tushum kelishigida otni feʼlga toʻldiruvchi vazifasida bogʻlash» kabi xususiy koʻrinishlarda namoyon boʻladi», – deb taʼkidlaydi².

Gap tarkibidagi ayrim sintaktik birliklarning kesim bilan toʻgʻridan toʻgʻri bogʻlana olmasligi, uning boshqa sintaktik birlik bilan qoʻshilib, bir butun holda bogʻlanishi mumkinligi shu kunga qadar boshqa mualliflar tomonidan ham olgʻa surilgan edi. Xususan, prof. Sh.Rahmatullayev qaratqich aniqlovchilar haqida shunday deydi: «... boshqa barcha kelishiklardan farqli holda qaratqich kelishigidagi soʻz oʻzi yolgʻiz ishlatilmaydi, u doim qaralmish bilan birga yuradi». Shu sababli qaratqich kelishigidagi soʻz doim birikma tarkibida turadi, birikmaning boʻlagi (ichki boʻlak) holatida boʻladi.³

Oʻzbek tilida murakkablashgan sodda gaplarning uslubiy xususiyatlari borasida tadqiqot olib borgan H.Holiqov aniqlovchilarning gap qurilishini kengaytirish imkoniyatlari ularning mazmuniga ham taʼsir etishini koʻrsatib oʻtgan edi.⁴

Sintaktik birliklarning ichki tuzilish uzvlarining oʻzaro munosabatini belgilashda tadqiqotchi qaysi tuzilish birligining qaysi tuzilish birligiga munosabatini belgilashiga koʻra sintaksisda ham ikki yoʻnalish maydonga keladi: mazmuniy tuzilish unsurlarining qanday shakliy tuzilish unsurlari bilan ifodalanishini oʻrganish, yaʼni mazmun planidan ifoda planiga qarab yoʻnalish.

¹ Нурмонов А. Гап ҳақидаги синтактик назариялар. – Т., 1988. – 99 б.; Махмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. – Т.: Ўқитувчи, 1995. – Б. 60.

² Менглиев Б.Р. Морфологик воситаларнинг маъновий хусусиятлари ва синтактик имкониятлари: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Т., 1996. – 18 б.

³ Раҳматуллаев Ш. Нутқимиз кўрки. – Т.: Фан, 1970. –Б. 56

⁴ Ҳолиқов Ҳ. Ҳозирги ўзбек адабий тилида мураккаблаган содда гаплар услубияти (А.Қаҳҳор асарлари материаллари асосида): Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Т., 1993. - Б. 9.

Bunday yo‘nalish “onomasiologik yo‘nalish” ham deyiladi. Shuningdek, shakliy tuzilish unsurlarining ongimizda aks etgan qanday borliq unsurlarini ifodalashini o‘rganish.

Gapning sintaktik tuzilishi shu kunga qadar gap bo‘laklari rukni ostida o‘rganib kelindi. Gap bo‘laklari esa tobe bog‘lanish tarkibida, hokim bo‘lakka nisbatan belgilanadi. Bunga ko‘ra, gap bo‘laklari ikki darajaga – bosh va ikkinchi darajalarga ajratildi.

Bugungi kunda gap bo‘laklarining bunday ajratilishida qator kamchiliklarning mavjudligi ma’lum bo‘lib qoldi. Shuning uchun ham gapni bo‘laklarga ajratishning yangi-yangi tamoyillari vujudga kelmoqda.

Ana shunday tamoyillardan biri sintaktik pozitsiya tamoyilidir. Hozirgi kunda “pozitsiya” termini tilshunoslikda ikki ma’noda qo‘llanmoqda: 1) gap uzvlarining relyatsion tuzilishidagi o‘rni. Bu ma’noda **Farhod keldi** va **keldi Farhod** gaplarida **Farhod** so‘zi turli o‘rinda kelsa ham bir xil pozitsiyada - ega pozitsiyasida kelishi ta’kidlanadi; 2) gapning silsila tuzilishida (lineynaya struktura) elementning o‘rni. Bu ma’noda **Farhod keldi**, **keldi Farhod** so‘zining birinchisida keldi so‘zining oldingi pozitsiyada, ikkinchisida esa keyingi pozitsiyada qo‘llanishi haqida gap boradi.

Pozitsiya terminining ikkinchi ma’nosi gapda bo‘laklarning qat’i tartibga ega bo‘lgan tillar uchun ko‘proq xosdir. Gapda so‘zlarning o‘rni erkin bo‘lgan tillar, jumladan, o‘zbek tili uchun pozitsiya terminini birinchi ma’noda qo‘llash o‘rinlidir.

O‘zbek tilshunosligida ham gapni sintaktik pozitsiya nuqtayi nazaridan o‘rganishning afzalliklarini tasdiqlovchi ilk izlanishlar bo‘lgan¹.

Keyingi davrlarda kesimning absalyut hokim pozitsiyasi haqida fikr yuritilmoqda. Bu fikrning ildizlari Daniya tilshunosi X.G.Vivelga borib taqaladi. Fransuz tilshunosi L.Tenyer esa ana shu g‘oya asosida o‘zining izchil nazariyasini – bir cho‘qqili nazariyani yaratdi. Ta’kidlash kerakki, X.G.Vivel

¹ Хожиев А., Махмудов Н. Семантик ва синтактик позиция // Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 1987. – №2. –Б.60-63.

ham, L.Tenyer ham har qanday gap markazida faqat fe'l (ya'ni fe'l kesimi) yotishini e'tirof etadilar¹. Lekin **Otam o'qituvchi**, **Men talabaman** singari tarkibida fe'l qatnashmagan jumlalarning tuzilish markazi qaysi bo'ladi? Bu muammoga duch kelgan bir cho'qqili nazariya tarafdorlari yuqoridagi kabi tuzilishga ega bo'lgan gaplarni turlicha hal qiladilar. Ularni ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhdagi olimlar fe'lning predmetlar o'rtasidagi munosabatni bildirishini, shuning uchun ham u gap strukturasida predmet nomlarini bog'lab, butunlik hosil qilishini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, **Qiz yigitga ro'molcha berdi** gapida bosh kelishikdagi ot (**qiz**) jo'nalish kelishigi shaklida ot (**yigit**), belgisiz tushum kelishigidagi ot (**ro'molcha**) va predikativ shakldagi fe'l ishtirok etmoqda. Yuqoridagi dastlabki uchta ot shakllari bilan nomlangan predmetlar o'zaro hech qanday munosabatga kirishmaydi. Masalan, **qiz-yigitga** yoki **qiz-ro'molcha** o'rtasida hech qanday grammatik aloqa shakli yo'q. Bu gapning tarkibidagi **berdi** fe'li esa gap tarkibidagi predmet nomlarini o'zaro bog'laydi va bu predmet nomlari o'zi ifodalagan predmetlar o'rtasidagi munosabatni ham ifodalaydi. Shuning uchun bu konsepsiya tarafdorlarining fikriga ko'ra, fe'lsiz gap bo'lishi mumkin emas. Tarkibida fe'l qatnashmagan gaplarda ham uning izi sezilib turadi. Masalan, **Otam o'qituvchi** gapi o'tgan zamon shakli **Otam o'qituvchi** bo'lgan ma'nosini ifodalaydi. Hozirgi zamon shakliga mos keladigan sanalmoq, hisoblanmoq fe'llarining gapda qatnashmayotganligi fakti ham uning moddiy ifodalovchisi bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun ham ular nol fe'llar tushunchasini kiritadilar. Gap tarkibida moddiy jihatdan ishtirok etmayotgan, tasavvur qilinadigan fe'llar nol fe'llar sanaladi. Bunday va shunga o'xshash g'oyalar E.Kurilovich, T.P.Lomtev kabi olimlarning asarlarida ham olg'a surildi².

Ikkinchi guruhdagi tilshunoslar esa gap strukturasiga qarashdagi bunday bir yoqlamalikka tanqidiy yondashgan holda, fe'l ishtirok etmagan gaplar ham bo'lishi mumkinligi, **otam-o'qituvchi** tipidagi gaplarda fe'lning ishtirok

¹ Кузнецов С.Н. Теоретическая грамматика датского языка. Синтаксис. – М., 1984. – С. 16.

² Ломтев Т.П. Структура предложения в современном русском языке. – М.: МГУ, 1979. – 371 с.

etmasligi fakti moddiy fe'liningina emas, balki nol fe'lining ham qatnashmasligi fakti ekanligini e'tirof etadilar. ***Otam-o'qituvchi*** gapida fe'l yo'q. Unga zarurat ham yo'q. ***“Otam”*** so'zi ***“o'qituvchi”*** so'zi bilan gapda qatnashmayotgan nol orqali emas, balki to'g'ridan-to'g'ri aloqaga kirishadi. Ana shu g'oya asosida gapning struktura markazi faqat fe'l-kesimlargina emas, balki ot-kesimlar ham bo'lishi mumkinligi e'tirof etildi. Bunga muvofiq, har qanday gapning tuzilishi va mazmuniy markazi predikativ shaklni olgan predikat, ya'ni kesimdir. Shunga ko'ra gaplar fe'l asosli gaplar va ot asosli gaplarga bo'lina boshlandi.

Bir cho'qqili nazariya o'zbek tilshunosligida 80-yillardan boshlab keng tarqala boshladi. Har qanday gapning mazmuniy va grammatik markazi kesim ekanligini, shuning uchun ham gapning barcha modellari kesim asosida hosil qilinishini dastlab prof. A.Nurmonov ta'kidlagan edi¹.

Bir cho'qqili nazariyaning vujudga kelishi tilshunoslik tarixida juda katta rol o'ynadi. Bu nazariya predikativlikka ikki mantiqiy a'zo – subyekt va predikat o'rtasidagi munosabat sifatidagi an'anaviy qarashga va shunga muvofiq, gap bo'laklarini ham bosh va ikkinchi darajali bo'laklarga ajratishga, gaplarni esa bir sostavli va ikki sostavli tiplarga bo'lishga chek qo'ydi, gapning ontologik tabiatini to'g'ri ko'rsatishga, uning tuzilishidagi darajalanishni obyektiv yoritib berishga yo'l ochdi.

Bir cho'qqili nazariya har qanday gapning semantik va grammatik markazi, yadrosi predikativlik shaklini olgan predikat ekanligini e'tirof etish bilan bevosita kuzatishda berilgan butun gapning sintaktik tuzilishi shu markaziy birlikning semantik va grammatik valentliklarining reallashish darajasi bilan bog'liq ekanligini ochib berishga imkoniyat yaratadi.

Gap tuzilishini markaziy a'zo (yadro qismi)ni valentliklarining reallashuvi sifatida qarash bir markaziy a'zo asosida hosil bo'lgan, bir nechta gaplarni bir paradigmaga birlashtirishga, bir paradigmaga mansub bo'lgan gaplar o'rtasidagi

¹ Нурмонов А.Н. Проблемы системного исследования синтаксиса узбекского языка. -Т.: Фан, 1982.–152 с.

zidlanish asosida ularning umumiy va xususiy belgilarini ochishga qulay sharoit tugʻdiradi.

Shakl va mazmun bir obyektning oʻzaro ziddiyatli ikki qarama-qarshi qutbidir. Bu tushunchalar bir-birini taqozo qiluvchi, birisiz ikkinchisi mavjud boʻlmaydigan tushunchalardir. Ana shuni eʼtiborga olgan holda, dissertasiyada lisoniy birliklarning shakl va mazmun dialektikasiga eʼtibor qaratildi.

GAPNING SHAKLIY TUZILISHI

Gapning sistemaviy tuzilishi

O'zbek tilshunosligidagi gapning sintaktik tuzilishini **gap bo'laklari** termini ostida o'rganish an'ana tusini olgan va unga hozirgi kungacha hech qanday e'tiroz bo'lmagan. O'zbek tilining haqiqiy ilmiy sintaksisining yaratilishi prof. A.G'ulomov, G'.Abdurahmonov, M.Asqarovalar nomi bilan bog'liqdir. Gap bo'laklarining o'rganilishida A. G'ulomovning xizmatlari katta.

Prof. A. G'ulomovning sintaktik qarashlari rus tilshunoslari, xususan, A.A.Potebnya, A.A.Shaxmatov, V.V.Vinogradov g'oyalari ta'sirida shakllandi. Shuning uchun ham A.A.Potebnya, A.A.Shaxmatov, V.V.Vinogradovlarning gap bo'laklari haqidagi qarashlari o'zbek tilshunosligiga tatbiq etildi. **Aniqlovchi, to'ldiruvchi** atamalari professor A. G'ulomov tomonidan o'zbek tilshunosligiga kiritildi.

A. G'ulomov ham gap bo'laklarini belgilashda tobelanish munosabatidan tashqaridagi gap unsurlarini gap bo'laklari tarkibiga kiritmadi. Gap bo'laklari gap tuzilishidagi rollariga qarab bosh va ikkinchi darajali bo'laklarga bo'lindi. Bosh bo'laklarga ega va kesim, ikkinchi darajali bo'laklarga esa aniqlovchi, to'ldiruvchi va hol kiritildi.

Ayrim mualliflar esa, an'anaga ko'ra, aniqlovchilarning bir turi sifatida o'rganib kelingan izohlovchilarni ham alohida gap bo'lagi sifatida ajratishga harakat qildilar. Xususan, R.Saidovanning ta'kidlashicha, ot yoki substantiv so'zlardan ifodalanib, boshqa ot bilan tobe munosabatga kirishgan gap bo'lagi izohlovchi sanaladi¹.

O'zbek tilshunosligida ham, rus tilshunosligida ham gapning tarkibida tobe vaziyatda muayyan so'roqqa javob bo'luvchi har qanday ikkinchi darajali bo'lak gap tarkibidan bir vaqtda ajratiladi. Bunday ajratish ko'pchilik uchun odatiy holga aylandi. Masalan: ***Oqil kishi dono, oliyjanob, rostgo'y kishilarga***

¹ Саидова Р.Х. Приложение в современном узбекском литературном языке: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Т., 1975. – С.5.

do'st bo'ladi jumlasida ikki bosh bo'lakka - *kishi* (ega) va *do'st bo'ladi* (kesim)ga ajratilishi bilan birga *kishilarga* (to'ldiruvchi) *oqil, dono, oliyjanob, rostgo'y* (aniqlovchi) singari ikkinchi darajali bo'laklarga ham ajratiladi. Dastlab, gap tarkibidagi bosh bo'laklar aniqlanadi va undan so'ng gapning ikkinchi darajali bo'laklari belgilanadi. Ikkinchi darajali bo'laklarni belgilashda ularning gap yoki uning bir qismining bo'lagi ekanligi hisobga olinmaydi.

An'anaviy tilshunoslikning ana shu cheklangan tomonlarini ayrim turkologlar payqaganlar va aniqlovchining gapning konstruktiv bo'lagi ekanligiga shubha bilan qaraganlar. Jumladan, A.N.Baskakov fikricha, aniqlovchining miqdoridan qat'i nazar, har qaysi aniqlanmish gap tarkibida o'zining sintaktik pozitsiyasiga ega bo'ladi va aniqlovchi bilan birgalikda bir butun holda bir gap bo'lagi sanaladi.¹ N.K. Dmitriyev ham aniqlovchi-aniqlanmish munosabati gapning tuzilishi doirasiga kirmasligini ta'kidlagan edi².

Ba'zi o'zbek tilshunoslari ham ikkinchi darajali bo'laklarning gapdagi maqomi borasida an'anaviy qarashlarga tanqidiy munosabatda bo'ldilar. Xususan, prof. Sh.Rahmatullayev 1970-yildayoq gap bo'laklarini, jumladan, ikkinchi darajali bo'laklarni ajratishda mavjud qarashlarga tanqidiy nuqtayi nazardan qaragan edi. Jumladan, u quyidagilarni yozadi: «...Shuni ta'kidlash kerakki, sifatlovchiga so'roqni sifatlanmishdan kelib chiqib beramiz. Demak, sifatlovchining so'rog'i ma'lum ma'noda ichki so'roq bo'ladi. Biror bo'lak vazifasida sifatlovchili birikma keladi. Sifatlovchiga beriladigan so'roq ana shu bo'lak vazifasida kelgan birikmaning ichki tuzilishiga doir bo'ladi.

Yuqorida aytilgan ichki xususiyat (tartib erkinligini yo'qligi va ichki so'roqqa javob bo'lishi) sifatlovchining sintaktik mohiyatini belgilab qo'yadi. Sifatlovchi bo'lak ichidagi bo'lak, bo'lakning bo'lagi bo'lib keladi.

Sifatlovchining o'ziga xos ayrimliklari borligidan kelib chiqib, uni bir vaqtlar **uchinchi darajali bo'lak** deb ham yuritishgan, ammo keyinchalik bu

¹ Баскаков А.Н. Простое предложение в каракалпакском языке.-Исследование по сравнительной грамматике тюркских языков. III. Синтаксис. – М., 1961. – С.67.

² Дмитриев Н.К. Детали простого предложения, Исслед.по срав. гр. тюркских языков. III. Синтаксис. – М., 1961. – С.28.

tushuncha va termindan voz kechilgan. Aslida bu termin hodisaning mohiyatini aniq ochib bermaydi. Bizningcha, sifatlovchini (kengroq olsak aniqlovchilarning barcha turlarini) gapning bo‘lagi deb emas, birikmaning bo‘lagi deb atash to‘g‘ri.¹

Agar hozirgina ta’kidlangan fikrga qo‘shilsak, «sifatlovchi o‘z sifatlanmishi bilan birgalikda bir bo‘lak vazifasida keladi», – deb umumiy bir qoida chiqarish mumkin. Bu bilan gapni sintaktik tahlil qilish ancha osonlashadi, birikmaning gap uchun (asli bo‘lak uchun) qurilish materiali sifatida xizmat qilishini tan olgan bo‘lamiz.

Prof. N.Mahmudov aniqlovchilarni gapning konstruktiv bo‘lagi hisoblamagani holda, to‘ldiruvchi va hollarning ham gapdagi vazifasini farqlash lozimligini ko‘rsatadi². Uning ta’kidlashicha, ikki va undan ortiq predikat qatnashganda, ulardan biri asosiy, qolganlari ikkinchi darajali holatda bo‘ladi. Lekin har bir predikat, u xoh asosiy, xoh ikkinchi darajali bo‘lsin, muayyan obyekt munosabati bilan bog‘liq bo‘ladi. Bu holat, tarkibida ikkinchi darajali predikatli sifatdosh va ravishdosh o‘ramlar (oborotlar), harakatlar nomi va shart fe‘lli qurilmalar, shuningdek, predikativ so‘zlar (*bor*, *yo‘q* singari so‘zlar) bilan shakllangan qurilmalar mavjud bo‘lgan sodda gaplarda kuzatiladi. Masalan: ***Uning dardini yengillatadigan so‘zni inson bolasi hali yarata olgani yo‘q*** (S.Ahmad) gapida ikkinchi darajali predikatli ***uning dardini yengillatadigan*** sifatdosh oboroti ishtirok etgan. Gapda ikkita predikat mavjud bo‘lib, ulardan biri, ya’ni ***yarata olgani yo‘q*** fe‘l shakli bilan ifodalangan asosiy (kesim vaziyatida), ikkinchisi, ya’ni ***yengillatadigan*** sifatdagi shakli bilan ifodalangani esa ikkinchi darajalidir. Asosiy predikat (***so‘zni***) so‘z shakli orqali ifodalangan obyekt munosabati bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi darajali predikat ***dardini*** so‘z shakli orqali ifodalangan vositasiz obyekt munosabati bilan bog‘liq. Ammo bu ikki obyekt predikatlarga munosabati jihatidan aynan o‘xshash bo‘lsa ham, ularni bir-biri bilan mutlaqo tenglashtirish mantiqan to‘g‘ri emas. Chunki

¹ Раҳматуллаев Ш. Нуткимиз кўрки. –Т., 1970.-Б.19-20.

² Маҳмудов Н. Функционал ва нофункционал тўлдирувчилар ҳақида -// Ўзбек тили ва адабиёти.- Тошкент, 1981. - №1. – Б. 43-46.

mazkur predikatlarning o‘zi mavqeyi jihatidan bir-biri bilan aynan teng emas, ya’ni biri asosiy, ikkinchisi esa ikkinchi darajalidir. Shuning uchun ham mazkur gapning sintaktik tuzilishida ikkita aynan bir maqomga ega bo‘lgan vositasiz to‘ldiruvchi mavjud, deb qarashning o‘zi ilmiy asosga ega emas.

Muallif to‘g‘ri ta’kidlaganidek, bunday to‘ldiruvchilar funktsionallik jihatdan ham bir-biridan farq qiladi. Ikkinchi darajali predikatlarning vaziyatni egallaydi. Shunga ko‘ra muayyan sintaktik vaziyatdagi bunday qurilmalar gapning yoyiq, birikmali, kengaytirilgan bo‘laklari sifatida baholanadi¹.

Ravishdosh, sifatdosh, harakat nomli, shart fe‘lli o‘ramlarning gap tarkibida bir butun holda, bir sintaktik vaziyatni egallashi, bir bo‘lak deb baholanishi, bunday o‘ramlarning ichki bo‘linishlari butun gap uchun nofunktsional, faqat o‘ramninggina ichki bo‘linishi ekanligi prof. A.Nurmonov tomonidan ham ko‘rsatilgan edi.

Keyinchalik bunday o‘ramlarning transformatsion bo‘laklar ekanligi va gap tarkibida bir bo‘lak vazifasini bajarishi boshqa mualliflar tomonidan ham bayon qilindi². Ayrim mualliflar shunday va shunga o‘xshash qurilmalarni deskripsiya atamasi bilan nomladilar va ularning sintaktik pozitsiyalari, ichki tuzilishlarini o‘rgandilar³.

Biz o‘z ishimizda kesimga nisbatan ana shunday nofunktsional bo‘laklarni aniqlashni, ularning funktsiyalashuvi ma’lum sintaktik pozitsiyadagi sintaktik butunlik tarkibida ekanligini ko‘rsatishni, shunga muvofiq sintaktik tahlilni ko‘p bosqichda olib borish lozimligini isbotlashni o‘z oldimizga maqsad qilib oldik.

Tarkibida butun gap uchun nofunktsional bo‘lagi bo‘lgan sintaktik butunlik uchun propozitiv nomlanish atamasidan foydalanishni ma’qul ko‘rdik.

Propozitiv nomlanish turli sintaktik pozitsiyalarda kelishi mumkin:

¹ Махмудов Н. Ўша мақола. – Б. 44; Яна қаранг: Асқарова М. Бирикмали гап бўлаклари ва унинг эргаш гапларга муносабати. – Тилшунослик масалалари. – Тошкент, 1970. – Б. 119-128; Абдуллаев Х. Гап бўлақларининг тузилишига кўра таснифи масаласига доир / «Ўзбек тили ва адабиёти». – Тошкент, 1974. – № 3. – Б. 34;

² Мухаммадиева М. Трансформационные члены предложения в современном узбекском языке: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Т., 1995. – с.18.

³ Ломтев Т.П. Структура предложения в современном русском языке. – М., 1979. – С. 51. Усмонова Х. Дескрипция (мураккаб ном) ва унинг гап тузилишидаги ўрни: Филол. фанлари номзоди ... дис. – Т., 1994. – 127 б.

1. Ega pozitsiyasida: ***Shamoldan tez uchgan poyezdlar ham to Shimolga yetguncha ketadi holdan.***

(H.Olimjon).

2. To'ldiruvchi pozitsiyasida: ***Ukamni bog'chadan olib kelishni buyurdi.***

3. Hol pozitsiyasida: ***Shimolga yetguncha ketadi holdan.***

Yuqorida berilgan sintaktik birliklar bir butun holda gap tarkibida muayyan sintaktik pozitsiyada kelsa, uning tarkibidagi uzvlar butun gapga nisbatan nofunktsional sanaladi. Ularning funksionallashuvi faqat propozitiv nomlanish tarkibida propozitsiyani hosil qiluvchi tayanchga nisbatan bo'ladi. Propozitiv nomlanish tarkibidagi uzvlarni aniqlash, ularni semantik va grammatik tahlil qilish hamda tasniflash ishimizning bosh maqsadidir.

Gapning struktur sxemasini kesim va uning «bo'sh o'rinlari» nuqtayi nazaridan belgilash aniqlovchi va izohlovchilarga mutlaqo boshqacha yondashuvni talab qiladi. Chunki bu bo'laklar kesimning bo'sh o'rinlarini to'ldiruvchi mustaqil bo'lak sifatida kela olmaydi, kesimning «bo'sh o'rinlari»ni to'ldirib, unga nisbatan muayyan sintaktik pozitsiyani egallaydi. Masalan: ***Qip-qizil gullarning mayin hidlari sabo bilan tarqaladi*** gapida o'zaro munosabatda bo'layotgan ikkita gap bo'lagi bo'lib, tarqaladi kesimining «bo'sh o'rin»larini to'ldirib, ikki sintaktik pozitsiyada keladi: birinchisi - ega pozitsiyasida, ikkinchisi - vositali to'ldiruvchi pozitsiyasida Ega pozitsiyasida kelgan birinchi sintaktik birliklar aniqlovchilar bilan kengayib, propozitsiya hosil qilgan. Uning tarkibidagi aniqlovchi shu butunlikning ichki bo'linishiga mansub bo'lib, butun gap tuzilishi uchun aloqasizdir.

Shuningdek, gapning kesimi ham aniqlovchilar bilan kengayib kelishi mumkin. Masalan: ***Sen Saidning sevgan singlisi.***

Anglashiladiki, aniqlovchilar faqat propozitiv nomlanish tarkibida funksiyalanib, kesim, ega, to'ldiruvchi, hol sintaktik pozitsiyalarida kelayotgan bo'laklarning tarkibiy qismi sanaladi. Ular faqat propozitsiyani ichki uzvlarga ajratgandagina uning tarkibidan ajraladi.

Shunday qilib, hozirgi tilshunoslikda ikkinchi darajali bo‘laklarning hammasi ham gap tuzilishida bir xil maqomga ega emasligi ma’lum bo‘lmoqda. Shuning uchun ham ikkinchi darajali bo‘laklarni gapning bo‘lagimi yoki bo‘lakning bo‘lagimi ekanligini ajratish zaruriyati tug‘ilmoqda.

Gap bo‘laklarining tuzilish turlari

Gapning shakliy tuzilish tomonini tilshunoslikda sintaktik tuzilish termini bilan ham yuritiladi. Demak, gapning sintaktik tuzilishi deyilganda, uning shakliy tomoniga e’tibor beriladi.

Gapning sintaktik tuzilishini tashkil etgan unsurlar an’anaviy tilshunoslikda gap bo‘laklari atamasi bilan o‘rganiladi. Shuni ta’kidlash lozimki, gapning sintaktik tuzilish unsurlari bilan gap bo‘laklari teng emas. Shunday sintaktik tuzilish birliklari borki, ular gap bo‘laklari tarkibiga kiritilmaydi. Anglashiladiki, gap bo‘laklari gapning hamma sintaktik tuzilish birliklarini qamrab ololmaydi¹. Bu nuqtayi nazardan, gapning sintaktik tuzilishi tushunchasi gapning bo‘laklari tushunchasiga nisbatan kengroq.

Nima uchun sintaktik tuzilishning barcha unsurlari gap bo‘laklari hisoblana bormaydi? Axir, bu butunni bo‘laklarga ajratish prinsipiga zid-ku? Gap shundaki, gapning sintaktik tuzilishi unsurlarini gap bo‘laklari nomi ostida o‘rganishni boshlab bergan olimlar gap bo‘laklari doirasini cheklab qo‘ydilar. Gapning barcha shakliy birliklari emas, balki ularning gap bo‘lagi talablariga javob beradigan qismigina gap bo‘lagi hisoblanadi. Gap bo‘lagi deb hisoblashning muhim talabi – bu gapni tashkil etgan sintaktik shakllarning bir butun tarkibida tobelanish (dominatsiya) munosabati sanaladi. Tobelanish munosabatiga kirisha olmagan sintaktik tuzilish birliklari, garchi muayyan sintaktik shaklga ega bo‘lsa ham, gap bo‘laklari tarkibiga kiritilmadi.

¹ Н. Махмудов, А.Нурмонов. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. –Тошкент; Ўқитувчи, 1995. 58-59 бет.

Predikativlik har qanday gapning zaruriy elementi, kategorial ma'nosi¹, konstituyentiv belgisidir². Predikativlikni tashuvchi asosiy gap unsuri predikativ shakldagi predikatdir³.

Ayniqsa, turkiy tillarda kesim gap tarkibida yetakchi rol o'ynaydi. Kesim gapning predikativlik belgisini tashuvchi axborot markazi bo'lish bilan birga, uning valentligini (bo'sh o'rinlarini) to'ldirib keluvchi unsurlarning sintaktik vaziyatda kelishini taqozo etuvchi uyushtiruvchi markaz hamdir. Gapda kesimning bo'lmasligi mumkin emas. Usiz axborot anglashilmaydi. An'anaga ko'ra kesimsiz ega gap hisoblanuvchi ***Bahor. Ko'm-ko'k dala!*** tipidagi atov gaplar ham aslida kesimning o'zidir. Shunday ekan, gapning bosh bo'lagi kesimdir. Masalan, ***Melodiy 1494 yilning yozi. Saraton issig'ida Farg'ona vodiysining osmoniga chiqqan quyuq bulutlar kuni bo'yi havoni dim qilib turdi-yu, kechki payt birdan jala quyib berdi.*** (P.Qodirov) Bu matnning birinchi gapi an'anaviy sintaksisda gapning ega qismidan iborat bo'lgan atov gap hisoblanadi. Bizning talqinimizda esa u predikativlik ma'nosini ifodalaganligi uchun, predikativlikni tashuvchi birlik sifatida kesimning o'zi sanaladi. Unda predikativlik nol shakllar orqali ifodalangan.

Fransuz tilshunosi L.Tenyerning gapni kichik dramaga o'xshatishi bejiz emas. Dramada harakat va rollar mavjud. Gapda harakat - bu kesim bo'lsa, boshqa bo'laklar bu harakatdagi muayyan rollarni bajaradi. Masalan, ***Manzura toliqqan bo'lishiga qaramay tunda uxlay olmadi.*** (T.Malik) Bu gap L.Tenyer aytganidek kichik drama bo'lsa, uning harakat komponenti ***uxlay olmadi*** orqali ifodalanadi. ***Manzura, toliqqan bo'lishiga qaramay, tunda*** argumentlari esa kesim pozitsiyasidagi harakat bilan bog'lanib, unga nisbatan turli rollarni bajaradi. Ularning qaysi rolni bajarishi kesim pozitsiyasidagi sintaktik birlikka bog'liqdir. Kesimning talabi bilan ***Manzura*** subyektini bildiruvchi ega pozitsiyasini (rolini) ***tolliqqan bo'lishiga*** hol pozitsiyasini, ***tunda*** so'zi ham hol pozitsiyasini egallaydi.

¹ Рословец Я.И. О второстепенных членах и их синтаксических функциях // Вопр. язык. – 1976. – № 3. С.79

² Панфилов В.З. Взаимоотношения языка и мышления. – М. 1971. – С. 170

³ Нурмонов А. Ўша асар. – Б. 31.

Gapning bosh bo‘laklarini ajratishda xilma-xil qarashlar mavjud bo‘lganidek, gapning ikkinchi darajali bo‘laklarini ajratishda ham tilshunoslar o‘rtasida bir xillik yo‘q.

Ikkinchi darajali bo‘laklarni belgilashda barcha tilshunoslar faqat bir masalada birlashadilar. Ularning hammasi gap bo‘lagi bo‘lishi yoki bo‘lmasligini belgilash uchun tobelanish munosabatiga kirishadimi yoki yo‘qmi degan masalaga tayanadilar. Tobelanish munosabatiga kirishsa, gap bo‘lagi, ya’ni ikkinchi darajali bo‘lak, kirishmasa gap bo‘lagi emas, deb hisoblaydilar.

Tobe vaziyatda kelib, hokim qism talab etgan sintaktik vaziyatda kelgan sintaktik shakl ikkinchi darajali bo‘lak sanaladi. Lekin ikkinchi darajali bo‘laklar qanday bo‘laklarni o‘z ichiga oladi, degan masalani hal qilishda xilma-xil qarashlar vujudga keldi.

Ikkinchi darajali bo‘laklarning ichki bo‘linishidagi har xillik ham tilshunoslarning asosga ko‘ra tasnif qilishidan kelib chiqadi.

Tilshunoslarning bir guruhi ikkinchi darajali bo‘laklarni tasnif qilishda ularning hokim bo‘lakka bog‘lanish usuliga tayanadilar. Bunga muvofiq, ikkinchi darajali bo‘laklar uch guruhga bo‘linadilar: moslashuvchi bo‘lak, boshqaruvchi bo‘lak, bitishuvchi bo‘lak. Bunday qarash rus tilshunosi F.I.Buslayev asarlarida bayon qilinadi.

Ikkinchi guruh tilshunoslar qanday ikkinchi darajali bo‘lak ekanligini tasniflashda ularning moddiy asosi bo‘lgan so‘z turkumlari va ularning shakllariga asoslanadilar.

Xususan, A.A.Potebnya uchta bir-biriga qarama-qarshi qo‘yilgan so‘z sinflarini ajratadi: ot, fe’l, ravish.

Uning fikricha, ot o‘zaro qarama-qarshi qo‘yilgan ikki shaklga bosh kelishik va vosita kelishiklarga; fe’l ikki shaklga – shaxsli va shaxssiz shakllarga ega. Bunday so‘z sinflari o‘zlarining shakllari bilan gap bo‘laklarining moddiy asosi bo‘lib xizmat qiladi. Fe’lning shaxsli shaklidan ifodalangan gap bo‘lagi – kesim, bosh kelishikdagi otdan ifodalangan bo‘lak – ega, vosita kelishiklaridagi otdan ifodalangan bo‘lak – to‘ldiruvchi, ravishdan ifodalangan bo‘lak – hol va

shaxssiz fe'ldan ifodalangan bo'lak – ikkinchi darajali, tobe qism sanaladi¹. Masalan, *Ko'k yuzini bulut, chol ko'zini g'azab asta bosib kela* boshladi (Uyg'un). Yuqoridagi gapda bosh kelishikdagi ot sanaluvchi *bulut, g'azab* so'zlari ega, shaxsli fe'l hisoblangan *bosib kela boshladi* kesim, ravish orqali ifodalangan *asta* so'zi hol, tushum kelishigidagi ot bilan ifodalangan *ko'k yuzini, chol ko'zini* ifodalari to'ldiruvchi pozitsiyasini egallamoqda. *Ko'k, chol* leksemalari o'zidan keyingi *yuzini, ko'zini* birliklariga tobelanib mustaqil pozitsiyasini yo'qotgan holda to'ldiruvchining ichki uzvi sifatida xizmat qilmoqda.

Anglashiladiki, gap bo'laklari sintaksisi so'z turkumlari morfologiyasiga o'xshatiladi. Shuning uchun ham bu konsepsiya tilshunoslikda morfologizm konsepsiyasi deb ham yuritiladi.

Tilshunoslikdagi morfologizm yo'nalishiga birinchi marta akad. L.V.Sherba chek qo'ydi. U morfologizm yo'nalish tarafdorlarining aniqlovchi – bu sifat, to'ldiruvchi – bu vosita kelishiklaridagi hamda ko'makchilar bilan birga kelgan ot, hol – bu ravish, deb izohlashlarining amaliy jihatdan ham, nazariy jihatdan ham bilish jarayoniga hech qanday ahamiyati yo'qligini, faqat tilning ikki sathidagi qaytariq ekanligini ta'kidlagani holda, bunday yo'nalishni qattiq tanqid qildi².

Garchi L.V.Sherba gap bo'laklari tasnifi bo'yicha o'zigacha mavjud bo'lgan qarashlarni asosli ravishda ayovsiz tanqid qilgan bo'lsa ham, bunday tasniflarning hech qanday amaliy va nazariy qimmati yo'qligini ko'rsatib bergan bo'lsa ham, lekin o'zi bunga qarama-qarshi va undan afzalroq bo'lgan konsepsiyani tavsiya etmadi.

Tilshunoslik tarixida ikkinchi darajali bo'laklarning tasnif asoslari haqida A.I.Smirniskiyning qarashlari alohida qimmatga ega. U o'zigacha bo'lgan barcha g'oyalarga tanqidiy yondashgan va ularnig har qaysisida mavjud

¹ Қаранг: Нурмонов А. Ўша асар. – Б. 43.

² Қаранг. Щерба Л.В. Избранные работы по языкознанию и фонетике. Т.І. – М., 1958. – С.94.

bo'lgan ijobiy tomonlardan foydalangan holda, o'zining original qarashlarini bayon qildi.

Tilshunoslik tarixida N.YU.Shvedova tomonidan gapning struktur sxemasini tashkil qiluvchi bo'laklar bilan uni kengaytiruvchi bo'laklarning ajratilishi katta voqea bo'ldi¹.

O'zbek tilshunosligida ham kengaytiruvchilarga bag'ishlangan bir qator tadqiqotlar maydonga keldi².

Xususan, R.Abdusamatov gap bo'laklarining noamaliy mavqeyi haqida fikr yuritar ekan, gap bo'laklarini amaliy (funktional) va noamaliy (nofunktional) turlarga ajratadi. Uning ta'kidlashicha, gap bo'laklarining noamaliy mavqeyi gapning sintaktik va semantik qurilishida yuz beruvchi nomutanosiblik tufayli vujudga keladi. Noamaliy mavqe masalasi gapning ham shakliy, ham mazmuniy sathlari bilan aloqador bo'lgani uchun ham sintaksis nazariyasi uchun ahamiyatlidir³. Muallif aniqlovchilarni ham noamaliy mavqedagi gap bo'laklari sirasiga kiritadi⁴. Tadqiqotchi o'z fikrini «belgi ifodalovchi so'zlar bilan shakllangan qurilmalar tarkibida» hamda «olmoshlashish jarayoni» (pronominalizasiya)ni boshdan kechirayotgan so'zlar ishtirok etgan qurilmalar tarkibida izohlashga harakat qiladi. Lekin amaliy va noamaliy mavqedagi bo'laklarning qanday belgilariga ko'ra farqlanishi yetarlicha yoritilmagan. Bu masala R.Abdusamatov tadqiqotidan o'n yil avval nashr qilingan professor N.Mahmudovning «O'zbek tilidagi sodda gaplarda semantik-sintaktik asimmetriya» kitobida hamda professor A.Nurmonov bilan hamkorlikda yozgan «O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi» kitobida atroflicha bayon qilingan edi⁵.

N.Ortiqova ham bu muammoga bag'ishlab alohida monografik tadqiqot yaratdi. Unda bayon qilinishicha, aniqlovchi va aniqlanmish o'zaro zich

¹ Каранг. Русская грамматика. II. – М., 1982. – С. 136

² Абдусаматов Р.А. Ўзбек тилида гап бўлақларининг ноамалий мавқеи масаласи: Филол. фанлари номзоди.... дис. автореф. – Самарканд, 1994. – 21 б.; Ортиқова Н.Х. Гап тузилишида аниқловчининг ўрни: Филол. фанлари номзоди ... дис. автореф. – Фарғона, 2005. – 23 б. ва бошқа.

³ Абдусаматов Р.А. Юқоридаги асар. – Б. 7.

⁴ Абдусаматов Р.А. Юқоридаги асар. – Б. 17.

⁵ Маҳмудов Н., Нурмонов А. ва бошқа. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. – Т.: Фан, 1992. – 362 б.

sintaktik munosabatga kirishib, bir butun holda gapning muayyan pozitsiyasini bajaradi. Gapning shakliy tuzilishi uchun aniqlanmishning substansional shakli muhim ahamiyatga ega ekanligini bayon qilgan holda, dissertant aniqlanmishi ot, sifat, son, ravish, olmosh, modal soʻz boʻlgan qurilmalarni birma-bir tahlil etadi. Tadqiqotchi dissertatsiyada aniqlovchilarni ana shu qurilmalarning tarkibida noamaliy mavqeda boʻlgan boʻlakning boʻlagi ekanligini isbotlashga harakat qiladi.

«Gapning markaziy birligi sifatida belgilangan kesimga nisbatan unga tobe gap boʻlaklari ega, hol va toʻldiruvchi hisobga olinadi, soʻngra aniqlovchi ushbu boʻlaklarning kengaytiruvchisi tarzida boʻlakning boʻlagi hisoblanadi»¹.

Bunda u ekvipolent zidlanishdan foydalangan holda, gap boʻlaklarini ikki guruhga – gapning va boʻlakning boʻlagiga ajratadi. Bunda ular oʻrtasidagi farqlovchi belgi sifatida sintagmatik munosabat eʼtiborga olinadi: kesim bilan toʻgʻridan-toʻgʻri sintagmatik munosabatda boʻlgan boʻlaklar. Bunday boʻlaklar gapning boʻlagi sanaladi. Aksincha, kesim bilan toʻgʻridan-toʻgʻri sintagmatik boʻlakka kirisha olmagan boʻlaklar boʻlakning boʻlagi hisoblanadi².

Bunday fikr professor A.Nurmonovning «Gap haqidagi sintaktik nazariyalar» asarida ham bayon qilingan edi:

«Anʼanaviy tilshunoslikdagi gap boʻlaklariga va ularning bosh va ikkinchi darajali boʻlaklarga ajratishdagi xilma-xillik gapni boʻlaklarga ajratishning obyektiv mezonlaridan kelib chiqadi. Bunda bosh va ikkinchi darajali boʻlaklarning differensial belgisi ularning predikativ asosga kirish kirmasligi, predikativ asosni hosil qilishda qatnashish – qatnashmasligi hisoblanadi»³.

Predikativ asosda predikatlar markaziy oʻrinni egallaydi. Ular feʼllar va feʼl boʻlmagan (keng maʼnoda otlar yoki belgi bildiruvchi soʻzlar) soʻz shakllari orqali ifodalanadi. Shuning uchun predikatlar oʻzbek tilshunosligida A.Nurmonov tomonidan feʼl predikatlar va ot predikatlarga boʻlinadi⁴.

¹ Ортикова Н.Х. Кўрсатилган асар. – Б. 10.

² Ортикова М.Х. Кўрсатилган асар. – Б. 11.

³ Нурмонов А. Гап ҳақидаги синтактик назариялар. – Т., 1988. – Б. 41.

⁴ Нурмонов А. Гап ҳақидаги синтактик назариялар. –Т., 1988. – Б. 46.

Gap bo‘laklarini darajalarga ajratishda gapni tashkil etgan a’zolarining predikativ asosga munosabatiga tayanish, bizning nazarimizda, katta ahamiyatga ega. Predikativ asosni tashkil etuvchilar gapning markaziy bo‘lagi hisoblansa, predikativ asos tarkibiga kirmaydigan, unga qandaydir yo‘l bilan bog‘langan bo‘laklar ikkinchi darajali bo‘lak hisoblanadi. Bu nuqtayi nazardan an’anaga ko‘ra to‘ldiruvchi, hol atamasi bilan yuritiluvchi bo‘laklar bilan aniqlovchilar bir-biridan ma’lum darajada farq qiladi. To‘ldiruvchi va hollar fe’l predikatlarning obyekt, o‘rin, miqdor, sabab, payt singari valentliklarini to‘ldirib, shu predikatga nisbatan to‘ldiruvchi va hol pozitsiyasini egallaydi. Masalan:

Chopar yigit to‘yga aytar ot solib

(D.Haydarova)

Yuqoridagi gapda predikativ shaklidagi aytar predikati nimaga? va qanday? so‘roqlariga javob bo‘lishi lozim bo‘lgan “bo‘sh o‘rin”larga ega. Ana shu “bo‘sh o‘rin”lar predikatning valentliklari bo‘lib, bu valentliklarni to‘ldirib kelayotgan to‘yga so‘zi to‘ldiruvchi pozitsiyasida, ot solib ifodasi esa hol pozitsiyasida kelyapti. To‘ldiruvchilar fe’l predikatdan anglashilgan harakatning obyektga munosabatiga ko‘ra vositali va vositasiz turlarga bo‘linadi. Masalan:

Sozanda sozini chalmoqda (D.Haydarova) gapida chalmoq predikati predikativ shaklni olib, gapning predikativ asosini tashkil etmoqda. Bu predikativ asosdan ifodalangan harakat obyekt valentligini to‘ldirib kelayotgan tushum kelishigidagi soz leksemasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘tmoqda. SHuning uchun ham u vositasiz to‘ldiruvchi pozitsiyasida kelmoqda.

Nasriddin aravadan sakrab tushdi (Mirmuhsin) gapida predikativ shaklidagi sakrab tushmoq predikati obyekt vazifasida kelgan aravadan so‘zini ergashtirib kelib, bu so‘z unga nisbatan vositali to‘ldiruvchi pozitsiyasida keladi.

Andijonda bo‘lgan voqealar dahshati Tohir qiyofasiga kirib, Boburga tobora yaqinlashib kelmoqda edi (P.Qodirov)

Yuqoridagi gapda **yaqinlashib kelmoq** predikati predikativ shaklida kelib, bir qancha “bo‘sh o‘rin”larga ega. Ulardan biri daraja - miqdor “bo‘sh o‘rni” dir. Ana shu “bo‘sh o‘rin” ni **tobora** so‘zi egallab, daraja - miqdor holi pozitsiyasida kelyapti.

Yuqorida keltirilgan to‘ldiruvchi va hollarning barchasi kesim pozitsiyasidagi predikativ shaklini olgan predikatlar bilan munosabatdadir. O‘zbek tilidagi to‘ldiruvchi va hollarning ana shu xususiyatiga ko‘proq e‘tibor bergan ayrim olimlar to‘ldiruvchi va holning farqlovchi belgisi sifatida bu bo‘laklarning kesim bilan tobe munosabatga kirishuvini ko‘rsatadilar.

Prof. A. G‘ulomov bu hakda shularni yozadi; kesim ega bilan ifodalangan shaxs, predmet va hodisaning belgisini bildiradigan bo‘lakdir. Bunda belgi odatda tasdiq yo inkor yo‘li bilan anglatiladi. (Bunda belgi so‘zi keng ma’noda bo‘lib, aktiv belgi-harakat, holat, xususiyat, sifat kabi mazmunlarni o‘z ichiga oladi.) Kesim ikkinchi bosh bo‘lak bo‘lib, u ega haqidagi hukmni bildiradi. Kesim predikativlikni ko‘rsatadigan asosiy elementdir. U ega bilan ifodalangan predmetning (predmet keng ma’noda; shaxs, predmet, voqea-hodisa) harakatini, holatini ko‘rsatadi (fe‘l kesimlar: U yugurdi. U mudradi kabi); biror sifatini, xususiyatini, jinsini, mikdorini, unga tengdosh belgini ko‘rsatadi (ot kesimlar: U yosh, sho‘x, Uzun-meva. Bog‘da uzum ko‘p. Bir oy-o‘ttiz kun kabi)¹.

Akad. G‘.Abdurahmanovning fikricha, predikativlik hodisasi gapning muhim va asosiy xususiyatini tashkil qiladi. U gapda har qaysisi bir so‘zdan yoki bir necha so‘zdan iborat ikki bo‘lakning o‘zaro semantik va grammatik munosabati tufayli (ikki sostavli gaplarda) yuzaga keladi... ikki sostavli gaplardagi kesim egani izohlab, unga tobe bo‘lib, uning xarakteriga mos shakllarda kelib, gapdagi bosh bo‘laklarning biri tarzida ko‘rinadi².

O‘zbek tili materiallariga e‘tibor berilsa, to‘ldiruvchi va hol har doim ham kesimga bog‘lanavermaydi. Masalan, **U yozuvga berilib ketib, ko‘shk oldigacha chopib kelgan otning dupurini eshitmadi** (P.Qodirov)

¹ Гуломов А., Аскарлова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. –Тошкент, “Ўқитувчи” 1965, 95-бет.

² Ҳозирги ўзбек адабий тили. II., Синтаксис. –Тошкент, “Фан” 1966. –Б. 75-76.

Bu gapda uchta fe'l predikat ishtirok etib, uchinchi predikat *eshitmadi* predikativlik shaklini olgan holda kesim pozitsiyasida kelmoqda. Birinchi predikat (*berilib ketib*) va ikkinchi predikat (*chopib kelgan*) predikativlik shakliga ega bo'lmay, kesim pozitsiyasidagi asosiy predikatga nisbatan kengaytiruvchi vazifasini bajaradi. Shunday bo'lishiga qaramasdan, ular ham fe'l predikatlar bo'lganligi tufayli bir qator "bo'sh o'rin" larga ega bo'lishi mumkin. Natijada bu o'rinlarni to'ldirgan va hol hamda to'ldiruvchi pozitsiyasini egallagan birliklar tobe vaziyatdagi predikatning kengaytiruvchisi bo'lib keladi. Bu esa to'ldiruvchi va hollarning barchasi ham kesimga nisbatan bir xil mavqeda emasligini ko'rsatadi. Shuning uchun xam bunday vaqtlarda E.Kurilovich tavsiya etgan lingvistik birliklarning birlamchi va ikkilamchi funksiyalari haqidagi g'oyasidan foydalanish masalaga birmuncha oydinlik kiritishga yordam beradi¹.

Bu g'oyaga ko'ra, yuqoridagi fe'l predikatlarning birinchi (*berilib ketib*) va ikkinchi (*chopib kelgan*) si ikkilamchi funksiyada, uchinchi predikat esa (*eshitmadi*) birlamchi funksiyada qo'llanilmoqda. Ikkilamchi funksiyada kelgan fe'l predikatlar kesim pozitsiyasida emas, balki kesimning kengaytiruvchilari pozitsiyasida keladi. Shunday bo'lishiga qaramasdan, ular to'ldiruvchi va hollar bilan o'z ichida kengayib, fe'l predikat bilan bir butunlikni, ya'ni blokni tashkil etadi. Buning natijasida bunday pozitsiyadagi to'ldiruvchi va hollar kesim pozitsiyasidagi predikatga to'g'ridan to'g'ri bog'langan to'ldiruvchi va hollardan ma'lum darajada farq qiladi. Shuning o'ziyiq to'ldiruvchi va hollarni belgilashda yagona tamoyilning mavjud emasligini ko'rsatadi.

Ikkinchi darajali bo'laklardan hisoblangan aniqlovchi va izohlovchi yuqoridagi ikkinchi darajali bo'laklardan tubdan farq qiladi. Birinchidan, aniqlovchi doimo ot predikatlarga bog'lanadi, boshqacha aytganda, aniqlovchi bo'lakning bo'lagi sifatida bevosita ot predikatlarga dahldordir. Chunki u ot predikatlar bilan sintagmatik munosabatda bo'ladi, ot predikatlarning belgi valentligini to'ldiradi. Shuning uchun ham aniqlovchi haqida fikr yuritganda,

¹ Курилович Е. Очерки по лингвистике. –М., 1962. –С.236.

uning aniqlanmishi vazifasida keluvchi ot predikatlar haqida bahs yuritishga to'g'ri keladi. O'zbek tilida predikatlarning tasnifi va uning o'ziga xos xususiyatlari O.Tojiyev tomonidan monografik planda maxsus o'rganilgan¹. Uning ta'kidlashicha, predikat otlar ot, sifat, son, olmosh, ravish kabi so'z turkumlari orqali ifodalanib, sintaktik sathda predikativlik shakliga ega bo'lib, kesim vaziyatida kelishi mumkin².

Kesimlik shaklini olish-olmasligidan qat'i nazar, predikatlar har qanday holatda ham, temporallik, kvantitativlik, qarashlilik valentliklarini to'ldirib keluvchi aniqlovchilar bilan kengayish imkoniyatiga ega. Bu fikrlar shuni ko'rsatadiki, gap bo'laklariga ajratish va uni darajalarga bo'lish yuzasidan hal qilinishi lozim bo'lgan muammolar yo'q emas. Shu bilan birga, gap bo'laklarini faqat bosh va ikkinchi darajali bo'laklar bilan cheklab qo'yish ham yetarli ilmiy asosga ega emas. Ana shundan kelib chiqib, gapning struktur markazini kesim deb belgilagan holda, u bilan bevosita sintagmatik munosabatda bo'lgan sintaktik birliklarni gapning bo'laklari, kesimning argumentlarining bo'sh o'rinlarini to'ldirib keluvchi sintaktik birliklarni ajratishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Gapning nominativ aspekti

Tilning fonologik sathdan boshqa barcha sath birliklari funksional umumiylikka ega. U ham bo'lsa leksik morfema ham, so'z shakl ham, gap ham nomlash vazifasini bajaradi. Lekin ular nimani nomlash nuqtayi nazaridan bir-biridan farq qiladi. Bu jihatdan leksik morfema, ya'ni leksema bilan gap, to'g'rirog'i gap qolipi o'zaro ekvipolent-oppozitsiyaga kirishadi. Ular nomlash belgisiga ko'ra ikki qutbni tashkil etadi. Birinchisi inson tajribasining tashqi va ichki elementlarini nomlasa³, ikkinchisi inson ongida aks etgan bir butun voqeliklar, vaziyatlarni nomlaydi. Har ikki turdagi nomlash onomatologiyaning

¹ Тожиёв О.М. Ўзбек тилида от предикатли гапларнинг мазмуний ва синтактик тузилиши: Филол. фанлари номзоди ... дис. автореф. – Т., 1995. – 30 б.

² Тожиёв О. Кўрсатилган асар. – Б. 12.

³ Общее языкознание. Внутренняя структура языка. – М., 1972. – С. 209.

tarkibiy qismi sanalgani holda, birinchisi leksikologiyaning, ikkinchisi esa sintaksisning o'rganish obyekti sanaladi.

Ko'rinadiki, leksikologiya bilan sintaksis o'zaro tutash nuqtasiga ega. U ham bo'lsa leksikologiyaning o'rganish obyekti bo'lgan leksemaning semantik tuzilishida ham, sintaksisning o'rganish obyekti bo'lgan gapning semantik tuzilishida ham asosiy struktur birlik sifatida nominativ ma'no tashkil etadi. Shunday qilib, har ikki birlik nominativ, ya'ni atash ma'nosining nomi ekanligi bilan umumiylikka ega. Lekin nimaning nomi ekanligi bilan ular bir-biridan farq qiladi. Birinchisi leksema ifodalagan alohida narsalar, belgi-xususiyatlar, harakat-holatlarning nomlari sifatida leksik nom yoki leksik nominatsiya sanalsa, ikkinchisi sintaktik birliklar orqali ifodalangan obyektiv voqelikning alohida uzvlari, vaziyatlarining nomlari sanalib, propozitsiyaning nomlari yoki propozitiv nominatsiya hisoblanadi.

Shunday qilib, onomatologiyaning ikkinchi turi, ya'ni sintaktik nominatsiya gap va uning turli xil transformalarining nominativ aspektini o'rganadi. Bu yo'nalishdagi tadqiqotlarda asosiy e'tibor gapning semantik modellarini belgilashga qaratiladi. Gap va uning turli transformalari bir umumiy semantik modelga ega ekanligi aniqlanadi.

Ko'rinadiki, nomlash nuqtayi nazaridan leksema (so'z) bilan sintaktik birliklar, xususan, gap o'rtasida ma'lum umumiylik bor. Shu bilan birgalikda so'zning mazmuniy mundarijasi bilan gapning mazmuniy mundarijasi teng emas. Har qanday mustaqil so'z borliqdagi narsa-hodisalar, belgi-xususiyatlar, harakat-holatlarning ongda aks etgan umumlashgan obrazlarini nomlaydi. Bu jihatdan gapdan tashqaridagi so'z bilan gap tarkibidagi so'z mundarijasida ham ma'lum darajada farq mavjud. Gapdan tashqaridagi so'z polisemik xususiyatga ega bo'lib, o'zining barcha semalarini imkoniyat tarzda saqlab tursa, gap tarkibida bu so'z o'zining bitta semasi bilan sintagmatik munosabatga kirishadi. Bundan tashqari, gap tarkibida har bir so'z yangi sifatga ham ega bo'ladi. Demakki, leksik nominatsiya bilan sintaktik nominatsiya o'rtasida sifatiy farq bo'ladi. U shunda ko'rinadiki, alohida so'z borliqdagi alohida narsa va

hodisalarni, belgi va xususiyatlarni, harakat va holatlarni nomlash bilangina kifoyalanadi. Bu soʻz gap vazifasida kelganda esa soʻzlovchining kommunikativ niyatini ifodalovchi qoʻshimcha maʼnolar ham qoʻshiladi. Masalan, **sovuq** leksema sifatida tabiiy hodisaning nomi boʻlsa, bu leksema bosh kelishik orqali shakllanib, gap vazifasini bajarganda turli qoʻshimcha maʼnolarga ega boʻladi. Avvalo, soʻzlovchining kommunikativ niyati ifodalanadi. Darak, tasdiq maʼnolarini ifodalaydi. Ikkinchidan, konkret vaziyatga bogʻliq ravishda xilma-xil maʼnolar yuzaga chiqadi. Xususan, havoning sovuqligi haqida oddiy axborot berish; yengilroq kiyingan kishining issiq kiyinishiga daʼvat etish; biror erga bormoqchi boʻlgan kishining niyatidan qaytarish va boshqalar. Lekin bu maʼnolarning har biri real nutqiy vaziyat bilan uzviy bogʻliq ravishda yuzaga chiqadi. Masalan, maktab, bogʻcha, litsey, kollej, institut, universitet singari soʻzlar oʻquv muassasalari nomini ifodalab, bir mazmunli paradigma aʼzolari sifatida har qaysisi turli darajadagi muassasa nomini ifodalash bilan farqlanadi. Bular ularning nominativ funksiyasi sanaladi. Endi ushbu muassasa yonidan oʻtib ketayotgan bir shaxs mahalliy sharoitga notanish boʻlgan boshqa bir shaxsga tanishtirish maqsadida ularning har qaysisini alohida-alohida koʻrsatsa u zamonga munosabatni, shaxsga munosabatni, modallikka munosabatni, tasdiq-inkorlikka munosabatni ham sinkretik holatda ifodalaydi va gapning eng muhim belgisi sanaluvchi predikativlik belgisini oʻzida namoyon qilib gapga aylanadi.

Bundan anglashiladiki, leksik nominatsiya bilan sintaktik nominatsiya oʻrtasida, avvalo, nimaning nomi ekanligi bilan farqlanish mavjud boʻlishi bilan birga, kommunikativ niyatning mavjud yoki mavjud emasligi bilan ham farqlanadi. Bunday farqlanish asosida yotgan kommunikativ niyatni kommunikativ belgi deb hisoblash mumkin.

Kommunikativ niyat faqat leksik nominatsiya bilan sintaktik nominatsiya oʻrtasidagina farqlovchi belgi boʻlib qolmay, sintaktik nominatsiyaning oʻz ichida ham farqlovchi belgi vazifasini bajarishi mumkin. Bundan shu narsa anglashiladiki, sintaktik nominatsiyaning hammasi ham kommunikativ niyatni ifodalay bormaydi. Shuning uchun ham sintaktik nominatsiya ham oʻz ichida

kommunikativ niyatni o'zida aks ettiradigan sintaktik nominatsiyalar va kommunikativ niyatni o'zida aks ettirmaydigan sintaktik nominatsiyalarga bo'linadi. Kommunikativ belgi mavjud yoki mavjud emaslik xususiyatiga ko'ra sintaktik nominatsiya o'zaro privativ oppozitsiyaga kirishuvchi ikki qutbiy a'zoga bo'linadi. Birinchisi belgiga ega, manfiy, ikkinchisi esa belgiga ega emas, musbat bo'ladi. Ularning birinchisi gap shakliga ega bo'ladi, ikkinchisi esa gap bo'lib shakllana olmaydi.

Demak, muayyan propozitsiya ifodalovchi barcha sintaktik nominatsiyalar propozitsiya ifodalash belgisi bilan umumiylikni tashkil etsa ham, kommunikativ niyatni ifodalash nuqtayi nazaridan ular farqlanadi. Shuning uchun ham sintaktik nominatsiya uchun propozitiv belgi birlashtiruvchi – integral belgi sanalsa, kommunikativ belgi farqlovchi – differensial belgi hisoblanadi.

Sintaktik nominatsiya kommunikativ belgi asosida ichki bo'linish xususiyatiga ega ekan, ana shu farqlovchi belgi haqida batafsilroq to'xtalishga to'g'ri keladi.

Kommunikativ belgi va predikat

Har qanday gapning mazmuniy va sintaktik tuzilishida predikat markaziy o'rinni egallaydi. Aslida predikat mantiqiy tushuncha bo'lib, gapning mazmuniy tuzilishining markaziy unsurini ifodalash uchun mantiqdan olingan.

Yuqoridagi paragraflarda bayon qilinganidek, har qanday sintaktik qurilma predikatlarning bo'sh o'rinlarini to'ldirish natijasida vujudga keladi. Ana shu imkoniyat reallashmasa ham, bo'sh o'rinlarga ega bo'lgan predikatning o'zi propozitsiya asosi va ayni vaqtda, sintaktik birlikning tayanch nuqtasi sifatida minimal sintaktik birlik sanaladi.

Sintaktik birliklarning kommunikativ belgi asosida gap va gap bo'lmagan birliklarga ajratilishida ham asosan predikatlarning qanday shaklda turishi asosiy tayanch nuqta hisoblanadi.

V.G.Gakning sintaktik birliklarning birlamchi va ikkilamchi vazifalarini ajratishida ham ana shu predikatning qanday shakllanganligi va uning bo'sh o'rinlarini to'ldirgan uzvlar real borliqning qaysi uzvlariga muvofiq kelganligi yotadi¹.

Uning fikricha, mazmuniy elementlarning sintaktik elementlarga muvofiq kelishi, ya'ni predikatning kesim vazifasida, harakatni bajaruvchi subyektning ega vazifasida kelishi ularning birlamchi vazifasi, qolgan vazifalarda kelishi esa ikkilamchi vazifasi sanaladi.

Shuningdek, T.P.Lomtevning sintaktik paradigmalarni hosil qilish nazariyasi, A.A.Xolodovichning diateza nazariyasi asosida ham sintaktik birliklar tarkibidagi mazmuniy predikatning qanday ifodalanishi, qanday shaklga ega bo'lishi yotadi. Predikatning ana shu xususiyati asosida gapning nominativ aspekti yoritiladi. Bunday tadqiqotlar asosida gapning nominativ tomonini yoritish yotganligi tufayli, gaplarning aktual bo'laklarga ajratilishi, ularning kommunikativ yo'nalishini tekshirish keyingi planga surib qo'yildi. Lekin har bir tadqiqotchi har qanday sintagmatik zanjir eng kamida ikki mazmuniy funksiyaga bo'ysundirilganligini hech qachon esdan chiqarmasligi kerak. U ham bo'lsa vaziyat ifodalanishining nominativ funksiyasi va jumladan axborot markazi (rema) hamda axborot mavzusi (tema)ni ajratishga qaratilgan kommunikativ funksiya.

Jumla qurilishida nominativ aspekt qanchalik ahamiyatli bo'lsa, kommunikativ tomon ham shunchalik muhim sanaladi. Kommunikativ tomon ham o'zining ichki tuzilishiga ega. Gapning mazmuniy va shakliy (sintaktik) tuzilishidan farqli ravishda, kommunikativ tuzilish faqat ikki a'zodan mavzu (tema) va remalardan iborat bo'ladi. Mavzu har bir gapdan ifodalanayotgan axborotning egasini bildirsa, rema shu haqda bildiriladigan yangi ma'lumotni ifodalaydi. Mavzu oldingi gapda ifodalangan remaning davomi sanaladi. Demak, har bir gap kommunikativ tomonda mavzu va remalarga bo'linib, mavzu bu gapni oldingi gapga mazmuniy bog'lash vazifasini bajarsa, rema har

¹ Инвариантные синтаксические значения и структура предложения. – М., 1969. – С. 82.

bir gapda ifodalanishi lozim bo'lgan yangi axborotni ifodalaydi. Masalan, ***Zaynabning nazarida ichiga bir necha ilon kirib olib buralayotganday edi. O'qchiq uni tamoman holdan toydirdi. Azob iskanjasida bo'lganida Mardona ko'ziga yana farishtaday ko'rindi.*** (T.Malik)

Bu matn tarkibidagi uchta gap o'zaro tema-rematik zanjir asosida bog'langan. Birinchi gapning remasi «***ilon kirib olib buralayotganday edi***», ikkinchi gapning temasi ***o'qchiq*** sifatida takrorlanyapti va ikkinchi gapning remasi ***tamoman holdan toydirdi***, uchinchi gapning temasi uchun ***azob iskanjasi*** ifodasi tayanch nuqta bo'lib xizmat qiladi. Bunday tema-rematik zanjir har qanday matn qismlarining mazmuniy izchilligi va mantiqiyligini ta'minlaydi. Shunday qilib, tema-rematik tuzilish, bir qaraganda gapning sintaktik tuzilishidagi ega-kesim tuzilishiga o'xshaydi. Lekin ular bir-biridan tubdan farq qiladi. Avvalo, tema-rematik tuzilish yig'iq gaplarda ega-kesim tuzilishiga mos kelib qolishi mumkin. Ammo ega-kesim va tema-rema boshqa-boshqa strukturalarning uzviy qismlari sanaladi. Shuning uchun ham ega bilan kesim yig'iq gaplarda tema va remaga muvofiq kelgandek ko'rinsa ham, aslida ularning bir-biriga mos kelishi shart emas. Yig'iq gaplarda ega-kesimning joylashish o'rni odatdagi me'yor bo'yicha qat'i xotiramizda muhrlangan: ega oldin, kesim undan keyin keladi. Har bir o'zbek tili egasi xotirasida ana shu tartib bo'yicha ko'nikmasi mavjud. Ana shu ko'nikma asosida real jumlar hosil qilinadi. Hech bir til egasi bunday tartibdan adashmaydi.

Ayrim hollarda bu tartib o'zgarishi mumkin. Lekin bu tartib ham tasodifiy maydonga kelmaydi, tilda amal qiluvchi muayyan qonuniyatlar asosida vujudga keladi. Bunday qonuniyat gapning aktual yoki kommunikativ bo'linish nomi bilan yuritiluvchi strukturani taqozo etadi. Masalan, ***Poyezd keldi - Keldi poyezd*** gaplarining birinchisida aktual tuzilish bilan sintaktik tuzilish bir-biriga muvofiq kelganligi uchun sintaktik struktura elementlari odatdagi tartibga amal qiladi. Ikkinchi gapda esa aktual bo'linishning markaziy qismi bo'lgan remani aktallashtiruvchi vosita tartib bo'lganligi uchun ega bilan kesimning tartibida o'zgarish ro'y bermoqda. Mantiqiy urg'u ham kesimga tushib, uni ham tartib

nuqtayi nazardan, ham intonatsion nuqtayi nazardan remaga aylantirmoqda. SHuning uchun ham bu gapda kesim (*keldi*) remaga, ega (*poyezd*) esa temaga aylanmoqda. Buning natijasida sintaktik va semantik struktura o'rtasida asimmetriya maydonga kelmoqda.¹

Yoyiq gaplarda gapning aktual bo'linishi bilan sintaktik bo'linish o'rtasida asimmetrik munosabat mavjud bo'ladi. Buning sababi shundaki, gapning sintaktik strukturasi besh uzvdan hamda gap bo'lagi tarkibiga kirmaydigan boshqa uzvlardan, xususan, undalmalar, kirish va kiritmalardan tashkil topishi mumkin. Masalan,

Essiz, taqdir ekan, qaydan bilibmiz,

Azizim, dunyoga bevaqt kelibmiz (Uyg'un)

Bu gapda *essiz, taqdir ekan, qaydan bilibmiz* ifodalari so'zlovchining gapdan anglashilgan obyektiv voqelikka munosabatini ifodalab, kirish pozitsiyasida kelayotgan bo'lsa, *azizim* so'zi so'zlovchining nutqi qaratilgan shaxs ma'nosini ifodalab, undalma pozitsiyasida, *dunyoga bevaqt kelibmiz* esa yaxlit holda deskripsiya sifatida kesim pozitsiyasida kelyapti. Demak, sintaktik struktura nuqtayi nazaridan uchta kirish, bitta undalma va bitta gap bo'lagi – jami beshta sintaktik struktura komponentlari ishtirok etmoqda. Aktual nuqtayi nazaridan esa, bu sintaktik struktura, yopiq ruyxatni tashkil qiladi, doimo ikki qismdan – tema va remadan iborat bo'ladi. Tema qismi oldingi gap mazmunidan yoki nutq vaziyatidan bilinib turgan hollarda shakliy jihatdan ifodalanmasligi mumkin.

Yuqoridagi gapda ham gapning tema qismi kesim tarkibidagi predikativ shakl orqali ifodalanib turganligi uchun alohida sintaktik shakl sifatida yuzaga chiqyapti.


Shu bilan birgalikda, gapning sintaktik strukturasi ikkinchi darajali bo'laklar hisobiga kengayishi mumkin. Jumladan:

Tuproq ko'chalardan chopgan bolalik

Yillar changi ichra asta yo'qoldi (E.Vohidov)

¹ Семантик-синтактик - асимметрия ҳақида қаранг: Махмудов Н. Ўзбек тилидаги содда гапларда семантик-синтактик асимметрия. – Тошкент.: Ўқитувчи, 1984. – 146 б.

Mazkur gapda gapning markazi sanalgan kesim (**yo‘qoldi**) argumentlar bilan kengayib keladi. Uning shajarasini quyidagicha ko‘rsatish mumkin:



Aktual nuqtayi nazardan bu gap turli aktuallashtiruvchi vositalar orqali bir necha paradigma a‘zolarini tashkil etadi. ***Tuproq ko‘chalardan chopgan bolalik*** – tema; ***yillar changi ichra asta yo‘qoldi*** – rema.

Berilgan gapda aktuallashtiruvchi vosita vazifasini so‘z tartibi bajaryapti. Gap bo‘laklari tartibini o‘zgartirish bilan turli paradigma a‘zolarini hosil qilish mumkin:

Yillar changi ichra tuproq ko‘chalardan chopgan bolalik asta yo‘qoldi.

Yillar changi ichra asta tuproq ko‘chalardan chopgan bolalik yo‘qoldi.

Asta yillar changi ichra tuproq ko‘chalardan chopgan bolalik yo‘qoldi.

Bundan tashqari, mantiqiy urg‘uni o‘zgartirish vositasida ham turli paradigma a‘zolarini hosil qilish mumkin:

Tuproq ko‘chalardan chopgan bolalik

Yillar changi ichra asta yo‘qoldi (E.Vohidov)

Tuproq ko‘chalardan chopgan bolalik

Yillar changi ichra asta yo‘qoldi (E.Vohidov)

Tuproq ko‘chalardan chopgan bolalik

Yillar changi ichra asta yo‘qoldi (E.Vohidov)

Yuqoridagi paradigma a‘zolari sintaktik struktura nuqtayi nazaridan umumiylikni tashkil qiladi. Ular o‘rtasidagi differensial belgi aktual bo‘linish nuqtayi nazaridandir. Ko‘rinadiki, aktual struktura bilan sintaktik struktura bir-biriga ko‘p hollarda muvofiq kelmaydi. Buning sababi shuki, ular turli xarakterdagi strukturalardir.

PROPOZITIV NOMLANISHLAR VA GAP TUZILISHI

Propozitiv nominatsiya va denotat tuzilishi

Har qanday nutqiy jarayon til kodlari (belgilari) yordamida insonning obyektiv olam haqidagi fikrlarini ifodalash jarayoni sanaladi. Shunday ekan, nutq obyektiv olam bilan ong orqali bog‘langandir. Obyektiv olamning muayyan parchasi inson ongida aks etadi va bu aks etgan borliq uzvlarining umumlashgan obrazlari til kodlari yordamida o‘z ifodasini topadi.

Ko‘rinadiki, til va tafakkur o‘zaro uzviy aloqadordir. Inson miyasida ong va til ikki nisbiy mustaqil jihatni tashkil etadi. Ularning har qaysisi o‘ziga xos bilimlar saqlanadigan xotirasiga va ularni faollashtiradigan vositalariga ega. Bu vositalar ko‘rsatilgan ikki turdagi bilimlar xotirasidan muayyan voqea-hodisani bayon qilish uchun zarur bo‘lganlarini ajratib olib, harakatga keltiradi¹. Shunday qilib, bu ikki jihat bir-biri bilan shu qadar mustahkam aloqadorki, ong faoliyati har doim til faoliyatini kuzatib boradi va o‘z tarkibiga ko‘ra yagona va murakkab nutqiy tafakkur jarayonini hosil qiladi.

Ong – bu insonning o‘zini qurshab turgan olam haqidagi bilimlari majmuasidir. Inson bunday bilimlarga olamni bevosita kuzatish jarayoni orqaligina emas, balki boshqalardan axborot olish orqali ham ega bo‘ladi. Shuning uchun insonning bilish faoliyati ham til sistemasi yordamisiz amalga oshmaydi.

Til «xotirasi»da saqlanadigan asosiy bilim – bu so‘z va uning ma’nolari haqidagi bilimdir. Bu bilimni faollashtiruvchi vosita esa grammatik vositalardir.

Nutqiy jarayonda kerakli so‘zlarni tanlash va ularni bevosita nutqqa olib kirish so‘zlovchining oldindan so‘z haqida ega bo‘lgan bilimlariga tayanadi.

Har qanday nutqiy jarayon ikki bosqichni taqozo etadi: birinchi bosqich (fikrni shakllantirish), ikkinchi bosqich (kommunikasiya maqsadida fikrni moddiy vositalar orqali yuzaga chiqarish).

¹ Кацнельсон С.Д. Речемыслительные процессы // ВЯ. 1984. № 4 с.6

Nutqiy tafakkur jarayonining birinchi bosqichida ongning faollashtirilgan elementlari alohida kadrlarga bo‘linadi va ularning har qaysisi alohida voqea yoki hodisalarni aks ettiradi. Fikr oqimining alohida kadrlarga bo‘lish vositasi relyatsion predikatlar va ularning konkret ma’nolaridir. Relyatsion predikatlar va ularning ma’nolari birikuvidan **propozitsiya** vujudga keladi¹.

Propozitsiya tushunchasi hozirgi tilshunoslikda keng qo‘llanib, muayyan sintaktik qurilma vositasida ifodalangan obyektiv voqelikni ifodalaydi.

Har qanday gap muayyan propozitsiyani ifodalasa ham, lekin har qanday propozitsiyaning gap orqali ifodalanishi shart emas. Bundan shu narsa ma’lum bo‘ladiki, propozitsiya gapning mazmun tomoniga daxldor bo‘lib, propozitsiya va gap tushunchalari bir-biriga teng emas.

Propozitsiya gapdan, avvalo, mundarijasi nuqtayi nazaridan farq qiladi. Chunki gap shakl va mazmun munosabatidan tashkil topgan butunlik sifatida e’tirof etilsa, propozitiv tuzilish uning faqat mazmuniy tuzilishining bir tomoniga tegishli sanaladi. Shu bilan birga, propozitsiya ma’lum voqea-hodisani o‘zaro mantiqiy teng bo‘lgan predmetlar munosabatini ifodalashi bilan ham gapdan farq qiladi. Masalan: 1) *Aziz ukasiga qarzga pul berdi*; 2) *Ukasi Azizdan qarzga pul oldi*; 3) *Pul ukasi tomonidan Azizdan qarzga olindi*.

Yuqoridagi gaplarning hammasi bir xil ishtirokchilarni o‘z ichiga olgan bir umumiy voqea-hodisani, bir propozitsiyani ifodalaydi. Ularning ishtirokchilari *Aziz* va *uning ukasi* hamda ular o‘rtasidagi *pul* muomalasidir. Bu voqeaning turli jumlar orqali ifodalanishiga sabab shuki, bir o‘rinda tayanch nuqta sifatida *Aziz* olinsa, ikkinchi o‘rinda *uning ukasi*, uchinchi o‘rinda esa *pul olinadi*. Masalan, *Anvar Ra’noga gul uzatdi* (A.Qodiriy) gapi *Ra’no Anvardan gul oldi*, *Anvar Ra’no uchun gul oldi* singari ifodalar bilan bir propozitsiyani ifodalash bilan bir sintaktik paradigmani tashkil qiladi. Paradigma a’zolarini birlashtiruvchi vosita propozitiv ma’no sanaladi. Har uchala gap bir xil propozitiv tuzilishga ega: S-subyekt agens + subyekt patsiens + (predikat)P.

¹ Кацнельсон С.Д. Речемыслительные процессы // Вопр. язык. – 1984. - № 4. - С.6.

Yuqoridagi misollardan ko‘rinadiki, propozitiv struktura bilan shakliy struktura farqlanadi.

Propozitsiyaning ifodalanishida relyatsion predikat katta ahamiyatga ega. Relyatsion predikatni ayrim tilshunoslar parmalangan taxtaga qiyoslaydilar. Taxtada parmalangan teshiklar yog‘ochdan yasalgan mixchalar bilan qoplangani kabi, relyatsion predikatlar ham muayyan bo‘sh o‘rinlarga, bo‘sh kataklarga ega bo‘ladi. Relyatsion predikatlarning ana shunday bo‘sh o‘rinlarining to‘ldirilishi propozitsiyaning vujudga keltiradi. Masalan, yuqoridagi jumalarning hosil bo‘lishiga asos bo‘lgan **qarz bermoq** relyatsion predikati uchta bo‘sh o‘ringa - bo‘sh katakka ega: a) qarz beruvchi; b) qarz oluvchi va d) qarz qiymati yoki qarz vositasi (qarzning nima ekanligi). Ana shu bo‘sh kataklarning konkret leksik birliklar bilan to‘ldirilishi natijasida uch o‘rinli predikat propozitsiyaga aylantiriladi.

Shunday qilib, propozitsiya ifodalash uchun ma’lum miqdordagi bo‘sh o‘rinlarga ega bo‘lgan relyatsion predikatlar katta ahamiyatga ega bo‘lsa ham, lekin shu predikatning o‘zi propozitsiya uchun kifoya qilmaydi. Predikatning propozitsiya ifodalashga o‘tishi uchun u o‘zining bo‘sh o‘rinlarini tegishli leksik birliklar bilan to‘ldirishi lozim bo‘ladi. Demak, relyatsion predikat o‘z valentliklarini yuzaga chiqarib, tarkibi kengayishi natijasida ularning hammasi birgalikda muayyan propozitsiyaning ifodalashga o‘tadi.

Gapning tarkibidagi sintaktik uzvlarning roli qaysi a’zo qaysi a’zoga bog‘lanish xususiyati bilangina chegaralanmaydi. Masalan, **U kitob o‘qidi** va **Kitob u tomonidan o‘qildi** gaplari bir xil so‘zlardan tashkil topgan. Bu so‘zlar har ikki gapda bir ma’noda qo‘llanadi va bir xil «tobelik shajarasi»ni hosil qiladi. Lekin yuqoridagi gaplar bir xil so‘zlarning turli sintaktik pozitsiyaning egallaganini bilan farq qiladi. Birinchi gapda u ega pozitsiyasida, harakat tushgan obyekt to‘ldiruvchi pozitsiyasida, ikkinchi gapda esa harakatni bajaruvchi subyekt (u) to‘ldiruvchi pozitsiyasida, harakatni qabul qilgan obyekt esa ega pozitsiyasida qo‘llangan. Shunday qilib, sintaktik qurilmada ishtirok etayotgan a’zolarining qanday so‘zlardan ifodalanishigina emas, balki shu a’zolarining

qanday sintaktik pozitsiyasida (vaziyatda) kelishi ham gapning mazmunini tuzilishi uchun ahamiyatlidir. Chunki ikki va undan ortiq gaplar bir xil soʻzlardan tashkil topishi bilan umumiylikni tashkil etsa ham, lekin shu soʻzlarning turli vaziyatlarda kelishi bu gaplarning boshqa-boshqa ekanligini taʼminlaydi. Demak, bunday oʻrinlarda gapning asosiy farqlovchi (differensial) belgisi shu gapda ishtirok etayotgan uzvlarning moddiy tomoni emas, balki ularning qanday vaziyatni egallash belgisi sanaladi.

Koʻrinadiki, gap uchun shu gapni tashkil etgan uzvlarning substansional (moddiy) tomoni qanday ahamiyatga ega boʻlsa, shu uzvlarning egallagan vaziyati ham shunchalik ahamiyatlidir.

Bu shuni koʻrsatadiki, gapning mazmuni u ifodalagan obyektiv borliqqa muvofiq kelishi uchun shu borliq qismlarini (fragmentlarini) toʻgʻri nomlashgina kifoya qilmaydi. Bundan tashqari, ular oʻrtasidagi munosabatni ham toʻgʻri ifodalash lozim boʻladi.

Shuni taʼkidlash lozimki, u yoki bu axborotni ifodalash uchun soʻzlovchining muayyan soʻzlarni tanlashi faqat maʼlum obyektiv voqelikni, maʼlum sintaktik vaziyatni toʻgʻri ifodalash uchun zarur boʻlgan sintaktik konstruksiya tanlangandan soʻnggina amalga oshadi. Shuning uchun ham E.Kurilovich sintaktik maʼno leksik maʼnoga nisbatan birlamchi ekanligini taʼkidlaydi¹.

Nutqiy faoliyat jarayonida sintaktik qurilma tanlanishi bilan birga bu qurilmani toʻldirish uchun soʻz ham tanlanadi. Bu har ikki jarayon nominatsiya jarayoni bilan uzviy bogʻliqdir. Shuning uchun ham V.G.Gak: «Soʻz va sintaktik qurilma jumla qurish jarayonida turli darajada nominativ va uyushtirish vazifasini bajaradi», – degan edi². Bu shuni koʻrsatadiki, faqat soʻzgina emas, balki gap qolipi ham nominativ aspektda oʻrganilishi mumkin.

Gap qurilishiga soʻz birikmalari nuqtayi nazaridan yondashuvga muvofiq, gap nominativ birliklarning - soʻz va soʻz birikmalarining birlashuvi sifatida

¹ Курилович Е. Очерки по лингвистике. – М., 1962. – С.179.

² Гак В.Г. Проблемы лексико-грамматической организации предложения: Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. – М., 1967. – С.54

qaraladi. Mazmuniy sintaksis nuqtayi nazaridan esa gap ishtirokchilari harakatga keltirilgan voqelik (vaziyat) sifatida o'rganiladi. Ishtirokchilar "aktantlar" deb yuritiladi. Shunday qilib, gapning mazmuniy ishtirokchilari – aktantlar bilan bu aktantlarning sintaktik bog'lanishdagi vazifalari bir xil emas. Shuning uchun ham mazmuniy ishtirokchilar bilan ularning egallagan sintaktik vaziyatlari o'rtasidagi munosabatni o'rganish ham keyingi davrda sintaksis mutaxassislari diqqatini ko'proq o'ziga jalb eta boshladi. Buning natijasida mazmuniy sintaksisda gapning shakl va mazmuni o'rtasidagi munosabatni o'rganishga alohida e'tibor berila boshlandi.

An'anaviy tilshunoslikda sintaksis bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda asosiy e'tibor sintaktik birliklarning shakliy tomoniga, shakliy tuzilish birliklarining o'zaro bog'lanish xususiyati, o'zaro tobe munosabatda tobe vaziyatdagi sintaktik birlikning vazifasi hamda uning qanday so'zlardan ifodalanishini aniqlashga qaratildi. Sintaktik birliklarning mazmuni haqida fikr yuritilganda shu sintaktik birliklarning tafakkurning mantiqiy tuzilishiga munosabatiga ahamiyat berildi. Buning natijasida tadqiqotchi gapning asosiy ifodalagan mazmunini aniqlash bilan birga, shu sintaktik birlikning umumiy sintaktik holatini (modelini) belgilashga ham harakat qildi.

Mazmuniy sintaksisning rivojlanishi natijasida gap sintaktik tuzilishi bilan uning mazmuniy tuzilishi o'rtasidagi munosabat yo'nalishi, mazmuniy tuzilish mohiyatini belgilash bir muncha o'zgardi. Bunga muvofiq, gap (jumla) to'liq til belgisi hisoblanadi va asosiy e'tibor shu belgi orqali ifodalangan vaziyat (referent) o'rtasidagi munosabatni yoritishga qaratiladi. Ana shu asosda sintaktik birlikning struktur modeli va uning mazmuni o'rtasidagi munosabat ochib beriladi.

Har qanday sintaktik birlik orqali ifodalangan vaziyat universallik mohiyatiga ega. Chunki obyektiv reallikning inson ongida aks etishi, o'z tasvirini topishi, u qaysi tilga, qaysi millatga mansub bo'lishidan qat'i nazar, bir xillik kasb etadi.

Sintaktik birliklar orqali ifodalangan vaziyatning ana shu universalligiga e'tiborning kuchayishi natijasida turli sistemadagi tillarda muayyan sintaktik vaziyatning turlicha sintaktik tuzilish bilan ifodalanishini o'rganadigan qiyosiy va tipologik tadqiqotlarni maydonga keltirdi.

Shunday qilib, bir tomondan, gapning semiotik talqini, ya'ni uning belgi sifatidagi izohi, ikkinchi tomondan, gapning nominativ tomonini yoritishga asosiy e'tibor qaratiladigan mazmuniy sintaktik tahlilning kuchayishi va nihoyat A.Gardinerning F. de Sossyur qarashlariga qo'shimcha ravishda nutq nazariyasining rivojlanishi sintaktik tadqiqotlar yo'nalishini qayta ko'rib chiqishga olib keldi.

Buning natijasida tilshunoslikda qo'llanib kelingan formal mantiq va psixologiya kategoriyalari semiotika va mantiqiy semantika kategoriyalari bilan almashtirildi. [Shakl (ifodalovchi) – ifodalanmish (ma'no) – predmet, vaziyat] semantik triadasi sintaktik tahlilning asosiy metodiga aylanib qoldi.

Gapning nominativ aspektini ifodalash uchun ko'proq propozitsiya atamasidan foydalaniladigan bo'ldi. Bu atama tilshunoslikka mantiq va falsafa ta'sirida shu fanlardan kirib keldi. Mantiq, falsafa va ularning ta'sirida tilshunoslikda qo'llanilayotgan propozitsiya atamasi gapning modallik belgilarini ifodalovchi qismlaridan xoli bo'lgan fe'l va otlar o'rtasidagi zamondan tashqaridagi munosabatni ifodalaydi. Modal ma'no tarkibiga esa inkor, zamon, mayl ma'nolari kiritiladi. Demak, inkor-tasdiqlik, zamon va mayl ma'nolaridan xoli bo'lgan predikat va uning argumentlari o'rtasidagi munosabat propozitsiyaning asosi bo'ladi. Bu shuni ko'rsatadiki, har qanday gap asosida ma'lum propozitsiya yotsa ham, lekin faqat propozitsiyani ifodalash belgisi sintaktik birlikni gap bo'lib shakllanishi uchun kamlik qiladi.

Har qanday gapning gap bo'lib shakllanishi uchun propozitsiyaga yana modusni qo'shish kerak bo'ladi. Ana shu modus propozitsiyaga tasdiq-inkorlik, zamon va mayl ma'nosini qo'shadi va propozitsiya ifodalovchi leksik elementlar sistemasiga modus ifodalovchi grammatik elementlar sistemasining qo'shilishi har qanday propozitsiya ifodalovchi sintaktik qurilmani gapga aylantiradi.

Shunday qilib, har qanday gapning semantik tuzilishini quyidagicha ifodalash mumkin bo'ladi: S MQP. Bu o'rinda S-gapning ramzi, M-modallik ramzi, P-propozitsiya ramzi. Ko'rinadiki, muayyan propozitsiyaning ma'lum modus ma'nolarni ifodalovchi lisoniy vositalar yordamida ifodalanishi gap sanaladi. Masalan, *Cho'ponota tog'ining etaklarida, naryog'i Zarafshon sohilida yuzlab o'tovlar va chodirlar paydo bo'lgan.*

Yuqoridagi butun gapning ramzi S bilan ifodalansa, paydo bo'lgan kesimi tarkibidagi kesimlik ma'nosi shaxs-son (personallik), zamon (temparallik), bo'lishli-bo'lishsizlik (modallik), tasdiq-inkorlik (negativlik)ni ifodalovchi shakllar sistemasi - MQR orqali ifodalanadi.

Bunga muvofiq, ma'lum propozitsiya ifodalovchi sintaktik birliklarning gap yoki gap emasligi o'rtasidagi differensial farq modusni ifodalovchi lingvistik birliklarning mavjudligi yoki mavjud emasligidir.

Sintagmatik munosabat va sintagmatik ma'no

Keyingi yillarda tilshunoslar o'rtasida sintaksisning sintagmatik tomoniga kuchayishi yana ham ortdi. Aslida sintaksisning bu tomoni sintaktik nazariya paydo bo'lgandan buyon olimlar diqqatini jalb etib keladi. Sintaksis atamasining o'zi ham ana shu munosabatga e'tiborning qaratilishi oqibatida paydo bo'lgandir.

Lekin o'tgan asrning 60-yillaridan boshlab til tahlilining avval formallashtirish va so'ngra avtomatlashtirish vazifasiga qaratilganligi sintagmatik tomonga e'tiborni yana ham kuchaytirib yubordi. Bunga ayniqsa G'arbiy Ovrupa olimlarining tadqiqotlari, xususan, Y. Ris, A. de Groot va L.Tenyerlarning ilmiy izlanishlari qulay sharoit yaratdi.

Gapning shakliy tuzilishini formallashtirishga intilish asosan sintagmatikaga asoslangan qator sintaktik nazariyalarning paydo bo'lishiga olib keldi.

Gapning sintagmatik modelini B.Blokning distributiv sintaksisida ham, R.Longakra va Z.Xarrislarning gapning zanjirli tahlilida ham, L.Tenyerning stemmalarida ham, S.K.Shaumyaning aplikativ grammatikasida ham, A.M.Muxinning yunksion qurilishida ham va boshqa bir qator sintaktik konsepsiyalarda ham kuzatish mumkin¹.

So'nggi yillarda an'anaga aylangan sintaktik tahlil metodining o'zi ham asosan sintagmatik munosabatni tiklashga qaratilgandir. Chunki bu metod gapning yadro va uning yo'ldoshlarini aniqlashga, sintagmatik aloqalarning "ichki" va "tashqi" munosabatlari ochishga, minimal sintaktik birliklarga - sintaksemalarga tavsif berishga asosiy e'tiborni qaratadi. Ayrim sintaktik konsepsiyalarda esa sintaksis tushunchasining o'zi sintagmatika bilan teng qilib qo'yildi. Til birliklarining valentlik xususiyatlari va ularning nutqiy voqelanish haqida ko'proq fikr yuritiladigan bo'ldi. Ayniqsa bu sohada L.Yelmslevning " mantiqiy bog'liqlik sistemasi" haqidagi nazariyasi katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Mantiqiy bog'liqlik sistemasida L.Yelmslev uch tipdagi munosabatni ajratadi: **interdependensiya**, **determinatsiya** va **konstelyatsiya**.

O'zaro sintagmatik munosabatga kirishayotgan a'zolar o'zaro shartlangan bo'lsa, bir-birini taqozo etsa, **interdependensiya** hisoblanadi.

O'zaro sintagmatik munosabatga kirishayotgan a'zolaridan biri ikkinchisining bo'lishini taqozo etgan munosabat **determinatsiya** sanaladi. Demak, sintagmatik munosabatga kirishayotgan a'zolaridan birini ikkinchisiga tobe bog'lanishi determinatsiyadir. Unda sintagmatik munosabatda bo'lgan a'zolaridan biri hokim, ikkinchisi esa tobe bo'ladi. Tobe qism hokim qism talabi bilan yuzaga chiqadi va uning bo'sh o'rnini to'ldiradi, ma'nosini konkretlashtiradi.

O'zaro sintagmatik munosabatga kirishayotgan a'zolar o'zaro erkin

¹ Каранг. Мухин А.М Структура предложений и их модели. – М.: Наука, 1968. – 208 с.; Мухин А.М. Модели внутренних синтаксических связей предложения // Вопр. язык. – 1970. – №4; Ломтев Т.П. Принципы построения формулы предложения // ФН. – 1969. – № 5; Мартине А. Основы общей лингвистики. – новое в лингв. Вып III. – М., 1963; Шаумян С.К., Соболева П.А. Аппликативная порождающая модель и исчисления трансформации в русском языке. – М.: Наука, 1963. – 278 с.

bo'lsa, bunday munosabat **konstellyasiya** hisoblanadi¹.

L.Yelmslev olg'a surgan bu sintagmatik konsepsiya keyinchalik bir qator Ovrupo olimlari tomonidan keng ma'qullandi. Xususan, P.Garvin, L.Yelmslevning uchta sintagmatik munosabatini amaliyotga qo'llar ekan, o'zaro shartlangan munosabat, ya'ni interdependensiyaning o'zini uch guruhga ajratadi: 1) bir tomonlama tobelilik, 2) ikki tomonlama tobelilik, 3) salbiy tobelilik.

Determinatsiya munosabati ham uning tomonidan ikkiga bo'linadi. 1) bir tomonlama shartlanganlik 2) ikki tomonlama shartlanganlik; Ikki tomonlama shartlanganlik deganda shunday munosabat tushuniladiki, unda nutq zanjirida A elementning paydo bo'lishi shu nutq zanjiridagi B va C elementlarining teng holda mavjud bo'lishini taqozo etadi.

Ayni paytda keyingi ikki elementning hech qaysisi A elementni taqozo etmaydi.

Shunday qilib, L.Yelmslevning bu nazariyasi ko'pchilik Ovrupo olimlarining sintaktik konsepsiyasining shakllanishiga katta ta'sir etdi.

L.Yelmslevning o'zi sintagmatik munosabatlar tahlilida mantiqiy tobelilikdan foydalanish uchun namunalar ko'rsatdi.

U jumla tarkibidagi so'zlar o'rtasidagi tobelilik haqida baxs yuritar ekan, munosabat atamasi ostida yaxlit so'zlar (so'z shakl)ni emas, balki uning tarkibiy qismlari munosabatini tushunadi.

L.Yelmslevning ta'kidlashicha, mantiqiy tobelilik yaxlit so'zlar o'rtasida emas, balki turli so'zlarning qismlari o'rtasida mavjud bo'lar ekan, ular turlicha yo'nalishga ega bo'lishi mumkin. Ana shunday turli yo'nalishlilikni u aniqlovchi va aniqlanmish munosabatida ko'radi: sifat o'zagi ot o'zakni belgilaydi. Uning bo'lishini taqozo etadi. Ayni paytda sifatlardagi fleksiya otdagi fleksiyaga qarab vujudga keladi.

Ana shunday qarash asosida L.Yelmslev leksemalar o'rtasidagi tobelilik bilan so'z shakllari o'rtasidagi tobelilikni farqladi. Shunday qilib, u semantik va

¹ Ельмслев Л. Метод структурного анализа в лингвистике. Звегинцев В.А. История языкознания XIX и XX веков в очерках и извлечениях, китоби, II қисм. – М., 1960. – С. 49-55.

shakliy tobelilikni ajratdi. Leksemalar o'rtasidagi tobelilik semantik tobelilik sanalsa, so'z shakllari o'rtasidagi yoki sintagmatik indikatorlar o'rtasidagi tobelilik shakliy tobelilik hisoblanadi¹.

L.Yelmslevning sintagmatik munosabat haqidagi bunday qarashi keyinchalik o'zbek tilshunosligiga ham ta'sir etdi. Ana shu qarashdan ilhom olgan ayrim o'zbek tilshunoslari ham har qanday gapning tuzilishi va mazmuniy markazi kesim ekanligini e'tirof etganlari holda, qolgan bo'laklarni kesimga tobelilik darajasiga ko'ra belgilashga harakat qildilar. Bunda kesimning valentligi e'tiborga olindi, L.Yelmslevning yuqoridagi fikriga tayangan holda kesim valentligi bir butun kesimga nisbatan emas, balki kesimning ichki tuzilishiga nisbatan belgilandi.

Natijada kesim vazifasida kelgan so'zshaklning asos qismi bo'lgan leksema valentligi bilan bu leksemani kesim sifatida shakllantirgan kesimlik shaklining valentligi bir-biridan farqlandi. Kesimdan boshqa bo'laklarning gap strukturasidagi mavqeyini belgilashda ana shu ikki elementdan qaysi birining valentligini to'ldirishi tayanch nuqta qilib olindi. Kesim tarkibidagi kesimlik shakli bilan munosabatda bo'lgan bo'laklar bir-biridan farqlandi².

Keldi. Minimal gapidagi **-di** shakli o'tgan zamon ma'nosini bildirib, o'tgan zamon ma'nosini bildiruvchi qator leksemalar bilan kengayish imkoniyatiga ega:

kecha keldi

o'tgan kuni keldi

o'tgan yili keldi.

Lekin, "ertaga", "indinga" leksemari bilan bog'lanish imkoniyatiga ega emas. Shuningdek, kelmoq leksemasining o'zi ham qachon, qayerga, qanday (qanday qilib) so'roqlariga javob bo'luvchi leksemalar bilan kengayish imkoniyati mavjud. Masalan:

bugun kelmoq

¹ Каранг. Л. Ельмслев. Ўша асар. –Б. 49-50

² Қурбанова М. Ўзбек тилшунослигида формал-функционал йўналиш ва содда гап курилишининг талкини. Филол. фан. д-ри...дисс.автореф. –Т., 2001. 51 б.

uyga kelmoq

shoshib kelmoq

Bu o‘rinda «kelmoq» fe‘liga xos bo‘lgan payt (bugun), o‘rin (uyga), belgi (shoshib) valentliklari yuzaga chiqmoqda.

Propozitiv kesim vazifasida kelgan so‘z shaklining asos qismi bo‘lgan leksema valentligi bilan bu leksemani kesim sifatida shakllantirgan kesimlik shaklining valentligi bir-biridan farqlanadi. Kesimdan boshqa bo‘laklarning gap strukturasidagi mavqeyini belgilashda ana shu ikki elementdan qaysi birining valentligini to‘ldirishi tayanch nuqta qilib olindi. Kesim tarkibidagi kesimlik shakli bilan munosabatda bo‘lgan bo‘laklar va kesim tarkibidagi leksema valentligini to‘ldirib, u bilan munosabatda bo‘lgan bo‘laklar bir-biridan farqlanadi.

Shunday qilib, o‘zbek tilshunosligida ham L. Yelmslev tavsiya etgan determinatsiyaning ikki turi haqidagi g‘oya paydo bo‘ldi: mazmuniy determinatsiya va shakliy determinatsiya.

Leksema (atov birligi) talabi bilan shu leksemaning bo‘sh o‘rnini to‘ldirib kelgan leksema o‘rtasidagi munosabat mazmuniy determinatsiyani ro‘yobga chiqarsa, kesim vazifasida kelayotgan leksemaning kesimlik shakllari talabi bilan, shu shaklning ma‘nosini kengaytirgan, konkretlashtirish maqsadida yuzaga chiqqan leksema bilan munosabati shakliy determinatsiyani maydonga keltirdi.

Determinatsiya mohiyati va xarakteri sintagmatik munosabatda bo‘lgan uzvlarni markaziy (bosh) va chegara (marginal, tobe) a‘zolarga bo‘lishni taqozo etadi.

Determinatsiya qilinayotgan, ya‘ni aniqlanayotgan a‘zo markaziy a‘zo, determinatsiyalovchi a‘zo esa chegara (tobe) a‘zo sanaladi.

Agar determinatsiya munosabati mazmuniy va shakliy tomondan bir tomonlama yo‘nalishga ega bo‘lsa, u vaqtda sintagmaning grammatik markazi bilan mazmuniy markazi o‘zaro muvofiq keladi.

Determinatsiya munosabati ba'zan mazmuniy va shakliy tomondan har xil yo'nalishga ham ega bo'lishi mumkin. O'zaro sintagmatik munosabatga kirishayotgan so'zlar o'rtasida kompletiv aloqa mavjud bo'lganda ko'pincha ana shunday holat ro'y beradi. Xususan, mazmuniy tomondan fe'l leksema doimo ma'lum ot leksemani o'ziga "chaqiradi". Shu bilan birga to'ldiruvchi vazifasida kelgan bu ot o'zining shakli orqali muayyan leksik-semantik guruhga mansub bo'lgan fe'l leksemani tanlaydi.

Shunday qilib, bunday sintagmalarda determinatsiya munosabati shakl va mazmun tomonidan o'zaro qarama-qarshi yo'nalishga ega bo'ladi: mazmuniy tomondan fe'l o'zining mazmuniga muvofiq kelgan otni talab qiladi (leksemalar o'rtasidagi munosabat). Shakliy grammatik tomondan ot fe'lni determinatsiyalaydi. Bunday paytda otning shakli bilan fe'l leksema o'rtasidagi sintagmatik munosabat nazarda tutiladi.

Mazmuniy va shakliy tomondan har xil yo'nalishga ega bo'lgan determinatsiya munosabatida mazmuniy markaz bilan grammatik markaz bir-biriga muvofiq kelmasligi mumkin. Bunday holat ayniqsa qaratqich va qaralmish munosabatida, modal so'zlar (lozim, darkor, mumkin) bilan harakat nomi o'rtasidagi determinativ munosabatda (masalan, aytishim darkor, o'qishim mumkin kabi) yorqin namoyon bo'ladi.

Mazmuniy va shakliy tomondan har xil yo'nalishga ega bo'lgan determinativ munosabatni ifodalovchi sintagmalarda markaziy a'zoni belgilashda ana shunday qiyinchilik bo'lganidan, dissertasiyada asosan shakliy determinatsiyaga e'tibor berish zaruriyati tug'ildi.

Sintagmatik munosabat haqida gapirganda, sintagmatik munosabatga kirishuvchi a'zolarining o'zaro munosabat xarakteriga ko'ra atributiv va predikativ turlarini bir-biridan farqlash zaruriyati tug'iladi. Bu ikki munosabat munosabatga kirishayotgan a'zolarining kommunikativ xarakterini belgilashda katta ahamiyatga ega bo'ladi. Birida sintagmatik munosabatga kirishayotgan a'zoldan biri markaziy a'zo hisoblanib, u shaxs – son, zamon, modal ma'nolarni o'zida namoyon etadi va bunday sintagma yuqoridagi ma'nolarni

ifodalovchi maxsus grammatik shakllarga ham ega bo‘ladi. Ana shu shakllar predikativ sintagmaning muhim belgisi hisoblanadi va ana shu belgi asosida predikativ sintagmalar o‘zaro privativ munosabatda bo‘lgan atributiv sintagmadan farqlanadi. Ko‘rinadiki, predikativ va atributiv sintagmalar bir obyektiv voqelikni ifodalash nuqtayi nazaridan bir-biri bilan umumiylikka ega bo‘lib, bir mazmuniy paradigmaning ikki a‘zosi bo‘lsa ham, lekin ular tayanch a‘zolarining qanday shakllanishiga ko‘ra o‘zaro farqlanadi. Biri shaxs-son, zamon, modal ma’nolarni ifodalab, xuddi shu ma’nolarni ifodalovchi kesimlik (predikativ) shakliga ega bo‘lsa, ikkinchisi esa bunday belgiga ega bo‘lmaydi. Mazmuniy paradigmaning bu ikki a‘zosi o‘rtasida farqlovchilik (differensial) belgi vazifasini predikativ va atributiv sintagma tarkibidagi markaziy (tayanch) a‘zoning predikativlik ma’nosi va bu ma’nolarni ifoda etuvchi predikativlik shakllarining bor-yo‘qligini bajaradi.

Obyektiv olam haqidagi ma’lum tasavvurlarimiz tovushlar ketma-ketligi asosida tashkil topgan moddiy vositalar yordamida yuzaga chiqadi.

Bu jarayonda tovushlar ketma-ketligi, til birliklarining bir chiziqda joylashuvi bilan ma’noning darajali (iyerarxik), «tobelilik daraxti» tarzida tuzilishi o‘rtasida nomuvofiqlik mavjud bo‘ladi. Shuning uchun ham A.Martine bu haqda tilimizning vokallik tabiati chiziqli bo‘lmagan tajribalarimizni chiziqli tasvirini talab etadi, degan edi¹. Bunga misol qilib bosh og‘riq holati bilan uning nutqiy ifodasi o‘rtasidagi munosabatni keltiradi. Darhaqiqat, insonning bosh og‘rishi holatida hech qanday chiziqlilik yo‘q. Lekin bu holatni ma’lum bir tilda ifodalash uchun chiziqli strukturadan foydalaniladi: Bu holatni vrachga tushuntirish uchun bo-shim og‘ri-yap-ti tarzida ketma-ket kelgan lisoniy vositalardan foydalanamiz. Nutqiy faoliyat segmentlashni talab etadi. Segmentlash esa katta butunliklarni kichik elementlarga ketma-ketlik asosida murakkabdan oddiyga qarab bo‘lishni taqozo etadi.

¹ Каранг. Общее языкознание. Внутренняя структура языка. – М., 1972. – С. 277.

Ayrim mualliflarning fikriga ko'ra, nutq parchasida alohida sintaktik ma'noning mavjud bo'lishi so'z shakllarining zanjirsimon (chiziqli) tartibidan ular ma'nosining "daraxtsimon" tuzilishiga o'tishni taqozo etadi.

Avvalo, sintaktik ma'no so'zlarning funksional ma'nosi bilan leksik ma'nosini o'zida mujassam etadi. Masalan, **bugun** so'zining sintaktik ma'nosi uning **bu kun** leksik ma'nosi bilan qo'shilib ketgan. So'zning referent ma'nosi bilan sintaktik funksiyasi o'rtasida mutanosiblik mavjud.

Ko'p hollarda so'zning funksional ma'nosi bilan referent ma'nosi o'rtasida nomutanosiblik bo'lishi mumkin. Bunday holat ayniqsa funksional transpozitsiya hodisasi ro'y berganda ko'proq kuzatiladi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, nutq zanjirini fonetik segmentlarga ajratish bilan ma'noli qismlarga ajratish o'rtasida farqlanish mavjud. Ular o'rtasida ko'pincha nomutanosiblik vujudga keladi. Ana shunday nomutanosiblikni e'tiborga olgan holda tilshunoslikda ham alohida atamalar bilan farqlanadi. Funksional ma'no va sintaktik funksiya bir-biriga qarama-qarshi quyiladi.

Funksional ma'no deganda ham mazmuniy yaxlitlik nazarda tutiladi. U so'zning leksik ma'nosini va nutq zanjiridagi vazifaviy ma'nolarini o'z ichiga oladi. Funksional ma'no bir necha referent ma'nolarni o'z ichiga birlashtirishi mumkin. Masalan, **kecha kechqurun** birikmasi butun jumla tarkibida qachon? so'rog'iga javob bo'lib, bitta funksional ma'noni ifoda etadi. Kesimlik shaklida kelib, kesim funksiyasi uchun xoslangan fe'l predikatning **temporal** valentligini to'ldiruvchi, uni yuzaga chiqaruvchi sintaktik birlik sanaladi.

Xuddi shuningdek, sintaktik birliklarda shakl va ma'no munosabatini e'tiborga olganda, uning shakliiy tomoni ham umumiylik va xususiylik dialektikasini o'zida namoyon qilgan holda sintaktik funksiya yoki sintaktik shakl va morfologik shakllarning o'zaro munosabatidan tashkil topgan.

Har qanday sintaktik shakl sintaktik birliklarning shakliiy butunligini ifodalaydi. Sintaktik shakl, o'z navbatida, morfologik shakllardan tashkil topadi. Demak, sintaktik shaklni hosil qiluvchi moddiy vositalar morfologik shakllardir.

Sintaktik shakl bilan morfologik shakl bir-biriga nisbatlanuvchi bir-birini taqozo etuvchi tushunchalar bo'lsa ham, lekin ular o'zaro ma'lum jihatlari bilan farq qiladi.

Eng avvalo, bu ikki tushuncha sath bo'yicha bir-biridan farq qiladi. Morfologik shakl tilning morfologik sathiga aloqador bo'lsa, sintaktik shakl sintaktik sath birligidir. Demak, morfologik shakl sintaktik shakl uchun moddiy asos vazifasini bajaradi. Ayni paytda sintaktik shakl morfologik shakldan tashkil topadi.

Sintaktik shakl bilan morfologik shakl miqdor jihatdan ko'pincha bir-biriga teng kelmaydi. Sintaktik shakl bir morfologik shakldan tashkil topishi mumkin bo'lganidek, bir necha morfologik shakllardan ham tashkil topishi mumkin.

Sintaktik shakl bitta morfologik shakldan tashkil topganda bu ikki shakl o'rtasida miqdoriy muvofiqlik mavjud bo'ladi.

Ma'lum sintaktik shakl bir necha morfologik shakllardan tashkil topsa, bu vaqtda sintaktik shakl bilan morfologik shakl o'rtasida nomuvofiqlik vujudga keladi. Masalan, ***Shamoldan tez uchgan poyezd*** birikmasi sintaktik shakl nuqtayi nazardan ikki qismdan - aniqlovchi va aniqlanmish munosabatidan tashkil topgan bo'lsa, morfologik jihatdan to'rt qismdan iboratdir. Oldingi uchta morfologik shakl o'zaro birikib, **poyezd** so'zi uchun bitta sintaktik vazifada keladi. Shuning uchun shu birikma doirasida bu uchta morfologik shakl bitta sintaktik shakl vazifasida keladi. Morfologik shakllarni vujudga keltiruvchi grammatik vositalar sintaktik shakl uchun nofunktsional sanaladi. Ularning funksiyasi faqat sintaktik shaklning ichki a'zolari uchun daxldor bo'ladi. Masalan, ***Murodalining hovlisida qad ko'targan o'rik butun qishloqda mavjud bo'lgan daraxtlarning eng kattasi edi.***

Berilgan gapdagi ***Murodalining hovlisida qad ko'targan o'rik*** birikmasi ikki qismdan – ***Murodalining hovlisida qad ko'targan*** aniqlovchisi hamda ***o'rik*** aniqlanmishidan tashkil topib, morfologik jihatdan bir necha qismdan iboratdir,

ya'ni pred.+belgi+pred. munosabatidan tashkil topgan butunlik sifatida uchta morfologik shakl birligini hosil qiladi.

Ana shunga muvofiq, bunday grammatik ko'rsatkichga ega bo'lgan so'z shakllari, ya'ni morfologik shakllar ham sintaktik shaklning ichki a'zolari sifatida uni shakllantirish uchun xizmat qiladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, gapning sintaktik tuzilishida sintagmatik munosabatgina emas, balki shu gapning grammatik va mazmuniy markazi sanaluvchi fe'llarning leksik ma'nosi ham katta ahamiyatga ega bo'ladi. Shuning uchun gapni tashkil etgan a'zolar o'rtasidagi sintaktik aloqa qanchalik mazmuniy bo'lsa, shu gap tarkibidagi fe'lning leksik ma'nosi ham shunchalik sintaktikdir. Ana shuni e'tiborga olgan holda, fe'lning mazmuniy tadqiqi ham uning sintaktik aloqasiga tayangan holda olib borildi. Shuningdek, ayniqsa keyingi yillarda gapning sintaktik tahlili mazmuniy tomonini ko'proq e'tiborga oladigan bo'ldi.

Sintaktik aloqalarning mazmuniy mundarijasini struktur metodlar asosida o'rganish sintaktik birliklarning mazmuniy va shakliy tuzilishi o'rtasidagi asimmetrik munosabatni yoritishga ma'lum darajada to'sqinlik qildi. Lisoniy birliklarni struktur metod asosida o'rganish asosan sintaktik birliklarning shakliy tomoniga jiddiy e'tibor berdi. Shakliy tomoniga tayangan holda sintaktik birliklarni modellashtirish asosiy maqsadga aylandi.

Keyinchalik sintaktik birliklarda omonimiya va sinonimiyaning mavjudligiga e'tiborning qaratilishi, bir sintaktik vaziyatning bir necha sintaktik qurilmalar yordamida ifodalash mumkinligiga ishonch hosil qilinishi tufayli sintaktik birliklarning shakl va mazmuni o'rtasidagi munosabatni yoritishga ehtiyojni orttirdi.

Sintaktik birliklarning shakl va mazmuni o'rtasidagi munosabatni chuqur o'rganish natijasida E. Kurilovich sintaktik shakllarning ikki xil funksiyasi: birlamchi va ikkilamchi funksiyasi mavjudligi haqidagi fikrga keldi¹. Uning

¹ Курилович Е. Проблема классификации падежей // Очерки по лингвистике. – М.: Наука, 1962. – С. 182; Курилович. Е. Деривация лексическая и деривация синтаксическая // Очерки по лингвистике. – М., 1962. –С.59.

bunday fikrga kelishiga sintaktik birliklarni shakl va mazmuni o'rtasidagi asimmetrik munosabatga e'tiborni tortilishi sababchi bo'ldi.

Avvalo sintaktik belgi deganda, u gap tarkibida ishtirok etgan leksemalarning konkret grammatik shakllari e'tiborga olindi. Lekin, asimmetriya funksional indikatorlarnigina emas, balki sintaktik ma'noni ifodalovchi konkret shakldan holi bo'lgan sintaktik pozitsiyani ham o'z ichiga oladi. Birinchi holda nutq jarayonida ishtirok etuvchi konkret so'z shakllarining turli ma'nolari haqida fikr yuritilsa, ikkinchi holatda sintaktik pozitsiyalarning polifunksionalligi haqida gap ketadi. Xususan, ega pozitsiyasida faqat harakat subyektigina emas, balki obyektiv voqelik, nutq vaziyatining boshqa ishtirokchilari - obyekt yoki boshqa ishtirokchilarning nomlari ham kelishi mumkin.

Ko'rinadiki, E. Kurilovich konsepsiyasiga muvofiq, nutqiy vaziyat ishtirokchilaridan subyekt, subyektning ham **agens** turi ega pozitsiyasi uchun ko'proq xoslangan. Lekin, ega pozitsiyasi faqat agens bilangina cheklanmaydi. Shu bilan birga agens doimo ega pozitsiyasida kelishi shart emas. Demak, subyekt-agensning ega pozitsiyasida kelishi uning birlamchi funksiyasi bo'lsa, qolgan pozitsiyalarda kelishi esa uning ikkilamchi funksiyasidir.

Propozitiv nomlanishlar tasnifi

Tilshunoslik fan sifatida mantiq bag'rida shakllangani va undan ajralib chiqqanligi sababli uning ilk taraqqiyot bosqichida lingvistik tushunchalar mantiqiy tushunchalar asosida izohlana boshlandi. Sintaktik birliklar ham tafakkur tuzilishiga nisbatan o'rganildi. Gapning struktur modellari ham hukm strukturasiga qiyosan belgilandi.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab sintaktik birliklarning mazmuniy tomoniga jiddiy e'tiborni qaratilishi mazmuniy sintaksisning paydo bo'lishi va rivojlanishi natijasida hamda lingvistik birliklarga belgi nuqtayi nazaridan qarashning kuchayishi tufayli sintaktik nazariyada ham tub burilish davri

boshlandi.

Til belgilar sistemasi sifatida qaralishi bilan birga, lingvistik belgining o'ziga xos tomonlari chuqur o'rganila boshlandi va uning mohiyati belgilandi. Lingvistik belgi to'liq (predikat) va to'liq bo'lmagan (nopredikat) belgilarga bo'linadi¹.

V.V.Bogdanovning fikricha nopredikat belgilar eng kichik gaplarning elementar qismlaridir. Predikat belgi esa eng kichik gaplarni o'z ichiga oladi. Har qanday sodda predikativ ifoda bitta predikat belgi plyus nol va ularga qo'shilgan bir yoki bir nechta nopredikat belgilarni o'z ichiga oladi².

Bunga muvofiq, predikativ ifoda (PI) murakkab belgi sanaladi va ekstralingvistik omil, obyektiv borliqning u yoki bu vaziyati shu predikativ ifoda orqali ifodalangan denotativ ma'nosi sanaladi.

To'liq belgilar ham, to'liq bo'lmagan belgilar ham obyektiv borliq bilan bog'langan bo'lib, shu obyektiv borliqning ong orqali muayyan moddiy (lingvistik) vositalar yordamida ifodalaydi.

Demak, har qanday lingvistik belgi ongda o'z ifodasini topgan obyektiv borliqning tovush yoki tovushlar silsilasi yordamida ifodalanishi natijasida vujudga keladi. Bu jihatdan har qanday lingvistik belgi Sepir-Uorflarning lingvistik nisbiylik nazariyasini o'zida yorqin namoyon qiladi.

Tilshunoslik tarixida «Sepir-Uorf gipotezasi» nomi bilan mashhur bo'lgan lingvistik qarash lisoniy birliklarning ichki tuzilishini belgilashda katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Benjamin Uorfga kuchli ta'sir etgan narsa E.Sepirning: «Kishilar faqat obyektiv narsalar dunyosida va faqat ijtimoiy munosabatlar dunyosidagina yashamaydi, balki ular shu jamiyatning aloqa vositasi bo'lgan tilning ta'sirida ham yashaydilar»- degan fikridir.

Ana shu fikrni keng rivojlantirish natijasida tilning jamiyatga bo'lgan ta'siri haqida bir qator asarlar yaratdi va tilshunoslik tarixida «Sepir-Uorf

¹ Бу ҳақида қаранг. Нурмонов А.Н. Лисоний белги хусусиятлари ҳақида. – Андижон: Нашриётсиз, 1992. –36 б.

² Богданов В.В. Семантико-синтаксическая организация предложения. – Л.:Изд ЛГУ, 1977. – С. 29-39.

gipotezasi» deb tanilgan lingvistik nazariyaga asos soldi. Bu gipotezaning yutuq va kamchiliklari haqida gapirib o'tirmasdan, uning lingvistik belgi tuzilishi uchun ahamiyatli jihatlari haqida fikr yuritishni lozim, deb hisoblaymiz.

Sepir-Uorf gipotezasining muhim tomoni shundaki, unda tilshunoslik tarixida Boduen de Kurtene, V.Gumboldt, A.Shleyxer singari yirik tilshunos olimlarning lingvistik belgi haqidagi fikrlari o'z ifodasini topgan. Insonning sezgi a'zolariga ta'sir etadigan obyektiv borliqning mavjud ekanligi e'tirof etiladi. Demak, eng avvalo obyektiv olam mavjud va bu obyektiv olam uzvlari inson sezgi a'zolari orqali ongda o'z aksini topadi. Inson ongida aks etgan bu obyektiv olam uzvlari u yoki bu tilning moddiy vositalari yordamida o'z ifodasini topadi. Bundan ko'rinadiki, u yoki bu tilning moddiy vositalari orqali real ifodasini topguncha bo'lgan lingvistik belgining bosqichlari barcha tillar uchun umumiy, universal xususiyatga egadir. Ifoda plani orqali lingvistik belgi o'ziga xoslik kasb etadi.

Ko'rinadiki, lingvistik belgi o'zida uch bosqichni namoyon qiladi: obyektiv olam uzvi; bu olam uzvlarining ongda aks etishi, ongdagi umumlashgan obrazi; ongda aks etgan umumlashgan obrazning muayyan tilning ifoda vositalari orqali ifodalanishi. Lingvistik belgining bunday strukturasi struktur tilshunoslikning otasi sanaluvchi Ferdinand de Sossyur asarlarida ham o'z ifodasini topgan edi.

Lekin Sepir va Uorflarning lingvistik gipotezasining ulardan farqi shundaki, ular tomonidan til shakllarining tafakkur shakllariga ta'siri masalasiga ko'proq e'tibor berdilar. Tilni oddiygina passiv aloqa vositasi emas, balki inson tafakkuriga, dunyoqarashiga ta'sir etuvchi faol vosita ekanligini yoritishga harakat qildilar.

Sepirning bayon qilishiga ko'ra, turli tillarda gaplashuvchi jamiyat vakillari yashayotgan dunyo ular tomonidan turli xil etiketkalarini o'z ichiga olgan turli dunyo sifatida tasavvur qilinadi.

Uorfning fikricha, har bir tilda obyektiv olamni turlicha tasvirlash xususiyati mavjud. Til inson tafakkur me'yorini, ayni paytda axloq normasini

belgilash uchun xizmat qiladi. Insonning butun faoliyatiga kirib boradi va unga o'z hukmini o'tkazadi. Unga misol qilib, Ovrupada yashovchi kishilarning obyektivlashtiril-gan vaqt haqidagi tasavvurlarini keltiradi. Uning bayon qilishicha, obyektivlashtirilgan vaqt lentaga o'xshab tasavvur etiladi. Bu lenta teng bo'laklarga bo'lingan va yozuv bilan to'ldirilgan bo'lishi mumkin bo'ladi. Yozuv bizning vaqt haqidagi lingvistik tavsifimizga qulay imkoniyat yaratdi. Til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro almashuv tufayli biz kundalik, buxgalteriya hisobi, hisob bilan ish yurituvchi matematika; kalendar, xronologiya, soat, vaqt bilan o'lchanuvchi ish haqi, fizikada qo'llaniladigan vaqt; yodnoma, o'tmishga qiziqish, arxeologiya, kelajak rejalariga ega bo'lamiz.

Uorf tilning jamiyatga ta'siri haqida fikr yuritganda hatto shunday xulosaga keladiki, fazoni o'rganishda katta muvaffaqiyat qozongan I.Nyuton agar ingliz tilidan boshqa tilda muloqot qilganda fazoni boshqacha tasavvur qilgan bo'lar emish¹.

Bu fikrlar qanchalik haqiqatga to'g'ri kelish – kelmasligidan qat'i nazar, Uorf-Sepir gipotezasida borliq – ong – til munosabati to'g'ri bayon qilingan.

Mazmuniy sintaksisning rivojlanishi natijasida lisoniy belgi va uning ichki tuzilishi haqidagi qarashlar bir muncha konkretlashdi.

Jumlaga to'liq lisoniy belgi sifatida qaralgani holda, uning ifoda tomonining ifodalanmish tomoniga, ya'ni lisoniy belgining shakl tomoni bilan mazmun tomoni o'rtasidagi munosabatni yoritishga alohida e'tibor berila boshlandi.

Lisoniy belgining shakliy tomoni ham, mazmuniy tomoni ham sistemaviylik nuqtayi nazardan o'rganila boshlandi. Buning natijasida lisoniy belgi shakl va mazmun munosabatdan tashkil topgan sistema sifatida qaralishi bilan birga, bir butunning o'zaro uzviy munosabatda bo'lgan bu ikki tomonning o'zi ham o'z ichki tuzilish birliklariga ega bo'lgan avtonom sistema ekanligi e'tirof etildi.

¹ Звегинцев В. Теоретико-лингвистические предпосылки гипотезы Сепира-Уорфа // Новое в лингвистике. – М., 1960. Вып. 1. – С. 119.

Lisoniy birliklarning ma'no tomonini yoritishga bag'ishlangan ishlarning deyarli barchasida ma'no bir necha struktur qavatlariga bo'lindi. Ularning eng quyi qavati obyektiv olam elementlarining inson ongida aks etgan obrazlarini ifodalovchi ma'no ajratiladi va bu ma'no atov ma'no, referent ma'no, denotativ ma'no, nominativ ma'no kabi atamalar bilan nomlanadi. Demak, bu atamalar turli tilshunoslik yo'nalishlari tarafdorlari tomonidan qo'llanilgan bo'lsa ham, lekin ularni hammasi bir umumiy mohiyatni ifodalaydi.

Demak, lisoniy belgining mazmuniy tuzilishida denotativ yoki nominativ ma'no asosiy rol o'ynaydi.

Propozitiv nomlanishlarda markaziy mazmuniy uzv predikat sanaladi. Ana shu predikatning qanday so'zlardan ifodalanishi propozitiv nomlanishlarning xususiyatini belgilashda katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Propozitiv nomlanishlar predikatning ifodalanishiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi: a) fe'l predikatli propozitiv nomlanishlar; b) ot predikatli propozitiv nomlanishlar.

Fe'l predikatli propozitiv nomlanishlar sintaktik nominatsiyada keng tarqalgani va yetakchi o'rinni egallagani tufayli ularni alohida va atroflicha bayon qilish maqsadga muvofiq deb bilamiz. Shuning uchun ham, avvalo, ot predikatli propozitiv nomlanishlar haqida fikr yuritamiz.

Propozitiv nomlanishlarning predikati fe'ldan boshqa so'z turkumlaridan ifodalansa, bunday propozitiv nomlanishlar ot predikatli propozitiv nomlanishlar hisoblanadi.

Otlar (keng ma'noda) ham ko'p hollarda belgi bildirib, bo'sh o'rinlarga ega bo'lishi mumkin. Masalan, **shirin** so'zi predikat o'rnida kelib, shirinlik egasi bo'lgan agens bo'sh o'rniga, qiyoslanuvchi obyekt bo'sh o'rniga ega. Ana shu bo'sh o'rinlarning to'ldirilishi ot predikatli propozitiv nomlanishlarni hosil qiladi. Masalan,

Bola boldan shirin,

Boldan bola shirin,

Bolaning boldan shirinligi

Yuqoridagi uch sintaktik qurilma bir mazmuniy model, bir propozitsiyaning turlicha ifodalanishi sanalgani holda, bir semantik invariantning turli ko'rinishlari, variantlaridir. Bu variantlarning qaysilari transformatsiya, qaysi biri transformatsiya uchun asos bo'ladi? Bu savolning ijobiy hal qilinishi transformatsiya yo'nalishini belgilashda katta ahamiyatga ega.

Bir propozitsiyaning yuqoridagi kabi uch xil nomlanishida ko'pchilik tilshunolar gap bo'laklarining muayyan me'yorga bo'ysungan va predikati kesimlik shakliga ega bo'lganini transformatsiya uchun asos bo'lgan variant deb hisoblaydilar.

Ana shu shakldagi transformatsiya uchun asos bo'lgan propozitsiya nomidan boshqa propozitsiya nomlarining transformatsiyalanishi turli xil yo'llar bilan sodir bo'ladi. Yuqoridagi gaplar paradigmasida ikkinchi gap birinchi gapning tartibi o'zgartirilgan transformatsiyasidir. Bunday transformatsiya usuli **permutatsiya** transformatsiyasi sanaladi.

Ikkinchi gap esa birinchi gap kesimining kesimlik shaklini o'zgartirish, uni tobe vaziyatga keltirish, ya'ni kesimlik vaziyatidan boshqa vaziyatga o'tkazish yo'li bilan hosil qilingan. Shuning uchun uchinchi gap ham birinchi gapning transformatsiyasi sanaladi. Transformatsiyaga asos bo'lgan gap kesimining pozitsiyasini o'zgartirish yo'li bilan hosil qilingan transformatsiya nominalizatsiya transformatsiyasi sanaladi.

Shunday qilib, ot predikatli propozitiv nomlanishlar, shu nomlanishning markaziy uzvi bo'lgan predikatning qanday shakllanishiga ko'ra ikki turli bo'ladi: a) gap; b) birikma.

Gap maqomidagi propozitiv nomlanishlar shu kunga qadar ot kesimli gaplar nomi ostida izchil o'rganib kelindi. Lekin birikma maqomidagi propozitiv nomlanishlar yuzasidan bunday fikrni aytish qiyin. Shu bois birikma maqomidagi propozitiv nomlanishlar bo'yicha munozarali o'rinlar juda ko'p. Ana shu munozarali o'rinlardan biri birikma maqomidagi propozitiv nomlanishlarni tashkil etgan uzvlarning umumiy gap tuzilishidagi o'rnini belgilash masalasidir. Chunki birikma maqomidagi propozitiv nomlanishlar


tarkibi nechta uzvdan tashkil topishidan qat'i nazar, butun gap tuzilishi uchun bitta gap bo'lagi vazifasida, bitta sintaktik pozitsiyada keladi. Shunday ekan, birikma maqomidagi propozitiv nomlanishni tashkil etgan uzvlarning gapning umumiy tuzilishidagi o'rni qanday bo'ladi? Bu uzvlar faqat gapning bitta bo'lagi vazifasida keluvchi propozitiv nomlanishning o'z ichki tuzilishi doirasida amal qiladimi yoki gapning boshqa uzvlari kabi ular bilan bir xil maqomda turadimi?

An'anaviy tilshunoslik birikma maqomidagi propozitiv nomlanishlarning ichki uzvlari bilan gapning boshqa uzvlari o'rtasidagi farqqa e'tibor bermadi. Ularning hammasini bir xil maqomdagi gap bo'laklari sifatida baholadi. Natijada lisoniy birliklarning sintagmatik munosabatidagi darajalanish xususiyatini belgilash tilshunoslar e'tiboridan chetda qoldi. Ayni paytda gap tuzilishi va gapning uzvlari tuzilishi ham obyektiv talqinini topmadi.

Shuning uchun ham sistemaviy-struktur tilshunoslik an'anaviy tilshunoslik yo'l qo'ygan ana shu kamchilikka barham berish maqsadida gap tuzilishi bilan gap uzvlarining ichki tuzilishini bir-biridan farqlaydi. Natijada gapning bo'laklari bilan bo'lakning bo'laklari o'zaro farqlanadi. Bo'lakning bo'lagi gap tuzilishi uchun noamaliy mavqeda, gap bo'laklari esa amaliy mavqeda ekanligi ta'kidlanadi¹. Bu shuni ko'rsatadiki, gap bo'laklari gapdagi mavqeyiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi: a) amaliy mavqedagi bo'laklar (funktional bo'laklar); b) noamaliy mavqedagi bo'laklar (nofunktional bo'laklar).

Ot predikatli propozitiv nomlanish tarkibida ot predikat bilan sintagmatik munosabatga kirishuvchi barcha uzvlar gap tuzilishi uchun noamaliy mavqeda bo'ladi. Ularning amal qilishi faqat shu birikma doirasi bilan cheklanadi. Ana shu aytilgan fikrlar asosida ot predikatli propozitiv nomlanishlar tuzilishini tashkil etgan uzvlar bilan gap tuzilishi tarkibiga kiruvchi uzvlar munosabatini quyidagi sxema orqali ifodalash mumkin bo'ladi.

¹ Махмудов Н.М. Ўзбек тилидаги содда гапларда семантик-синтактик асимметрия. - Т.: Ўқитувчи, 1984. – 146 б.



Yuqoridagi sxemada ikkita P (predikat) ishtirok etmoqda.

Ularning birinchisi kesimlik shakliga ega emas. Shuning uchun u kesim pozitsiyasida kela olmaydi. Ikkinchi predikat esa kesimlik shakliga ega bo'lib, butun gapning mazmuniy va grammatik markazi vazifasida, kesim pozitsiyasida keladi. Shu bilan birgalikda, birinchi predikat ham bo'sh o'rinlarga – valentliklariga ega bo'lgani sababli ana shu bo'sh o'rinlarini to'ldirish hisobiga kengayib kelish imkoniyatiga ega. Lekin bu predikatning bo'sh o'rinlarini to'ldirib kelgan uzvlarning kesimlik shaklini olib kelgan predikatga daxli yo'q. Shuning uchun bu uzvlar faqat shu noamaliy mavqeda turgan predikatning bo'laklari sanaladi. Noamaliy mavqedagi predikatning o'zi amaliy mavqedagi predikat bilan sintagmatik munosabatga kirishib, unga nisbatan muayyan sintaktik pozitsiyada va ma'lum gap bo'lagi vazifasida kelar ekan, bu predikat bo'sh o'rinlarini to'ldirib, uning tarkibini kengaytirib keluvchi bo'laklar o'z-o'zidan, bo'lakning bo'lagi sanaladi.

Demak, gapning tuzilishiga mansub bo'lgan bo'laklar faqat shu gapning kesimi bilan sintagmatik munosabatga kirishadi. Shu bo'lak bilan munosabatga kirishmaydigan, undan boshqa bo'laklar bilan munosabatga kirishadigan bo'laklar esa bo'lakning bo'lagi sanaladi. Ko'rinadiki, gapning yoki bo'lakning bo'lagi deb ajratilishda bu bo'laklarning kesim yoki kesimdan boshqa bo'laklar bilan sintagmatik munosabatga kirishish belgisi asos bo'lib xizmat qiladi.

Propozitiv nomlanishlarning predikati fe'l va uning sifatdosh, ravishdosh hamda harakat nomi shakllaridan ifodalansa, bunday propozitiv nomlanishlar fe'l predikatli propozitiv nomlanishlar sanaladi.

Fe'l predikatli propozitiv nomlanishlarning barchasi uchun umumiy belgi shundan iboratki, ularning mazmuniy va uyushtiruvchi markazi, turli shakllar

uchun asos bo'lgan fe'l atov birligidir. Masalan, *Yerlarni dirillatib, poyezd o'tdi*. Yuqoridagi gapda ikkita fe'l predikatli propozitiv nomlanish ishtirok etmoqda. Ularning birinchisidagi markaziy birlik *dirillatib* - fe'li, ikkinchisidagi markaziy birlik *o'tdi* - fe'lidir. Bu fe'llarning birinchisi ravishdosh shaklida, ikkinchisi esa tuslanish shaklidadir. Bu shakllardan qat' i nazar, ularning har qaysisi uchun umumiy jihat grammatik shakllardan xalos qilingan atov qismidir. Ana shu atov qism fe'l leksema bo'lganligi bilan ular umumiylikni hosil qiladi.

Fe'l leksemalar predikat uchun eng qulay leksemadir. Chunki bu leksemalar bir necha bo'sh o'rinlarga ega bo'lib, ana shu bo'sh o'rinlarning to'ldirilishi fe'l predikatli propozitiv nomlanishlarni vujudga keltiradi.

Fe'l leksemalarning qaysi shaklda turishi esa propozitiv nomlanishlarning bundan keyingi tasnifini belgilaydi. Agar fe'l leksema kesimlik shakllarini olsa, propozitiv nomlanish gap bo'lib shakllanadi. Kesimlik shaklini olmasa gap bo'lib shakllana olmaydi. Ko'rinadiki, propozitsiya ikki xil yo'l bilan nomlanish xususiyatiga ega:

- 1) gap shaklidagi propozitiv nomlanishlar
- 2) gap bo'lagi shaklidagi propozitiv nomlanishlar.

Fe'l predikati kesimlik shaklini olmagan propozitiv nomlanishlar predikati kesimlik shaklini olgan propozitiv nomlanish bilan birgalikda kelib, uning bir bo'lagi vaziyatini egallaydi.

Tabiiyki, bunday hollarda gap tarkibida ikkita va undan ortiq predikat ishtirok etadi. Predikatlardan faqat bittasi predikativ shaklda keladi. SHunday qilib, gaplar predikatlar miqdoriga ko'ra ikki guruhga bo'linadi.: 1) bir predikatli gaplar; 2) ko'p predikatli gaplar.

Ko'p predikatli gaplarda predikatlarning har biri yoki kamida ikkitasi kesimlik (predikativlik) shakliga ega bo'lsa, bu predikatlarning bo'sh o'rinlarini to'ldirish asosida hosil bo'lgan propozitiv nomlanishlar gap bo'lib shakllanadi va bunday predikatli gaplar qo'shma gaplarni hosil qiladi. Qo'shma gaplarning komponentlari sanaladi. Aksincha, faqat bitta predikat kesimlik shakliga ega bo'lib, qolganlari bunday xususiyatga ega bo'lmasa, kesimlik shakliga ega

bo'lmagan predikat kesimlik shakliga ega bo'lgan predikatga nisbatan ikkinchi planga o'tadi va ikkinchi darajali predikat sanaladi¹. Ikkinchi darajali predikatning bo'sh o'rinlarini to'ldirib kelgan so'z shakllari shu predikat bilan tobe munosabatga kirishib, u bilan bir yaxlit butunlikni tashkil etadi. Bu butunlik kesimlik shaklini olib kesim pozitsiyasida kelgan asosiy, birinchi darajali predikatga tobe bog'lanib, unga nisbatan muayyan sintaktik vaziyatni, ko'proq hol vaziyatini egallaydi.

Bunday polipredikatli gaplar sodda gaplar bilan qo'shma gaplar oralig'idagi oraliq holatni egallaydi. Oraliq holatdagi birliklar o'zaro zidlanuvchi ikki qutbning har ikkisi taalluqli bo'lgan belgilarni o'zida ma'lum darajada aks ettiradi.

Ana shunday holat sodda va qo'shma gaplar oralig'ida joylashgan polipredikatli sodda gaplarga ham tegishlidir. Chunki bunday gaplarda asosiy predikatga tobe bog'lanib kelgan predikat kesimlik shakliga ega bo'lmaganligi uchun kesim vaziyatida kela olmaydi. Bu predikat o'zining argumentlari bilan birgalikda yaxlit holda kesim vaziyatidagi predikatga argument bo'lib keladi va hol sintaktik pozitsiyasini egallaydi. Shuning uchun ham ikkinchi darajali predikat ishtirok etgan bunday gaplar sintaktik tuzilish jihatidan sodda gap hisoblanadi.

Lekin polipredikatli gaplarda har bir predikat o'z argumentlari bilan birgalikda muayyan propozitsiyani ifodalaydi. Bu predikatlardan biri kesimlik shaklidan boshqa shaklda bo'lib, kesim vaziyatida kelaolmasa ham, mazmunan har ikki predikatli qurilma orqali ifodalangan propozitsiya saqlanib qoladi. Shuning uchun ham bunday gaplar mazmunan qo'shma gaplar bilan umumiylikni tashkil qiladi.

Shunday qilib, predikatlardan biri kesimlik shakliga ega bo'lmagan polipredikatli gaplar shakliy tuzilishga ko'ra sodda gap bo'lsa ham, mazmuniy

¹ Махмудов Н. Ўзбек тилидаги содда гапларда семантик-синтактик асимметрия. – Т.: Ўқитувчи, 1984. – 146 б.

tuzilishiga ko‘ra qo‘shma gap orqali ifodalanishi lozim bo‘lgan propozitsiyalarni o‘zida saqlab qoladi.

Ana shu propozitsiyalar miqdorining umumiyligi nuqtayi nazaridan bunday gaplar qo‘shma gaplar bilan bir mazmuniy paradigmani tashkil etadi. Masalan:

- 1) Zang chalindi, dars boshlandi.**
- 2) Zang chalinib, dars boshlandi.**
- 3) Zang chalingach, dars boshlandi.**
- 4) a) Zangning chalinishi bilan dars boshlandi.**
b) Zang chalinishi bilan dars boshlandi.
- 5) Zang chalingandan keyin dars boshlandi.**

Yuqorida keltirilgan sintaktik paradigmaning birinchi a‘zosi boshqa barcha a‘zolar bilan birinchi predikatning kesimlik shakli belgisiga ko‘ra privativ oppozitsiyaga kirishadi. Birinchi gapdagi har ikki predikat, shu jumladan, ikkinchi predikat ham, kesimlik shakliga ega. Boshqa paradigma a‘zolaridagi birinchi predikat ana shunday belgiga ega emas. Paradigmaning birinchi a‘zosi, N.S.Trubeskoy ta‘biri bilan aytganda, markerlangan. Boshqa a‘zolar tarkibidagi birinchi predikat esa markerlanmagan.

Bu gaplardagi propozitsiyalar o‘zgarmagan holda saqlanadi. Demak, sintaktik qurilmalar orqali ifodalangan propozitsiyalar bu gaplarni bir sinfga, bir paradigmaga birlashtirish uchun asos bo‘lgan birlashtiruvchi (integral) belgi vazifasini o‘taydi.

Ko‘rinadiki, polipredikatli gaplarning bir predikati ravishdosh, sifatdosh, harakat nomlari orqali ifodalanib, kesimlik shaklini olmagan bo‘lsa, bunday predikatlar o‘z argumentlari bilan bir butun holda gap bo‘lagi shaklidagi propozitiv nomlanishlarni hosil qiladi.

Gap bo‘lagi shaklidagi propozitiv nomlanishlar ishtirok etgan sodda gaplar mazmuniy murakkablik xususiyatiga ega bo‘lishi bilan birga (chunki bunday gaplar birdan ortiq propozitsiyani ifodalaydi va shu belgisiga ko‘ra

qo'shma gaplar bilan bir sinfga mansub bo'ladi), sintaktik (shakliy) bo'linish nuqtayi nazaridan ko'p bosqichli xususiyatga ega bo'ladi. Bunday gaplar sintaktik jihatdan bir xil qatordagi gap bo'laklariga bo'linmaydi. Gapning bo'laklarga bo'linishi bosqichma-bosqich tarzda amalga oshiriladi.

Birinchi bosqichda gap tarkibida kesimlik shaklini olib, sintaktik kesim vaziyatida kelgan predikat ajratiladi. Bu sintaktik bo'laklarga ajratishning birinchi darajasi sanaladi. Masalan, yuqoridagi gapda **boshlandi** bo'lagi. Ikkinchi bosqichda esa ana shu kesim vaziyatidagi predikatning bo'sh o'rinlarini to'ldirib kelgan va u bilan tobe munosabatda bo'lgan bo'laklar ajratiladi. Masalan, yuqoridagi gapda **dars** bo'lagi **boshlandi** predikatining agens valentligini to'ldirib kelib, kesim vaziyatidagi shu predikatga tobe bog'langanligi uchun bo'linishning ikkinchi darajasini tashkil etadi. Bu jihatdan kesimlik shakliga ega bo'lmagan ikkinchi darajali predikat ham kesimlik shaklini olgan asosiy predikatning bo'sh o'rnini to'ldirish uchun xizmat qiladi. Shuning uchun o'z argumentlari bilan birgalikda bir butun holda bu predikat ham asosiy predikatga tobe bog'lanadi va unga nisbatan hol vaziyatini egallaydi. Masalan, yuqoridagi gapda **zang chalingach** (-ib, -ishi bilan) birikmasi bir butun holda **boshlandi** bo'lagiga nisbatan bitta sintaktik pozitsiyani - hol pozitsiyasini egallaydi.

Bo'linishning navbatdagi darajasi kesimga nisbatan bitta sintaktik pozitsiyada kelgan, ikkinchi darajali predikat asosida quriluvchi propozitiv nomlanishlarning ichki uzvlarini ajratishdan iborat bo'ladi. Ya'ni gapning bo'lagi vazifasidagi propozitiv nomlanishlar gapning kesimga nisbatan bir butun holda bitta gap bo'lagi vazifasida kelsa ham, lekin u ichki bo'linish xususiyatiga ega bo'ladi. Shuning uchun gap sintaktik tuzilishi bo'linishining keyingi bosqichida ana shu bitta bo'lak vazifasida kelgan propozitiv nomlanishlarning ichki tuzilish birliklari ajratiladi. Xususan, yuqoridagi keltirilgan gapda **zang** bo'lagi faqat **chalingach** predikatining agens valentligini to'ldirib, shu predikat bilan munosabatga kirishib, bir butunlikni tashkil qiladi. Shuning uchun **zang** bo'lagining sintaktik funksiyasi faqat gap bo'lagi

shaklidagi propozitiv nomlanish doirasida bo‘lib, gapning tuzilishi uchun dahli bo‘lmaydi. Bu esa uning gap tuzilishi uchun nofunktional ekanligini ko‘rsatadi.

Kesimlik shakliga ega bo‘lmagan ikkinchi darajali predikatlar bilan munosabatda bo‘lgan to‘ldiruvchi ham, hol ham, ega ham gap tuzilishi uchun nofunktional bo‘ladi. Uning funksiyasi faqat ikkinchi darajada predikat bilan bog‘liqdir. Shuning uchun ham ular gapning emas, balki bo‘lakning bo‘laklari sanaladi.

Bu shuni ko‘rsatadiki, ega, to‘ldiruvchi va hollarning gap tuzilishidagi rollari bir xil emas. Ular gapning bo‘lagi ham, bo‘lakning bo‘lagi ham vazifalarida kelishlari mumkin. Nimaning bo‘lagi ekanligini belgilashda ularning qaysi predikat bilan munosabatda bo‘lishi katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Kesimlik shaklini olgan predikat bilan munosabatda bo‘lgan sintaktik birliklar gapning bo‘lagi, kesimlik shaklini olmagan predikat bilan munosabatda bo‘lgan sintaktik birliklar esa bo‘lakning bo‘lagi bo‘ladi.

FE'L PREDIKATLI PROPOZITIV NOMLANISHLAR

Fe'l predikatli propozitiv nomlanishlarning shakliy tuzilishi va sintaktik pozitsiyasi

Ma'lumki, kesim o'zida predikativlikni aks ettirib, gapni shakllantiruvchi va uyushtiruvchi markaziy bo'lak hisoblanadi¹. Ayni zamonda, gapning grammatik kategoriyalari kesim asosida belgilanadi.

Boshqa gap bo'laklari, jumladan, ega ham kesimning kengaytiruvchilaridan biridir. Sintaktik pozitsiyada tayanch nuqta predikativlik shaklidagi predikat, ya'ni kesim sanaladi. Boshqa barcha bo'laklar kesimning «bo'sh o'rin»larini to'ldirib, unga nisbatan ma'lum vaziyatda keladi. Kesimning «bo'sh o'rin»larini to'ldirib, ma'lum sintaktik vaziyatda kelgan sintaktik birliklar (ega, to'ldiruvchi, hol) moddiy jihatdan bir yoki bir necha morfologik shakllardan tashkil topadi.

Bir necha morfologik shakllardan ifodalangan, kesimga nisbatan bir sintaktik vaziyatda kelgan sintaktik butunlik bir butun holda funksiyalashadi. Bunday sintaktik butunliklarda bir uzv boshqa uzvlarni birlashtiruvchi yetakchi vosita sanaladi. Ayni paytda bu yetakchi qism o'zi ergashtirib kelgan boshqa qismlar bilan birgalikda, bir butun holda kesimga nisbatan tobe vaziyatda keladi. Ana shunga ko'ra gap bo'laklari uchga bo'linadi: 1) sodda gap bo'laklari; 2) murakkab gap bo'laklari; 3) birikmali gap bo'laklari.

Faqat bir morfologik shakldan tashkil topgan gap bo'lagi sodda, turg'un birikmalardan ifodalangan gap bo'lagi murakkab, predikat argumentlarini kengaytirib kelgan bo'laklar birikmali gap bo'lagi sanaladi.

Sodda gap bo'laklari tarkibiy qismlarining mustaqil so'zlarga bo'linish-bo'linmaslik belgisiga ko'ra, keyingi ikki turdagi gap bo'laklari bilan privativ zidlanish munosabatida bo'ladi. Ayni paytda, keyingi ikki turdagi bo'laklar ham o'zaro oppozitsiyaga kirishadi. Bu vaqtda zidlanishga asos belgi bo'lib gap

¹ Махмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Синтаксис. – Т.: Ўқитувчи, 1995. – Б. 66.

bo‘lagi tarkibidagi qismlarning o‘zaro bog‘lanish xarakteri xizmat qiladi. Bog‘lanish erkin va hokim-tobe munosabatni o‘zida saqlab tursa, bunday bo‘lak birikmali, ana shunday belgiga ega bo‘lmasa, murakkab gap bo‘lagi hisoblanadi.

Gap bo‘lagi til birligi sifatida shakl va mazmun qarama-qarshiligi va birligidan tashkil topgan murakkab qurilma sanaladi. Gap bo‘lagining shakl tomoni ham, mazmun tomoni ham, garchi bir butunlikning ikki tomoni bo‘lsa-da, har qaysisi o‘z ichki tuzilishiga ega. SHuning uchun ham gap bo‘laklarining bu ikki xil ichki tuzilishini o‘rganish, shakl va mazmun o‘rtasidagi munosabatini belgilash nazariy tilshunoslikning muhim vazifasidir¹.

Har qanday gap bo‘lagi shakliy jihatdan moddiy asos (morfologik shakl) va sintaktik vaziyat (sintaktik shakl) qarama-qarshiligi va birligidan iboratdir. Morfologik shakl sintaktik shaklning vujudga kelishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Lekin morfologik shakl asosida hosil bo‘lgan sintaktik shakl sifat jihatdan tamoman farqli bo‘lgan yangi va unga nisbatan yuqori shakl hisoblanadi. Bir morfologik shakl bir necha sintaktik shakl uchun asos bo‘lgani kabi, bir necha morfologik shakl bir sintaktik shakl uchun asos bo‘lishi ham mumkin. Lekin bu ikki shakl o‘zaro uzviy bog‘liq.

Sintaktik shakl morfologik shakl asosida vujudga kelgan yuqoriroq birlikdir. Shunday ekan, sintaksis uchun sintaktik shakl belgilovchi vazifa bajaradi. Gap tarkibida butunning bo‘laklari sifatida sintagmatik munosabatga sintaktik shakllar kirishadi.

Morfologik shakl esa muayyan sintaktik shaklning ichki tomonini ko‘rsatadi. Sintaktik shakl birlashtiruvchilik, morfologik shakl esa farqlovchilik xususiyatiga egadir. Ya’ni ma’lum sintaktik shakl bir necha morfologik shakllarni birlashtirish asosida yuzaga keladi.

Shu sintaktik shaklning ichki farqlovchi belgilarini aniqlashda uning qanday morfologik shaklga tayanganligiga asoslanadi. Sintaktik shakl morfologik shakl orqali vujudga kelgani uchun morfologik shakl sintaktik shakl

¹ Махмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Синтаксис. – Т.: Ўқитувчи, 1995. – Б. 59.

doirasida o'z vazifasini bajaradi. Demak, morfologik shaklning funksiyalashish sharoiti sintaktik shakl sanaladi. Shuningdek, sintaktik shaklning funksiyalashish sharoiti jumla sanaladi.

I.B.Dolinina bunday sintaktik birliklarning, dastavval, o'z ichida sintaktik bo'linish xususiyatiga egaligini, ikkinchidan, bir butun holda gap tarkibida bir gap bo'lagi kabi ishtirok etishni ta'kidlaydi¹.

Bir sintaktik vaziyatda kelgan ana shunday sintaktik birliklarning ichki sintaktik munosabatlarini aniqlash bugungi muhim vazifalardan biridir.

Bunday qurilmalar **propozitiv nomlanish** sifatida yuritiladi. Propozitiv nomlanishlar o'ziga xos shakl va mazmun birligidan tashkil topgan yaxlitlik bo'lib, ular o'z doirasida shakliy va mazmuniy tuzilishga ega bo'ladi. Propozitiv nomlanishlarning shakliy tuzilishi deyilganda, uning tarkibidagi shakliy qismlar, ya'ni birikmali bo'laklarning bir necha shakliy uzvlardan tashkil topganligi e'tiborga olinadi.

Handalak ko'targan kishi chol oldidan o'tayotganda qadamini sekinlatdi. (S.Ahmad)

gapida ***sekinlatdi*** predikati bir necha «bo'sh o'rin»larga, valentliklarga ega. Bu valentliklarni ega pozitsiyasida kelgan ***Handalak ko'targan kishi***, hol pozitsiyasida kelgan ***chol oldidan o'tayotganda***, to'ldiruvchi pozitsiyasida kelgan ***qadamini*** birliklari to'ldiradi. Predikat valentliklarini to'ldirgan bu birliklarning sintaktik vazifalari butun gap uchun amal qiladi. ***Handalak ko'targan kishi va chol oldidan o'tayotganda*** qurilmalarining o'zi yana ichki bo'linishlarga ega bo'ladi. Uning tarkibidagi har qaysi leksemaning sintaktik vazifasi esa umumiy gap uchun emas, balki ichki qurilma uchun tegishli tarzda belgilanadi. Ya'ni:


Bu yerda: N - ot

$$\boxed{N(\text{ни}) + V_{\text{ган}} + N} + \boxed{N(\text{нинг})\text{олдидан} + V_{\text{ганда}}} + \boxed{N_{\text{ни}} + V_f}$$

V - fe'l, uning shakllari


¹ Долинина И.Б. Системный анализ предложения. – М., 1977. – С. 13-14.

Shuningdek, *Uyqu qochib, yana suhbatlashdilar* (Shuhrat) gapida *suhbatlashdilar* kesimining (predikatining) «bo'sh o'rin»larini to'ldiruvchi vositalar – *uyqu qochib* hamda *yana* birliklarining ikkisi ham hol pozitsiyasida kelyapti. Garchi ikki birlik ham butun gapga nisbatan hol pozitsiyasida kelib, unga tobelanib aloqada bo'layotgan bo'lsa-da, ular o'rtasida muayyan farqlar mavjud: *Uyqu qochib* qurilmasi o'z ichki tuzilishga ega bo'lgan yaxlit bir pozitsiyadagi propozitiv nomlanishdir. Chunki bu gapda ikkita propozitsiya mavjud: *uyqu qochdi, yana suhbatlashdilar*.



Bunda: Adj – ravish

Bu gapni quyidagi «shajara daraxti» orqali ifodalash mumkin:



Odamlar Tursunboyni qochoq deyishganda, Jannat xola ishonqiramagan edi (S.Ahmad) gapida ham ikki propozitsiya bor: *odamlar Tursunboyni qochoq deyishgan; Jannat xola ishonqiramagan edi*. Biroq dastlabki gapda predikat kesimlik shaklini yo'qotib, o'z kengaytiruvchilari bo'lgan *odamlar, Tursunboyni, qochoq* leksemalari bilan birgalikda *ishonqiramagan edi* kesimiga tobelanib, umumiy tarzda hol pozitsiyasida kelyapti. Yuqoridagi gaplarda hol pozitsiyasidagi *yana* birligi bilan hol pozitsiyasidagi propozitiv nomlanish bo'lgan *odamlar Tursunboyni qochoq deyishganda* qurilmasini qiyoslab ko'ramiz: *yana* - bir uzvli; ikkinchisi - ko'p uzvli; *yana* leksemasining kengaytiruvchilari mavjud emas, *deyishganda* esa *odamlar, Tursunboyni, qochoq* leksemalari bilan kengayib kelyapti; *yana* leksemasining substansional shakli ravish, propozitiv nomlanish esa mazmunan sodda gapga teng. Ushbu gap ichki jihatdan ifoda planiga egadir. Ifodasiga

ko'ra: ot + ot + sifat + fe'l tipli; funksional ma'nosiga ko'ra: ega + to'ldiruvchi + hol + kesim (ichki); shakliy jihatdan yanada aniqroq belgilasak, ot (turdosh, bosh kelishik) + ot (atoqli, tushum kelishigi) + sifat (xus.bild.) + fe'l (sifatdosh + da shaklli) tarzidagi morfologik ifodalanishli hamda ega (uzvli) + to'ldiruvchi (vositasiz) + hol (tarz) + kesim (fe'l asosli) ko'rinishidagi funksional ma'nolarga ajratish mumkin.

$$\boxed{N + N_{\text{ни}} + \text{AdV} + V_{\text{ганда}}}, + N + V_f$$

Bu yerda: AdV - sifat

Yoki:

Yaproqlarini chang bosgan so'ritok tagidagi chol allanimani hidladi
(O'.Hoshimov).

Guvala devorlar orqasida bekingan chang bosgan behi g'o'ralari, terakka chirmashgan aymoqi uzumlar bu ko'chaga ajib bir husn bag'ishlaydi.

(S.Ahmad)

gaplariga e'tibor qilaylik. Dastlabki gapda ega pozitsiyasida kelayotgan propozitiv nomlanish o'z tarkibida to'rt uzvdan tashkil topgan: **yaproqlarini chang bosgan so'ritok tagidagi chol**.

So'ritok leksemasi **chang bosgan** bo'lagini (sifatdoshini), **chang bosgan** murakkab birikmasi (u o'z ichida **chang** va **bosgan** uzvlaridan iborat) esa **yaproqlarini** to'ldiruvchisini o'ziga tobelantirib kelyapti:



Bu gapdagi propozitiv nomlanish ham bosqichma-bosqich ajratiladi: to'ldiruvchi + to'ldirmish uzvlariga va aniqlovchi + aniqlanmish uzvlariga.


Ya'ni:

$\boxed{\text{N}_{\text{ни}} + \text{V}_{\text{тан}} + \text{N}(\text{нинг}) + \text{Adj} + \text{N}} + \text{P}_{\text{онни}} + \text{V}_f$

Bu yerda: Adj – ravish,

Pron – olmosh

Bu gapning «shajara daraxti» quyidagicha:



Keyingi gapning predikati *husn bag'ishlaydi* ham bir necha bo'sh o'rinlarga – valentliklarga ega bo'lib, bu valentliklarni ega pozitsiyasida kelayotgan *guvala devorlar orqasida bekingan chang bosgan behi g'o'ralari* hamda *terakka chirmashgan aymoqi uzumlar*, hol pozitsiyasida kelgan *bu ko'chaga*, aniqlovchi pozitsiyasida kelgan *ajib bir* - birikmalari to'ldirib kelgan. Bu yerda ega pozitsiyasida kelgan bo'laklar uyushib kelyapti, ularning har qaysisi o'z doirasida qator leksemalar asosida tashkil topgan butunlik sifatida ichki bo'linishlarga ega bo'ladi.


Mantiqiy subyekt va predikat tushunchasi bilan semantik subyekt va predikat tushunchalari o'zaro bog'langan bo'lsalar ham, ammo bir-biriga teng hodisalar emas¹. Chunki gapning semantik tuzilishida subyekt va predikatdan tashqari vaziyatning boshqa elementlari ham qatnashadi. Yuqoridagi gapda *guvala devorlar* – subyekt, *bekingan, chang bosgan* – predikat (birinchi propozitsiya), *behi g'o'ralari, aymoqi uzumlar* - subyekt, *husn bag'ishlaydi* – predikat (ikkinchi propozitsiya) sifatida mazmuniy birliklar ajratiladi. Biroq

¹ Махмудов Н., Нурмонов А. ва бошқалар. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. – Т.: Фан, 1992. – Б. 56.

unda hukmning uch asosiy elementi mavjud: *guvala devorlar orqasida bekingan chang bosgan behi g'o'ralari* hamda *terakka chirmashgan aymoqi uzumlar* - S (subyekt); *bu ko'chaga ajib bir husn bag'ishlaydi* - P (predikat) hamda subyekt va predikat munosabatini yuzaga chiqaruvchi «Q» (bog'lovchi).

Demak, bu gapdan gapning mazmuniy tuzilishi bilan hukm elementlari bir-biri bilan teng hodisa emasligi yaqqol ko'rinyapti.

Ushbu gapda *guvala devorlar orqasida bekingan chang bosgan behi g'o'ralari* hamda *terakka chirmashgan aymoqi uzumlar* propozitiv nomlanishlari ega pozitsiyasida kelyapti. Ikkinchisi xuddi yuqorida berilgan misoldagi kabi *uzumlar* aniqlanmishi *terakka chirmashgan aymoqi* aniqlovchisini; *aymoqi* bo'lagi *terakka chirmashgan* sifatdoshini, *chirmashgan* sifatdoshi (to'ldirmishi) *terakka* to'ldiruvchisini tobelantirib kelgan. Ular bog'lanishiga e'tibor qilaylik:



Ko'rinadiki, **terakka**, **chirmashgan**, **aymoqi** leksemalarining sintaktik vazifasi yuqoridagi gapdagi **handalak**, **ko'targan** (handalak ko'targan kishi); uchinchi gapdagi **yaproqlarini**, **chang bosgan**, **so'ritok tagidagi** (yaproqlarini chang bosgan so'ritok tagidagi chol) leksemalari singari umumiy gap uchun ham; predikatli birikma uchun ham aloqador bo'lmay, instrumentalis a'zoning turlicha belgilarini ifodalash maqsadida qo'llanilgan bo'lakning bo'lagi sanaladi.

Ushbu gapda propozitiv nomlanish shaklidagi ega uyushib, **husn bag'ishlaydi** predikatiga mustaqil holda bog'lanmoqda va predikatning bo'sh o'rinlarini to'ldirib kelmoqda.

Oxirgi gapdagi ega pozitsiyasida kelgan ko‘p uzvli propozitiv nomlanishning ichki bog‘lanishini ko‘rib o‘tamiz:

guvala devorlar orqasida bekingan chang bosgan behi g‘o‘ralari


 $\text{гувала} \quad \text{деворлар} \quad \text{AdV} + \text{N (нинг)}$

Aniqlovchi Q aniqlanmish uzvli ushbu birikma sifatlovchisi sifat bilan, sifatlanmishi ot bilan ifodalangan.

Guvala devorlar orqasida birikmasining ichki tuzilishi sifatlovchi Q sifatlanmishning qaratqich funksiyasida (guvala devorlar (ning) orqasida) kelib, qaralmishga bog‘lanishi bilan belgilanadi. Ya’ni:

$\boxed{\text{AdV} + \text{N (нинг)}} + \text{N}_{\text{да}} \dots \text{узвларидан иборат}$

Navbatdagi ***guvala devorlar orqasida bekingan*** murakkab bo‘lagi yuqoridagi ichki tuzilish bilan birga, hol pozitsiyasida kelgan ***guvala devorlar orqasida*** birikmasining boshqaruvchisi ***bekingan*** sifatdoshi bilan aloqada bo‘ladi:

$\boxed{\text{AdV} + \text{N (нинг)} + \text{N}_{\text{да}}} + \text{V}_{\text{ган}}$

Chang bosgan birikmasi o‘z ichida alohida tuzilish uzviga ega:

$\text{N} + \text{V}_{\text{ган}}$


Ayni shu bo‘lak yuqoridagi ***guvala devorlar orqasida bekingan*** murakkab birikma bilan teng pozitsiyada turadi:

$\boxed{\text{AdV} + \text{N (нинг)} + \text{N}_{\text{да}} + \text{V}_{\text{ган}}} \quad \boxed{\text{N} + \text{V}_{\text{ган}}}$

Ega pozitsiyasida kelgan ushbu propozitiv nomlanishning instrumentalis a'zosi sanalgan **behi g'o'ralari** birikmasi ikki uzvdan tashkil topgan butunlik bo'lib, uning ichki strukturasini quyidagicha ko'rsatish mumkin:


N(ning) + N

Bu yerda aniqllovchi + aniqlanmish (qaratqich + qaralmish) ko'rinishidagi bo'lak o'zidan oldingi barcha uzvlar asosida kengayib, **husn bag'ishlaydi** predikatining valentliklarini to'ldirish uchun xizmat qiladi. O'z ichida umumiy tarzda quyidagi uzvlardan iborat bo'ladi:



Qurbonoy qorga belangan etagini kafti bilan tozalagan bo'ldi (O'.Hoshimov).

Berilgan gapda **tozalagan bo'ldi** kesimiga nisbatan ega pozitsiyasidagi **Qurbonoy**, vositali to'ldiruvchi vazifasidagi **kafti bilan**, vositasiz to'ldiruvchi vaziyatidagi **qorga belangan etagini** bo'laklari bir xil mavqeda bo'lib, ular mazmuniy jihatdan predikatning bo'sh o'rinlarini to'ldirish uchun xizmat qilmoqda. ya'ni:




Mazmuniy jihatdan:

s + s + p + s + inst + Pv

Bunda: s - subyekt (predmet)
p - predikat
inst – vosita

Bu gapni «shajara daraxti» orqali ifodallasak, quyidagicha bo‘ladi:



To‘ldiruvchi mazmunan predikat ifodalagan harakat, holat bevosita o‘tgan yoki unga aloqador bo‘lgan obyekt munosabatini ifodalaydi. To‘ldiruvchi predikatning obyekt valentligini to‘ldirib keladi. Obyekt, o‘z navbatida, turlicha belgilarga ega bo‘ladi. Obyektning ana shunday belgilarini moddiy shakllar yordamida ifodalanishi obyektini ifodalovchi sintaktik shaklni yoyiq tusga kiritadi. Obyekt belgilarini ifodalovchi sintaktik shakllar gapning mazmuniy va grammatik markazi bo‘lgan predikat bilan emas, balki uning obyekt bilan munosabatga kirishadi. Obyekt va uning belgisini bildiruvchi sintaktik shakllar birgalikda bir murakkab nom sifatida bir sintaktik pozitsiyada - to‘ldiruvchi pozitsiyasida keladi.

To‘ldiruvchi pozitsiyasida kelgan propozitiv nomlanishlar turlicha yo‘llar bilan hosil bo‘ladi:

- 1) gapning gap bo‘lagiga transformatsiyalanishi bilan;
- 2) obyekt bildiruvchi ifodaning belgi valentliklarini to‘ldirib kelishi bilan.

Dastlabki usul kesim pozitsiyasida kelgan predikatning kesimlik belgisini yo‘qotishi asosida hosil bo‘ladi. Bunday usul haqida S.Mahmatqulov fikr yuritir ekan, quyidagilarni bayon qiladi: «Predikativ sintagmaning ega a‘zosi transformatsiyalanishi natijasida qaratuvchiga, kesim a‘zosi esa qaralmishga aylanadi, predikativ sintagma yaxlitligicha gapga teng holatda birikmaga teng

holatga o'tadi. Ana shunday transformatsiya nutqda qaysi sintaktik vazifada kelishiga qarab grammatik shakl oladi»¹.

G'.Yaxshiboyev yuqoridagi tipdagi o'zgarishlarni sintaktik derivatsiya deb hisoblaydi va sintaktik derivatsiya strukturasini tub, tayanch va hosila strukturalarga ajratadi. Uning fikricha, hosila struktura tub strukturadan tayanch strukturadagi o'zgarishlar orqali hosil qilinadi².

Jumladan, **poyezd qichqirdi** gapidagi predikat vazifasida kelayotgan **qichqirdi** kesimining kesimlik belgisini yo'qotishi ayni shu predikatga aloqador bo'lgan har qaysi uzvning o'z vazifasini yo'qotishga olib keladi:

Poyezdning qichqirganini eshitdi. (Shuhrat)

Bu yerda dastlabki predikat bilan (**qichqirganini**) munosabatda bo'lgan **poyezd** leksemasi ham o'z funksiyasini yo'qotgan va **poyezdning qichqirganini** shaklida mustahkam jipslashib, gap tarkibida kesim pozitsiyasida kelgan ikkinchi predikat - **eshitdi** leksemasiga nisbatan yaxlit bir gap bo'lagi pozitsiyasida kelishi uchun imkoniyat vujudga keldi. Mazmunij jihatdan **poyezdning** - subyekt, **qichqirganini** - predikat (birinchi propozitsiya), **eshitdi** - predikat (ikkinchi propozitsiya) tarzida tarkibiy qismlar - uzvlarga ajratilsa-da, shakliy tomondan **poyezdning qichqirganini** – to'ldiruvchi pozitsiyasidagi birikma, **eshitdi** – kesim sifatida belgilanadi.

Ko'rinadiki, bunday hollarda shakliy jihatdan sodda gaplar mazmunij jihatdan murakkab ko'rinishga ega bo'ladi: **Endi u boyatdan beri g'ashiga tegayotgan allakimning xurрак otishini ham eshitmas edi** gapidagi birliklarni tarkibiy qismlarga ajratsak, ikki xil bo'linish ko'zga tashlanadi. SHakliy jihatdan bu gap sodda ko'rinishda bo'lib, gapning markaziy elementi bo'lgan **eshitmas edi** kesimi o'ziga hol pozitsiyasida kelgan **endi** va ega pozitsiyasida kelgan **u** leksemalarini hamda **boyatdan beri g'ashiga tegayotgan allakimning xurрак**

¹ Махматқулов С. Ўзбек тилида предикатив синтагманинг трансформацияланиши: Филол. фанлари д-ри ... дис. автореф. – Т., 2004. – Б. 19.

² Яхшибоев Ғ. Ҳозирги ўзбек тилида содда гап синтактик деривацияси: Филол. фанлари номзоди ... дис. автореф. – Самарқанд, 2004. – Б. 10.

otishini to'ldiruvchisini bo'ysundirib kelmoqda. Ushbu gapni mazmuniy uzvlarga ajratsak, u ancha murakkab tuzilishga ega ekanligi ma'lum bo'ladi. Chunki to'ldiruvchi pozitsiyasida kelayotgan propozitiv nomlanish sifatida belgilanayotgan *boyatdan beri g'ashiga tegayotgan allakimning xurрак otishini* jumlasini o'z ichida qator mazmuniy uzvlardan iborat. Chunki dastlabki bosqichda *allakim xurрак otayotgan edi* sodda gapning transformasiyalanishi natijasida *allakimning xurрак otishi g'ashiga tegayotgan edi* shaklidagi sodda gap hosil bo'lgan, ikkinchi bosqichda esa *boyatdan beri g'ashiga tegayotgan allakimning xurрак otishini eshitmas edi* tarzida harakat ifodalovchi fe'l-kesim o'z pozitsiyasini yo'qotdi. Biroq mazmuniy yondashuvda *g'ashiga tegayotgan* va *xurрак otishini* ifodalari predikatlik mavqeyini saqlab qolganligi natijasida so'nggi kesimlik pozitsiyasini yo'qotmagan *eshitmas edi* leksemasi bilan birga, bu gapning uchta predikati mavjudligi anglashiladi.


Berilgan gap asosida uchta sodda gap bo'lib, ular munosabatidan tashkil topgan qo'shma gapning sodda gapga transformasiyasidan yuzaga kelgan. Birinchi va ikkinchi gapning kesimi kesimlik pozitsiyasini yo'qotib, transformatsiyalanishi natijasida *boyatdan beri g'ashiga tegayotgan allakimning xurрак otishini* tarzidagi to'ldiruvchi pozitsiyasidagi propozitiv nomlanish shakllandi:

$$\text{Adj} + \text{Pron} + \boxed{\text{Adj}_{\text{бери}} + \text{N}_{\text{га}} + \text{V}_{\text{ган}} + \text{Pron}_{\text{нинг}} + \text{V}_{\text{ни}}} + \text{Vf}$$


Bu yerda: Adj - ravish, Pron - olmosh, N - ot, V - fe'l va uning shakllari.

Obyekt bildiruvchi ifodaning belgi valentliklarini to'ldirib kelishi bilan hosil bo'lgan propozitiv nomlanishlar sifatdash oborotlar va belgi ifodalovchi leksemalar yordamida yuzaga chiqadi. Jumladan, *Qabriston uzra cho'kkan o'lik sukunatni qor yana ham chuqurlashtirgan* gapidagi kesim pozitsiyasidagi predikat *chuqurlashtirgan* leksemasi bilan obyekt munosabati *qabriston uzra cho'kkan o'lik sukunatni* qurilmasi orqali ifodalangan. Ushbu propozitiv nomlanishning markaziy tayanch nuqtasi bo'lgan *sukunatni* so'zi belgi valentliklarini kuchaytiruvchi so'z shakllari vositasida kengayib, gapda bir

butun holda to'ldiruvchi pozitsiyasini egallagan. Belgi valentliklarini bildiruvchi so'z shakllari umumiy gapning kesim pozitsiyasidagi predikati **chuqurlashtirgan** leksemasi bilan to'g'ridan to'g'ri munosabatga kirisha olmaydi. Ya'ni:



Shuni ham ta'kidlash zarurki, to'ldiruvchi pozitsiyasidagi propozitiv nomlanishning tayanch nuqtasi – **sukunatni** leksemasiga xos belgining ifodalanishi **qabrison uzra cho'kkan sukunatni** yoki **o'lik sukunatni** tarzida ham bo'lishi mumkin. Bunda obyekt anglatuvchi ifodaning belgi valentliklari alohida-alohida holda yuzaga chiqadi. Ya'ni:



Har qanday gap bo'lagi substansional tushuncha ham, konkret moddiy tushuncha ham, sof mazmuniy yoki shakliy tushuncha ham emas, balki sof funksional tushunchadir, ya'ni gap bo'lagi bu pozitsiya tushunchasi demakdir. Pozitsiya va funksiya tushunchalari nisbiy xarakterda bo'lib, muayyan gap bo'lagi vazifasida kelayotgan so'zning o'zida sistemadan tashqarida gap bo'lagining ma'nosi mavjud emas. Gap bo'lagining ma'nosi sistemada namoyon bo'luvchi ma'nodir.

Ko'rinadiki, so'zning kategorial ma'nosi bilan funksional ma'nosini farqlash muhim ahamiyatga ega. Bir necha kategorial ma'noga ega bo'lgan so'z bir butun holda sistema ichida bir funksional ma'noga ega bo'lishi mumkin. Bunday vaqtda bir funksional ma'noga ega bo'lgan bo'lak o'z ichki bo'linish

xususiyatiga ega bo'lsa ham, biroq butun gapga nisbatan yaxlitlik kasb etadi. Bunday xususiyat ayniqsa hollarda ko'p uchraydi. Bir funksional ma'noga ega bo'lib, muayyan pozitsiyasida kelgan, lekin ichki bo'linish xususiyatiga ega bo'lgan nisbiy butunliklarda bir so'z yetakchiligicha qoladi. Ana shunday yetakchi so'z bo'lgan uyushtiruvchi markazni hisobga olganda, hol pozitsiyada kelgan propozitiv nomlanishlarni quyidagicha guruhlash mumkin:

1) ravishdosh oborotli propozitiv nomlanishlar;

2) sifatdosh oborotli propozitiv nomlanishlar;

3) harakat nomi oborotli propozitiv nomlanishlar.


Ravishdosh, sifatdosh va harakat nomi hol pozitsiyasida kelgan propozitiv nomlanishlarning shakliy substansiyasining markazi hisoblanadi. Ular fe'lning funksional shakllari bo'lgani sababli, boshqa so'zlarni boshqarib, grammatik markaz bo'lishi, ayni zamonda, o'zi boshqarib kelayotgan birliklar bilan yaxlit holda ma'lum vaziyatda kelish mumkin. Bunday sintaktik qurilmalar mazmunan sodda gaplarga teng keladi. Sodda gaplar ham, fe'l asosli sintaktik qurilmalar ham bir xil obyektiv mazmunni, bir xil propozitsiyani ifodalaydi va bir xil obyektiv mazmunning ikki xil ifodasi sanaladi. Ular o'rtasidagi farqlanish grammatik va mazmuniy asos bo'lgan fe'lning shakli bilan, umumiy qurilmaning modus ifodalay olish - ifodalay olmasligi bilan belgilanadi.

Professor A.Nurmonovning ta'kidlashicha, ravishdosh, sifatdosh, harakat nomi ishtirokidagi oborotlar deb yuritiluvchi qurilmalar bir butun holda asosiy predikatning argumenti pozitsiyasida - qo'shilma predikat vazifasida keladi. Ko'p predikatli sodda gaplarda argument pozitsiyasida keluvchi predikativlik belgisiga ega bo'lmagan predikatlar ma'lum propozitsiyani ifodalasa ham, ammo gap bo'lib shakllana olmaydi¹.

Jangchilar shu haqda ancha tortishgach, kechki yo'qlamaga duv ko'tarildilar (Shuhrat) gapida ikki propozitsiya bo'lib, ikki obyektiv mazmun ifodalangan: jangchilarning bu haqda tortishganligi va kechki yo'qlamaga duv ko'tarilganligi. Biroq birinchi propozitsiyaning predikati predikativlik shaklini

¹ Махмудов Н., Нурмонов А. ва бошқалар. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. – Т.: Фан, 1992. – Б. 72.

olmay, gap sifatida shakllana olmagan. Bu yerda diktum ifodalansa ham, modus qo‘shilmagan.



Demak, ba’zi gaplarda birdan ortiq predikat ishtirok etish mumkin. Lekin ulardan biri predikativlik shaklini olib, gapni gap qilib shakllantiruvchi asosiy predikat hisoblansa, qolganlari bunday xususiyatga ega bo‘lmaydi va ikkinchi darajali predikatga aylanadi.

Har qanday oborot gap tarkibida ma’lum bir pozitsiyada kelib, bir funksional bo‘lak vazifasini bajaradi. Shu sababli oborot tarkibidagi bo‘laklar faqat oborot ichidagina funksiyalashib, butun gap uchun esa nofunktional¹ hisoblanadi. Gap bir butun sifatida bo‘laklarga ajratilayotganda, oborotlar bir gap bo‘lagi sifatida ajratilishi lozim. Shuningdek, oborotlar o‘z ichki bo‘linish xususiyatini ham saqlab qoladi.

Ravishdosh oborotlarning grammatik va mazmuniy asosini ravishdosh shaklidagi predikat tashkil qiladi. Bunday predikatlar tayanch qism sifatida o‘ziga xos argumentlar bilan kengayib keladi. Kengaytiruvchi argumentlari bilan birgalikda, gap tarikbida bir bo‘lakni hosil qilib, bir sintaktik bo‘lak sifatida – hol pozitsiyasida keladi va natijada hol pozitsiyasidagi propozitiv nomlanishlar yuzaga keladi. propozitiv nomlanishning markaziy nuqtasi bo‘lgan ravishdoshning o‘z valentliklarini argumentlari turlicha a’zolar vositasida to‘ldirib keladi.

Ota jimgina o‘tirib, uning gaplariga quloq soldi (S.Ahmad) gapida hol pozitsiyasida kelgan ravishdosh oborot shakliiy tuzilishiga ko‘ra uch uzvli bo‘lib, hokim qism bo‘lgan ***o‘tirib*** ravishdoshining talabi bilan tobe qismlar sanaluvchi ***ota*** va ***jimgina*** leksemalari muayyan sintaktik pozitsiyani egallaydi. Ushbu qurilma doirasida hokim qismning sintaktik pozitsiyasi o‘z argumentlari bilan birgalikda, asosiy predikatga nisbatan aniqlanadi. Bu yerda ***o‘tirib*** ravishdoshi

¹ Gap b‘laklarining nofunktsional pozitsiyalari haqida karang: Abdusamatov A. Ўзбек тилида gap б‘laklarining noamaliy mavkei: Filol. fanlari nomzodi ... дис. автореф. – Самарканд, 1994. – 23 б.

ikkinchi darajali predikat sanalib, o'z argumentlariga nisbatan hokim, asosiy predikatga nisbatan tobe vaziyatni egallagan.

Ayrim hollarda ravishdosh shaklidagi uyushtiruvchi markaz argumentlari ko'p a'zoli bo'lishi kuzatiladi:

Oqsoqol to tekin nonushta qilib olguncha, eshak ham bir rohat qilmoqchi bo'ldi (S.Ahmad).

N + Adj + Adv + N + V_{гунча} + N + Adj + Vf

Ravishdosh oborotli propositiv nomlanish tarkibidagi tayanch nuqta ***nonushta qilib olguncha*** o'ziga ***oqsoqol*** va ***tekin*** vositalarini ergashtirib kelyapti. Uning argumentlari kesimlik shaklini yo'qotgan predikatning subyekt (***oqsoqol***) va belgi (***tekin***) valentliklarini to'ldirish uchun xizmat qilyapti. Barcha komponentlar yaxlit tarzda hol pozitsiyasida kelyapti. ***Farmonov shafaqrang darpardani shartta ochib, og'aynisiga o'girilib qaradi*** (O.Yoqubov) gapida ***ochib*** uyushtiruvchi markazi ega pozitsiyasidagi ***Farmonov***, to'ldiruvchi pozitsiyasidagi ***shafaqrang darpardani*** (u o'z ichida sifatlovchi Q sifatlanmish tipidagi birikmani tashkil etgan), hol pozitsiyasidagi ***shartta*** argumentlari bilan kengaygan va bu kengayish orqali oborot hosil bo'lgan. Ayrim pozitsiyalar butun gapga emas, balki tayanch nuqta bo'lgan kesimlik shaklini yo'qotgan predikatga nisbatan belgilanadi.

Ravishdosh oborotli propositiv nomlanishlar quyidagi modellar asosida yuzaga chiqadi:

Elmurod birpas o'tirgach, ko'zlarining qisilib ketayotganini sezdi. (SHuhrat)

N + V_{gach}

N + [Adj + V_{гач}] + [N_{нинг} + V_{ганини}] + Vf

Javob qaytguncha, tug'ilgan bolaning chillasi chiqadi. (SHuhrat)

N + V_{guncha}

[N + V_{гунча}] + [V_{ган} + N_{нинг} + Vf]

N + Vi.b.

Uyqu qochib, yana suhbatlashdilar. (SHuhrat)

$$\boxed{N + V_{\text{иб}}} + \boxed{\text{Adj} + V_f}$$

Ba'zi hollarda ravishdosh oborotli qurilmalarning uyushtiruvchi markazi bo'lgan predikatlar kesimlik shaklini to'la yo'qotmaydi, ularda fe'lga xos shaxs va son belgilari saqlanadi:

men kelgunimcha

biz kelgunimizcha

sen kelguningcha

siz kelguningizcha

u kelgunicha

ular kelgunlaricha

Biroq shaxs-son anglatuvchi affikslar berilmasa-da, ifodaning mazmuniga putur etmaydi: *men kelguncha, sen kelguncha...*

Sifatdosh oborotlar ko'pchilik adabiyotlarda mustaqil gaplarning nominalizatsiya ostidagi transformatsiyasidan ¹, ayrim adabiyotlarda esa sifatdoshning o'ziga oid so'zlar kengayib kelishidan ² hosil bo'lgani ta'kidlanadi.

Sifatdosh oborotlar ham ravishdosh oborotlar kabi ma'lum propozitsiya ifodalaydi. Propozitsiyaning predikativ tuzilish orqali ifodalanishi birlamchi ifodalanish bo'lsa, oborotlar orqali ifodalanishi ikkilamchi ifodalanish sanaladi. Shunga ko'ra, bunday qurilmalar ayrim mualliflar tomonidan ikkinchi darajali predikativ tuzilmalar ham deyiladi ³.

Propozitiv nomlanish doirasidagi sifatdoshlar ham fe'lga xos ayrim kategoriyalarni ifodalaydi. Masalan, *Nizomjon ko'zini ochganda, ayvonda hech kim yo'q edi* (S.Ahmad) gapidagi hol pozitsiyasida kelgan *Nizomjon ko'zini ochganda* sintaktik qurilmasining sifatdosh shaklidagi birligi *ko'zini ochganda*

¹ Общее языкознание. Внутренняя структура языка. – М., 1970; Махмудов Н.М. Ўзбек тилидаги содда гапларда семантик-синтактик асимметрия. – Т.: Ўқитувчи, 1984. – Б.106.

² Мирзаев М., Усмонов С., Расулов И. Ўзбек тили. – Т., 1966. – 141 б.; Ўзбек тили грамматикаси. II том. – Т.: Фан, 1976. – 221 б.

³ Долинина И.Б. Системный анализ предложения.- М., 1977. – С. 14; Нурманов А.Н. Проблемы системного исследования синтаксиса узбекского языка. –Т.: Фан, 1982. – С. 152. Махмудов Н.М. Юқоридаги асар. –Б. 95.

fe'lga xos bo'lishli-bo'lishsizlik shaklini (bo'lishli), nisbat kategoriyasini (aniq nisbat) ifodalagan.

N + V_{ганд} + N_{да} + P_{чоп} + йўқ эди

Sifatdosh oborotlarning markaziy qismi bo'lgan sifatdoshning ana shu xususiyatini hisobga olgan holda va sifatdosh shaklidagi ikkinchi darajali predikatning bosh kelishik shaklidagi subyekti mavjud bo'lgan qurilmalarni ayrim mualliflar ergash gaplarning alohida tipi sifatida belgilaydilar¹. Biroq bunday qurilmalar gap uchun xos bo'lgan eng muhim belgi – predikativlik belgisini yo'qotib, gap tarkibida uning bir bo'lagi sifatida funksiyalashishini hisobga olsak, ularning gaplik xususiyatiga ega emasligi aniqlanadi. Ushbu masala yuzasidan I.B.Dolinina fikr yuritib, oborotlarni butun bir gap tarkibida bir yaxlit bo'lak sifatida qatnashishi bilan birga, muayyan ichki tuzilishga ham ega bo'lishni ta'kidlaydi².

Aftidan, bu gaplarni yaxshi ilg'ab ololmagan Zokirov bir-ikki marta hazil-mutoyiba qilib ko'rdi. (O.Yoqubov)

Berilgan gapda ikki propositsiya mavjud. Birinchisi, *Zokirov bu gaplarni yaxshi ilg'ab ololmagan*, ikkinchisi, *Zokirov bir-ikki marta hazil-mutoyiba qilib ko'rdi*. Ushbu propositsiyalarning birinchisi predikativ qurilma orqali emas, balki nopredikativ qurilma orqali ifodalangan. Bu qurilma nominalizasiya yo'li bilan transformatsiyalanib, gapda bir gap bo'lagi sifatida funksiyalashgan. Ya'ni:

A , + P_{ron} + N_{ни} + Adj + V_{гн} + N + Adj + V_f

Bu yerda: A - modal so'z

Bunday qurilmalar yuzaki qaraganda, ega Q kesim munosabatidek ko'rinsa-da, bosh kelishik shaklidagi subyekt va ikkinchi darajali predikat munosabati nominalizatsiyalashgan bo'lakning ichki bo'linishidir. Bunday bo'laklar ichki tuzilishga ko'ra xilma-xil bo'lsada, butun gap tuzilishida faqat

¹ Бу ҳақда тўла маълумот учун қarang: Маҳмудов Н. Ўша асар. – Б. 101.

² Долинина И.Б. Ўша асар. – Б. 17.

bitta pozitsiyada funksiyalashadi. Keltirilgan gapdagi propozitiv nomlanish ega pozitsiyasini egallagan.

Gapda ko‘pincha ikki va undan ortiq propozitsiya ifodalanishi mumkin. Har qaysi propozitsiyaning markaziy elementi predikat hisoblanadi. Predikatlar ishtirokiga ko‘ra gaplar mazmuniy jihatdan bir predikatli va ko‘p predikatli gaplarga bo‘linadi. Ko‘p predikatli gaplarda predikatlarning kesimlik shakliga ega bo‘lish-bo‘lmasligi qo‘shma gaplarni belgilashda katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Agar predikatlarning barchasi kesimlik shakliga ega bo‘lsa, qo‘shma gap; predikatlardan bittasi kesimlik shakliga ega bo‘lsa, sodda gap sanaladi. Kesimlik shaklini olmagan predikatlar gapda kesim bo‘lib kela olmasa ham, lekin propozitsiya ifodalash imkoniyatini saqlab qoladi. Shuning uchun ham mazmuniy va grammatik markaz sifatida «bo‘sh o‘rin»larga ega bo‘ladi va bu «bo‘sh o‘rin»larni to‘ldirish imkoniyati mavjud bo‘ladi. Ana shu bo‘sh o‘rinlarni to‘ldirish natijasida predikatni ifodalovchi so‘z kengayadi. Shunga ko‘ra, bu kengaygan predikatli birikma asosiy gapning kesimi bilan sintagmatik tobe munosabatga kirishadi va unga nisbatan bitta sintaktik pozitsiyani egallaydi.

Xolmurod ochiq turgan maktab eshigini berkitishga borganda, ichkaridan ovozlari eshitildi (P.Tursun).


Yuqoridagi misolda ***borganda*** sifatDOSHI predikat ifodalab, bir necha «bo‘sh o‘rin»larga, valentliklarga ega. Xususan, maqsad (instrumentalis), agens valentliklariga ega bo‘lib, bu valentliklarni to‘ldiruvchi vazifasida kelgan ***berkitishga, ochiq turgan maktab eshigini***, ega vazifasida kelgan ***Xolmurod*** leksemalari to‘ldiradi. Lekin predikat valentliklarini to‘ldirgan bu leksemalarning sintaktik vazifalari butun gap uchun emas, balki shu predikat asos bo‘lgan birikma doirasida amal qiladi. Instrumentalis valentligini to‘ldirgan ***ochiq turgan maktab eshigini*** birikmasining o‘zi yana ichki bo‘linishlarga ega bo‘ladi: ***maktab, ochiq turgan*** leksemalarining sintaktik vazifasi umumiy gap

uchun ham, predikatli birikma uchun ham aloqador bo'lmay, instrumentalis a'zoning belgisini ifodalash uchun qo'llanilgan bo'lakning bo'lagi sanaladi.

Bundan ko'rinadiki, har qanday aniqllovchi gapning emas, bo'lakning bo'lagi maqomiga ega bo'ladi: Bu gapda:

N + V_{ган} + N(нинг) + N_{ни} + V_{га} + V_{ганда} + Adj + N + V_ф

Bu gapni «shajara daraxti» orqali shunday ifodalash mumkin:



Sifatdosh oborotli propozitiv nomlanishlar quyidagi shakllar vositasida gapda hol pozitsiyasini egallaydi: **-ganda; -ganidan; -gani sayin; -gani uchun:**

Rasul nechundir o'ng'aysizlanganidan, nigohini chetga olardi.
(O.Yoqubov)

Farmonov endi ketmoqchi bo'lib turganida yordamchi telefon qilib qoldi. (O.Yoqubov)

Yerni go'zal qilgani sayin go'zal bo'lar o'zi ham inson. (E.Vohidov)

Harakat nomi oborotlarining markazi harakat nomi shaklidagi predikat sanaladi. Harakat nomi oborotlari ham muayyan sodda gaplarning nominalizasiya yo'li bilan transformatsiyasidan hosil bo'lgan. Ular mazmunan

ma'lum propozitsiya ifodallasada, lekin grammatik jihatdan gaplik xususiyatini yo'qotgan.

Ma'lum propozitsiya gap shaklida ham nominallashgan bo'lak shaklida ham ifodalanishi mumkin. Gap shaklidan nominallashgan bo'lak shakliga transformatsiya qilinganda, gapning predikativ shaklini olgan bo'lagi harakat nomi shakli bilan, bosh kelishikda kelgan subyektni ifodalab qaratqich shakli bilan almashtiriladi. Bu bilan sintaktik qurilmada gapdan ifodalangan propozitsiya saqlab qolinadi, biroq kesimlik belgisi yo'qoladi. Masalan:

Uning uyquda allanimalarni aytib g'udranishlaridan Mehriniso ancha qiynalgan. (O.Yoqubov)


Jufti-halolining og'irini yengil qilish uchun shovvozning o'zi nima qilibdi! (O.Yoqubov)

Dastlabki gapda harakat nomi oborotli propozitiv nomlanish hol pozitsiyasida (sabab) kelgan. Transformatsiya natijasida sodda gap (u uyquda allanimalarni aytib g'udranardi)ning egasi qaratqich, kesimi qaralmish shaklini olgan. Uyushtiruvchi markaz bo'lgan harakat nomi fe'l shakli bo'lgani sababli, o'ziga boshqa (***u, uyquda, allanimalarni***) leksemalarni tobelantirib, ular bilan yaxlit holda, sabab holi vazifasida funksiyalashyapti. Bu sintaktik qurilma umumiy gapning faqat bitta pozitsiyasini egallab, ega pozitsiyasidagi ***Mehriniso***, tarz holi pozitsiyasidagi ***ancha*** leksemalari qatori ***qiynalgan*** predikatining argumenti sifatida namoyon bo'lmoqda:


$$\boxed{\text{Pron} + \text{N}_{\text{да}} + \text{Pron}_{\text{ни}} + \text{V}_{\text{иб}} + \text{V}_{\text{дан}}} + \text{N} + \text{Adj} + \text{V}_f$$

Ikkinchi gapdagi propozitiv nomlanish ***jufti halolining og'irini yengil qilish uchun*** sintaktik qurilmasi esa gapda maqsad holi pozitsiyasida kelyapti.


Ushbu gapning markaziy nuqtasi sanalgan kesim (*nima qilibdi*) ikki murakkab qurilmani yaxlit holda o'ziga ergashtirib kelyapti:



Propozitiv nomlanish tarkibidagi birliklar ayri-ayri holda emas, yaxlit holda mazmun anglatishini e'tiborga olib, ularning tayanch nuqtaga bog'lanishini shunday belgilash mumkin:



Behzod eshikdan kirib kelishi bilan kampir unga yosh boladay ko'zlari mo'ltirab qarardi (O.Yoqubov) gapida esa *qarardi* predikati bir necha argumentlarni o'ziga ergashtirib kelyapti: *Behzod eshikdan kirib kelishi bilan; kampir; unga; yosh boladay ko'zlari mo'ltirab*. Bular orasida hol pozitsiyasida kelgan sintaktik qurilma sifatida *Behzod eshikdan kirib kelishi bilan* va *yosh boladay ko'zlari mo'ltirab* ifodalarini keltirish mumkin. Ravishdosh oborotli propozitiv nomlanish bo'lgan ikkinchi qurilma tarz holi pozitsiyasida, harakat nomi oborotli birikma esa payt holi pozitsiyasini egallagan. Ya'ni:



Ko'rinadiki, hol pozitsiyasida keluvchi harakat nomi oborotli propozitiv nomlanishlar quyidagi modellar orqali shakllanadi:

Nning + Vishidan

Nning + Vish uchun

N + Vishi bilan

Hol pozitsiyasida keluvchi propozitiv nomlanishlar ravishdosh, sifatdosh va harakat nomi oborotlari orqali shakllanganida, sodda gaplar kesimining transformatsiyalanishi natijasida vujudga kelgani sababli, aksar hollarda ular tuzilishiga ko'ra ko'p uzvli bo'ladi. Jumladan:

Qudratli qutquga berolmasdan tob,

G'ildirak ostida qolib ketadi. (A.Oripov)

Berilgan gapda ravishdosh shaklidagi propozitsiya ifodalovchi ***berolmasdan tob*** birligi fe'ning bo'lishsiz shakli bilan yuzaga chiqyapti. U o'ziga garchi to'ldiruvchi pozitsiyasidagi ***qudratli qutquga*** birikmasini ergashtirib kelayotgan bo'lsa-da, ushbu birikma o'z ichida ikki uzvdan tashkil topgan. Bu uzvlar bir-biri bilan sifatlovchi Q sifatlanmish tipida bog'lanyapti. Chunki birikmaning asosi sanalgan ***qutquga*** leksemasi predmet ma'noli bo'lib, predmetning belgi valentligi qudratli leksemasi orqali to'ldirilyapti. Bu birikma a'zolari yaxlit holda kesimlik shaklini yo'qotgan predikatga bog'lanib, uning argumenti sifatida, ayni zamonda, propozitiv nomlanishning uyushtiruvchi markazi o'z argumenti bilan birga, umumiy gapga nisbatan hol pozitsiyasida kilyapti. Ya'ni:



Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, fe’l asosli propozitiv nomlanishlarni ichki tuzilishiga ko‘ra shakliy jihatdan quyidagicha guruhlash mumkin:

ega uzvli: ular ot, olmosh, son kabi turkumlar bilan ifodalanadi;

to‘ldiruvchi uzvli: ot, olmosh, son, fe’l shakllari bilan ifodalanadi;

aniqlovchi uzvli: sifat, ot, son bilan ifodalanadi;

hol uzvli: ravishning turlari orqali ifodalanadi.

Fe’l predikatli propozitiv nomlanishlarning ichki mazmuniy bo‘linishi

Bugungi kunda tilshunoslikda fe’llarning mazmuniy tasnifida umumiy talqin mavjud emas. Fe’llar turlicha tamoyillar asosida guruhlanadi¹. Invariant ma’no asosida tasnif qilinganda pragmatik aspekt e’tiborga olinadi, ya’ni: faoliyat, holat, xususiyat, munosabat va boshqalar.

Umumiy holda fe’l uchun xos bo‘lgan invariant mazmun harakat bo‘lib, fe’l predikatli propozitiv nomlanishning uyushtiruvchi markazi ham shu umumiy mazmun asosida birlashadi. Shunga ko‘ra, fe’l predikatli propozitiv nomlanishlarni mazmuniy jihatdan tahlil etishda qurilmaning uyushtiruvchi markazi emas, uning kengaytiruvchi uzvlari alohida e’tiborga olinishi ma’qulroq. Ya’ni:

- **miqdor uzvli propozitiv nomlanishlar;**
- **belgi uzvli propozitiv nomlanishlar;**
- **predmet uzvli propozitiv nomlanishlar;**

¹ Бу хусусда батафсилроқ маълумот учун қаранг: Нурмонов А., Маҳмудов Н., Аҳмедов А., Солихўжаева С. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. – Т.: Фан, 1992. – Б. 51.

- o‘rin uzvli propozitiv nomlanishlar;

- payt uzvli propozitiv nomlanishlar va boshqalar.

Miqdor uzvli propozitiv nomlanishlar son va olmosh turkumidagi leksemalar vositasida shakllanadi, bunda birinchi miqdor anglatuvchi uzv ikkinchi uzvning miqdor valentligini yuzaga chiqaradi. Bunday uzvlar bir umumlashtiruvchi ma’no – miqdor ma’nosi ostida birlashadi, ayni zamonda, har qaysi uzv o‘ziga xos bo‘lgan xususiy sememalarini ham saqlab qoladi. Natijada har qaysi miqdor uzvida umumiylik va xususiylik ziddiyati ko‘zga tashlanadi.

Miqdor uzvli propozitiv nomlanishlarning miqdor uzvi bir qancha substansional shakl va ma’nolardan tashkil topadi. Bu substansional shakl va ma’nolar bir invariant shakl va ma’noning turli variantlari hisoblanadi. Ushbu invariant shakl va ma’no bir butunligi funksional shakl va funksional ma’noni tashkil etadi. Berilgan gaplarda ham miqdor anglatuvchi funksional shakllar miqdorga ega bo‘lgan predmet bildiruvchi so‘z shakllari bilan sintagmatik munosabatga kirishgan va har ikki uzvlar bir butunlikni tashkil qilgan holda gapning sintaktik tuzilishida bir sintaktik pozitsiyani egallaydi. Ega pozitsiyasidagi propozitiv nomlanishlarning uyushtiruvchi markazi predmet sanaladi. Shu predmetga ergashib, uning valentliklarini to‘ldirish uchun xizmat qiluvchi vositalar propozitiv nomlanish hosil qiladi. Ma’lumki, har qanday predmet miqdor, belgi, o‘rin, payt singari valentliklarga egadir. Ega pozitsiyasida kelgan propozitiv nomlanishning xususiyatlarini to‘laroq ochish uchun tayanch so‘z bo‘lgan predmetning valentlik xususiyatiga asoslanish mumkin.

Ko‘p yig‘laganidan Mavluda ancha o‘zini oldirib qo‘ygandi (T.Malik).

Ushbu gapda ***ko‘p yig‘laganidan, Mavluda, ancha*** birliklari ***o‘zini oldirib qo‘ygandi*** predikatiga bog‘lanib, uning valentliklarini to‘ldirib kelmoqda va gap kesimi (o‘zini oldirib qo‘ygandi)ga nisbatan hol (ko‘p yig‘laganidan), ega (Mavluda), hol (ancha) pozitsiyalarida funksiyalashmoqda ***Mavluda, ancha***

leksemalari singari **ko‘p yig‘laganidan** qurilmasi ham bitta pozitsiyada bo‘lib, u o‘z ichida ichki bog‘lanishlarga ega. propozitiv nomlanishning uyushtiruvchi markazi bo‘lgan **yig‘laganidan** leksemasi **ko‘p** miqdor uzvini tobelantirmoqda:



Ya’ni:

quan + p +s + quan + s + Pv

Bu yerda: quan - miqdor; p - kesimlik shaklini yo‘qotgan predikat; s - subyekt; Pv - kesimlik shakliga ega bo‘lgan predikat.

Ushbu gapni quyidagi «shajara daraxti» orqali ifoda etish mumkin:



Berilgan qurilma tarkibidagi miqdor uzv noaniq miqdorni anglatish uchun xizmat qilmoqda.

O‘zbek tilida bir qator miqdor bildiruvchi so‘zlar borki, ular predmet yoki harakatning miqdor valentligini to‘ldirib, ularning argumenti bo‘lib keladi. Miqdor valentligi obyektiv borliqdagi narsalarning miqdorini aks ettiradi va shunga muvofiq, umumiy yoki xususiy miqdor bildirishga ko‘ra o‘zaro farqlanadi. Miqdorning bu ikki turi miqdor valentligini to‘ldirib keluvchi leksik birliklarning o‘ziga xos jihatlari bilan bir-biridan farqlanib turadi. Shu sababli ham miqdor valentligini qanday so‘zlar to‘ldirib kelishi muhim.

Miqdor uzvlar uchun aniqlik va noaniqlik belgisi ajratiladi. Bunday belgi uchun miqdor uzvlarining substansional tomoni e’tiborga olinadi.

Funksional shakl va funksional ma'no substansional shakllar va substansional ma'nolar munosabatidan iborat bo'ladi. Miqdor bildiruvchi funksional shakl miqdorga ega bo'lgan predmet yoki harakat bildiruvchi so'z shakli bilan sintagmatik munosabatga kirishadi. Bu ikki uzv bir butunlikni tashkil qilgan holda gapning sintaktik tuzilishida bir vaziyatni egallaydi. SHu sababli ham miqdor uzvli propozitiv nomlanishlar gap tuzilishida bir sintaktik shakl bo'lib keladi. Miqdor uzvi esa gap tuzilishiga nisbatan hech qanday funksiya bajarmaydi. Uning funksiyasi faqat propozitiv nomlanish tuzilishiga daxldor bo'ladi.

Yuqoridagi gapda ham *ko'p* miqdor uzvi *yig'laganidan* fe'l shakli uchun tegishli bo'lib, uning argumenti sifatida yuzaga chiqyapti. *Ko'p* leksemasi butun gap uchun muayyan pozitsiya bajarmay, uyushtiruvchi markaz bo'lgan *yig'laganidan* leksemasining kengaytiruvchisi vazifasini bajarmoqda. Ikki leksema yaxlit holda predikatning bo'sh o'rinlaridan biri – miqdor valentligini to'ldirish funksiyasini amalga oshiryapti.

Post boshlig'i karvonni boshqarib borayotgan kapitandan meni medsanbatga olib borishni iltimos qildi. (O'.Hoshimov)


Ushbu gap tarkibidagi propozitiv nomlanish fe'l bilan berilib, kesimning kesimlik shaklini yo'qotishi natijasida vujudga kelgan. Shunga ko'ra, sifatdosh ma'lum darajada kengaygan va o'zi boshqarib kelayotgan bo'lak *karvonni* leksemasi bilan birga *kapitandan* uyushtiruvchi markazi bo'layotgan leksemaning belgisini anglatuvchi bir necha a'zoli uzvga teng bo'lib qolgan. Predikatning obyekt valentligini to'ldirish uchun *kapitandan* a'zosi o'zidan oldingi belgi anglatuvchi uzvlar bilan birga yaxlit funksiya bajaryapti. Gap tarkibida esa uchta predikat mavjud bo'lib, ulardan faqat bittasi kesimlik pozitsiyasini saqlab qolgan:

boshqarib borayotgan - birinchi predikat

olib borishni - ikkinchi predikat

iltimos qildi - uchinchi predikat

Gapda kesimlik pozitsiyasini saqlagan bo‘lak bilan uning (predikatning) argumentlari o‘rtasidagi bog‘lanishga e‘tibor qilaylik:



Ya'ni:

$$s + s + [s + p + s] + s + \text{lok} + p + Pv$$

Bunda: s - subyekt,
 p-predikat, lok - o‘rin.

Obyektiv borliqdagi har qanday predmet turlicha belgilarga ega bo‘ladi, ya’ni har qanday ot belgi valentligiga egadir. Ushbu valentlikning to‘ldirilishi belgi uzvli propozitiv nomlanishni hosil qiladi.

Belgi uzvli propozitiv nomlanishlarning belgi uzvi shakl va ma’no munosabati birligidan tashkil topgan. Shakl tomoni substansional shakl va funksional shakldan iborat bo‘lib, substansional shakl belgi uzvining moddiy asosi, funksional shakl bu uzvning funksiyasini qamraydi. Bir necha substansional shakl bitta funksional shaklga teng bo‘lishi ham mumkin. Biroq


ushbu bir necha substansional shakllardan bittasi funksional shakl uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Belgi uzvining substansional shakli fe'l bo'lgan propozitiv nomlanishlar tarkibi fe'l valentliklarini to'ldiruvchi aktantlar orqali kengayishi o'zbek tilida ko'p uchraydi.

Toshkentdan kelgan xodimlar yuzlab joyga portlatgich moddalarini o'rnatishgan edi (S.Ahmad)

Guvala devorlarga tirsagini qo'ygan olma shoxlarini qisirlatadi (S.Ahmad)

Birinchi gapda kelgan fe'l shakli o'rin valentligini yuzaga chiqarib, chiqish kelishigidagi ot orqali kengaygan bo'lsa, ikkinchi gapda ***qo'ygan*** fe'l shakli jo'nalish kelishigi shaklidagi ***guvala devorlarga*** hamda tushum kelishigi shaklidagi ***tirsagini*** ifodasi bilan murakkab qurilmali propozitiv nomlanish hosil qilgan.



Ushbu gaplar quyidagi mazmuniy uzvlardan tashkil topgan:

lok + p + s + quan + lok + Ak + s + Pv

Bunda: Ak – belgi,

quan – miqdor,

lok – o'rin

Ak + lok + s + p + s + s + pV

Belgi uzvli propozitiv nomlanishlar tarkibidagi belgi uzvi qator variant shakllar vositasida namoyon bo'luvchi invariant shaklga ega bo'lish bilan birga,

qator variant ma'nolar orqali yuzaga chiqadigan va har bir variant ma'noda takrorlanish xususiyatiga ega bo'lgan invariant ma'noga ham ega. Jumladan, rang (oppoq qor, yam-yashil dala), maza (bemaza qovun, achchiq sho'rva), hajm (mo'jiz uy, katta darvoza), aqliy belgi (bilimdon o'quvchi, dono ayol), husn belgisi (xushro'y ayol, badbashara odam) ifodalovchi leksik-semantik variantlarning hammasida belgi semasi mavjud bo'lib, ushbu belgi birlashtiruvchi sema vazifasini bajaradi.

Propozitiv nomlanishlarning uyushtiruvchi markazi predmet bildiruvchi leksemalar bo'lganda, predmet anglatuvchi leksema boshqa predmetni anglatuvchi so'z bilan qarashlilik munosabatiga kirishadi.

Predmet uzvli propozitiv nomlar borliqdagi o'zaro qarashlilik munosabatida bo'lgan predmetlarning ong orqali tilda ifodalanishi natijasida maydonga keladi. Qarashlilik munosabati borliqdagi muayyan narsa-hodisaning boshqa narsa va hodisaga qarashli ekanligini ko'rsatadi. Qarashlilik munosabatida qaratuvchi va qaralmish qismlari mavjud bo'lib, ular borliqdagi predmetlarning ongda aks etgan obyektiv munosabatini namoyon qiladi. Qarashlilik munosabatini ifodalovchi propozitiv nomlanishlarning qaratuvchi uzvi shakl va ma'no birligidan iboratdir. Qaratuvchi uzvning substansional shakli turlicha bo'lishi kuzatiladi.

Predmet uzvli propozitiv nomlanishlar, odatda, qaratuvchi funksiyasini bajaradi. Qarashlilik munosabati doimo ikki qismning mavjud bo'lishini taqozo etadi: qaratuvchi predmet va qaralmish. Biroq bunday tuzilish qarashlilikni anglatuvchi propozitiv nomlanishning ichki tuzilishi bo'lib, butun gap qurilmasi uchun har ikki qism bir butun holda funksiyalashadi.

Boshqa a'zoli propozitiv nomlanishlar uzvlari singari, predmet uzvlari ham substansional va funksional ma'nolar birligidan tashkil topadi. Funksional ma'no mazmuniy maydonga¹ asos bo'lgan birlashtiruvchi arxisema bo'lib, qator substansional ma'nolar vositasida namoyon bo'ladi. Bunday ma'noning yuzaga

¹ Мазмуний майдон хусусида тўлароқ маълумот учун қаранг: Искандарова Ш.М. Ўзбек тили лексикасини мазмуний майдон сифатида ўрганиш (шахс микромайдони). Филол. фанлари д-ри. .. дис. автореф. – Т., 1999. – 61 б.

chiqishida muayyan farqlovchi (differensial) semalar zidlik munosabatini anglatish uchun xizmat qiladi.

Nima haqqing bor birovning to'yini buzishga! (O'.Hoshimov)

misolida ***birovning to'yini buzishga*** propozitiv nomlanish bo'lib, bu yerda fe'l-kesim transformatsiyalanishi natijasida o'zidan oldingi leksemalarni ergashitirib, yaxlit holda kesimlik shaklini saqlagan predikatning argumenti sifatida bitta pozitsiya - to'ldiruvchi funksiyasini bajaryapti. Birinchi uzv (***birovning***) keyingi uzvning egasi substansional ma'nosida bo'lib, o'zidan keyingi uzv bo'lgan ***to'yini*** qaralmishining qaratuvchisi sifatida ***buzishga*** fe'l shakliga bo'ysunib kelyapti va ayni zamonda ko'p uzvli propozitiv nomlanish to'ldiruvchi vazifasini bajarmoqda. ***Birovning*** leksemasining pozitsiyasi ***to'yini*** so'ziga nisbatan, ***birovning to'yini*** ifodasining pozitsiyasi ham ***buzishga*** leksemasiga nisbatan belgilanadi, ularning pozitsiyasi butun gap uchun emas, balki o'zlari boshqarayotgan uzvlar uchun tegishli tarzda amal qiladi:




Kapitanning shubha bilan chaqchayib turgan ko'ziga ko'zi tushdi
(O'.Hoshimov)

Ushbu misolda faqat ikkita sintaktik pozitsiya mavjud. Dastlabki pozitsiya to'ldiruvchi pozitsiyasi sanalib, u sifatdash oborotli qurilma sifatida o'z kengaytiruvchilariga ega: ***shubha bilan chaqchayib turgan***. Ayni zamonda, uyushtiruvchi markaz bo'lgan ***ko'ziga*** leksemasi ***kapitanning*** qaratuvchisi uchun qaralmish funksiyasida kelib, boshqa barcha a'zolari bilan birgalikda predikatning argumenti hisoblanadi. ***Kapitanning*** qaratuvchi a'zosi esa ***ko'ziga*** qaralmishiga nisbatan ***shubha bilan chaqchayib turgan*** sifatdash oboroti bilan teng pozitsiyani egallaydi:



Sifatdosh oborot esa *ko'ziga* leksemasi (sifatlanmishi)ning sifatlovchisi bo'lyapti.



Ushbu gap mazmuniy jihatdan quyidagi uzvlardan iborat:

$$[s + Ak + P + s] + PV$$

Qaratuvchi uzvi qaratuvchilik arxisemasi asosidagi funksional ma'noga ega bo'lsa ham, bu funksional ma'no qator substansional ma'nolar orqali namoyon bo'ladi. Ushbu substansional semalar orasida muayyan predmet yoki belgining egasi bo'lgan predmetlik ma'nosi funksional ma'no uchun ko'proq xoslangan bo'ladi.


Ayrim hollarda qaratuvchi sifatlovchi bilan kengayib kelishi, natijada propozitiv nomlanishning uyushtiruvchi markazi bo'lgan predmetning valentliklari yanada reallashishi, ayni paytda, propozitiv nomlanish birmuncha murakkab qurilma sifatida belgilanishi mumkin.

O'rin uzvli propozitiv nomlanishlar predmetning o'rin belgisini reallashtirishi bilan xarakterlanadi.

Garchi o'rin uzvning substansional ma'nosi o'rin arxisemasi bilan umumiylikni hosil qilsa ham, u qator semalarni o'z ichida jamlaydi: harakatning

bajarilish, chiqish yoki yo‘nalish o‘rinlari kabi. Ana shu substansional ma’nolar turlicha substansional shakllar orqali namoyon bo‘ladi.

Bunday propozitiv nomlanishlar predikativ shakldagi predikatning nopredikativ shaklga transformatsiyalanishi orqali ham vujudga keladi. Dastlabki predikatning argumentlari uning o‘zi bilan birgalikda, yaxlit holda butunlik bo‘lib, butun bir gapning yagona uzvi sifatida namoyon bo‘ladi va gap tuzilishida bir sintaktik vaziyatni egallaydi.




Adj + V_{ган} + Adv + V_{иш} + N_{ни} + V_f




N_{дан} + V_{ган} + N + N_{дан} + N(нинг) + N_{ни} + V_f

Behi shoxida mudrayotgan tovuq qanotini bir patillatib, jim bo‘ldi (S.Ahmad)



Cho‘lga ketgan odamlar endigina qaytishibdi (S.Ahmad)



Zirrillama guzaridagi katta qayrag'och shoxiga ilingan radiokarnay kuniga to'rt mahal eshittirish beradi (S.Ahmad)

$\overline{N + N_{\text{даги}} + AdV + N(\text{нинг}) + N_{\text{га}} + V_{\text{ган}} + N + N_{\text{га}} + C + V_f}$

Dastlabki misolda ***ichidan xo'rsinish keldi*** tipidagi predikativ ifodaning kesimi transformatsiyaga uchrashi natijasida ***ichidan kelgan xo'rsinish*** tarzidagi sifatdash oborotli birikma ega pozitsiyasida kelyapti va sifatlovchi Q sifatlanmish tipidagi propozitiv nomlanish hosil bo'lyapti. Garchi ushbu ifoda sifatlovchisining o'rin uzvi bilan valentligi reallashayotgan bo'lsa-da, uning mavqeyi sifatlanmishning belgisini aniqlash bilan xarakterlanadi. SHunga ko'ra, bunday propozitiv nomlanishlar belgi uzvli propozitiv nomlanishga yaqinlashib qoladi:

$\boxed{\text{Lok} + P + \text{Ak} + P} + s + P_v$

Birinchi va ikkinchi gap tarkibidagi o'rin uzvning substansional ma'nosi harakatning chiqish o'rnini anglatib (***ichidan, qishloqdan***), ushbu substansional ma'no ***-dan*** substansional shakli orqali namoyon bo'lyapti.

$\boxed{\text{lok} + P + s} + \text{lok} + \boxed{s + s} + P_v$

Uchinchi misolda ***behi shoxida mudrayotgan tovuq*** ifodasi ega pozitsiyasida kelmoqda:

$\boxed{N(\text{нинг}) + N_{\text{да}} + V_{\text{ган}} + V_{\text{бк}}} \quad \downarrow \quad P_v f$

O'rin uzvining substansional ma'nosi harakatning bajarilish o'rnini bildirib, bu ma'no o'rin kelishigi affiksi vositasida yuzaga chiqyapti. Bunday

substansional ma'no o'rin arxisemasi doirasida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ayni shu substansional ma'no vositasida o'ringa munosabat anglatuvchi belgi (sifat) shakllanadi. Ya'ni:

ҚИШЛОҚДА ЯШАЙДИГАН ТЕНГДОШИМ ↔ ҚИШЛОҚДАГИ ТЕНГДОШИМ

БЕҲИ ШОҲИДА МУДРАЁТТАН ТОВУҚ ↔ БЕҲИ ШОҲИДАГИ ТОВУҚ

To'rtinchi gapda transformatsiyaga uchragan *ketgan* predikati (sifatdosh)ga bog'langan leksema o'rin arxisemasi doirasidagi harakatning yo'nalish o'rni substansional ma'nosini ifoda etyapti, bu ma'noning namoyon bo'lishida **-ga** jo'nalish kelishigi affiksi xizmat qilgan.

Yuqoridagi berilgan gaplar asosida o'rin arxisemasi bilan umumlashgan substansional ma'noning harakatning chiqish, bajarilish hamda yo'nalish o'rinlari bilan reallashuvchi xususiy ko'rinishlari namoyon bo'lgan.

So'nggi gapda ega pozitsiyasida keluvchi propozitiv nomlanishning uyushtiruvchi markazi bo'lgan predmet (*radiokarnay*) o'ziga ergashib, uning valentliklarini to'ldirish uchun xizmat qiluvchi qator vositalar orqali kengaygan. Ushbu sintaktik qurilma tuzilishidagi aloqadorlikka e'tibor qilaylik:

Zirillama guzaridagi katta qayrag'och

katta qayrag'och shoxiga ilingan radiokarnay

Dastlabki munosabat ***qayrag'och*** leksemasining o'rin (***zirillama guzaridagi***) hamda hajm belgisi (***katta***) valentliklarini to'ldirgan argumentlar orqali shakllangan bo'lsa, keyingi aloqadorlik ***radiokarnay*** leksemasining bo'sh o'rinlarini to'ldiruvchi argument va shu argumentga bog'langan vositalar bilan namoyon bo'lmoqda:


N + Ndagi + Adv + N(ning)

N + Ndagi + Adv + Nning + Nga + Vgan + N

Bu yerda *radiokarnay* sifatlanmishining sifatlovchisi sifatdosh oborot asosida shakllanyapti. Ushbu qurilma tarkibida argumentning argumenti pozitsiyasidagi *Zirillama guzaridagi* ifodasi bilan birga, yoʻnalish oʻrnini anglatuvchi substansional maʼnoli *shoxiga (qayragʻoch shoxiga)* ifodasi ham mavjud boʻlib, ayni shu oʻrin uzvli birliklar propozitiv nomlanishning tayanch nuqtasi boʻlgan predmet valentliklarini toʻldirish vazifasini oʻtaydi:

$$\boxed{\text{Lok} + \text{Ak} + \text{s} + \text{s} + \text{P} + \text{s}} + \text{Temp} + \text{quan} + \text{PV}$$

Oʻrin uzvi ham koʻp hollarda harakat anglatuvchi birliklarga ergashib, uning bajarilish oʻrni, chiqish yoki yoʻnalish nuqtasini ifoda etgani sababli, toʻldiruvchi vaziyatida keluvchi predmetga bogʻlanib kelayotgan tobe vositalar orasida oʻrin bildiruvchi aʼzolarning mavjud ekanligi tabiiy. Jumladan, *Chekkada oʻtirgan bir jangchi sovgʻa ichidan chiqqan xatni oʻqishga tutindi* (Shuhrat) gapida ikki propozitiv nomlanish mavjud: ega pozitsiyasidagi *chekkada oʻtirgan bir jangchi* va toʻldiruvchi pozitsiyasidagi *sovgʻa ichidan chiqqan xatni*. Ularning ikkisida ham propozitsiya ifodalovchi predikatlar - *oʻtirgan* va *chiqqan* leksemalari transformatsiyaga uchragan hamda oʻziga ergashib keluvchi kengaytiruvchilari bilan birgalikda gap tuzilishining uzvi sifatida kelgan. *Chekkada* soʻzining substansional maʼnosi harakatning bajarilish oʻrni boʻlsa, *sovgʻa ichidan* birikmasining substansional maʼnosi chiqish oʻrni sifatida xususiy semalariga ega.



Demak, to'ldiruvchi pozitsiyasida keluvchi sintaktik qurilma bir necha kengaytiruvchilariga ega bo'lib, obyektning belgi valentligini to'ldiruvchi sifatdashning o'rin anglatuvchi uzvi ham qaratuvchi Q qaralmish tipida shakllangan.

$$\boxed{\text{lok} + P + s} + \boxed{\text{lok} + P + s} + PV$$

Bu yerda ega va to'ldiruvchi pozitsiyasida kelgan propozitiv nomlanish quyidagi mazmuniy uzvlardan tashkil topgan:


ega pozitsiyasidagi propozitiv nomlanish:

lok + p + s - chekkada o'tirgan bir jangchi

to'ldiruvchi pozitsiyasidagi propozitiv nomlanish:


lok + p + s - sovg'a(ning) ichidan chiqqan xatni

To'ldiruvchi pozitsiyasidagi o'rin uzvli transformalar qatnashgan gaplar substansional shakl jihatidan quyidagi modellar bilan ko'rsatilishi mumkin:



U Nasibani ergashtirib ariq ustiga o'rnatilgan taxta «yakka cho'p»dan olib o'tdi (O'.Hoshimov) gapida *ariq ustiga o'rnatilgan taxta «yakka cho'p»dan* to'ldiruvchi pozitsiyasidagi propozitiv nomlanish bo'lib, o'z doirasida bir necha uzvlarni jamlagan. Sintaktik qurilmaning uyushtiruvchi markazi *«yakka cho'p»dan* ifodasi sanalib, o'ziga ham sifatdash oborotni, ham ot turkumidagi leksemani ergashtirib kelgan. Sifatdash kesimning transformatsiyalanish mahsuli bo'lgani sababli, o'rin bildiruvchi uzv orqali kengaygan. O'rin uzvining o'zi ham qaratuvchi Q qaralmish tipida kelib,


harakatning yoʻnalish oʻrnini ifodalash uchun qoʻllanilgan. Toʻldiruvchi pozitsiyasidagi qurilmaning markaziy nuqtasi boʻlgan ifoda bilan bogʻlanuvchi vositalar teng vaziyatda keladi:



Berilgan gapda propozitiv nomlanishning uyushtiruvchi markazi boʻlgan «*yakka choʻp*»dan qurilmasi vosita maʼnosini anglatgani sababli, bu gap mazmuniy qismlarini shunday belgilaymiz:

$$s + [s + p + \text{lok} + P + Ak + \text{inst}] + PV$$

Yuqoridagi gapni quyidagicha «shajara daraxti» orqali ifodalash mumkin:



Payt uzvli propozitiv nomlanishlar koʻp jihatdan oʻrin uzvli qurilmalarga yaqin turadi. Chunki «zamon va makon moddaning asosiy yashash shakli sanaladi. Shuning uchun ham zamon va makon modda bilan uzviy bogʻliq boʻlgan, universal va umumiy xususiyatga ega boʻlgan hodisadir»¹.

¹ Касевич В.Б. Семантика. Синтаксис. Морфология. – М., 1988. – С.201.

Zamon vaziyati muayyan lisoniy vositalar yordamida ifodalanganligi tufayli, u grammatikadagi zamon shakllari semantikasining asosi sanaldi.

Gap predikatining predikativlik shakli orqali mutlaq (absolyut) zamon ma'nosi anglashilsa, gap tarkibidagi payt semasiga ega bo'lgan leksemalar orqali esa ko'pincha nisbiy zamon ma'nosi ifodalanadi.

Temporal (zamon) argumentli subyekt – predikat qurilmalarida predikatning predikativ shakldan nopredikativ shaklga transformatsiya qilinishi natijasida uning barcha argumentlari shu qurilmaning ichki uzvlariga aylanadi va barcha ichki uzvlar bir butun holda gap tarkibidagi asosiy predikatga nisbatan argument bo'lib keladi.

Falsafiy kategoriya sifatidagi zamonning ikki xil turi kabi lisoniy kategoriya sifatidagi zamonning ikki xil turi ajratiladi:

- 1) absolyut zamon ma'nosi;
- 2) nisbiy zamon ma'nosi.

Agar harakat yoki vaziyatning nutq momentiga nisbatan munosabati e'tiborga olinsa, absolyut zamon, harakat yoki vaziyatning nutq momentiga nisbatan emas, balki boshqa momentga munosabatiga qarab belgilansa, nisbiy zamon hisoblanadi¹.

Ega pozitsiyasida kelgan propozitiv nomlanishning uyushtiruvchi markazi, odatda, predmet bo'lgani sababli, payt uzvli qurilmalarning payt anglatuvchi vositalari ko'proq paytga munosabat bildiruvchi vositalar bilan ifodalanadi.


O'rin uzvli propozitiv nomlanishlar singari, payt uzvli propozitiv nomlanishlar ham ega pozitsiyasida kelganda, ularning kengayishi sifatdash oborotlar hisobiga bo'lishi kuzatiladi. Masalan:

Haligina derazadan qiya tushib turgan kun ham g'oyib bo'ldi (SHuhrat)

$$\text{Adj} + \overbrace{\text{N}_{\text{дан}} + \text{Adj} + \text{V}_{\text{ган}} + \text{N} + \text{Vf}}$$

¹ Философский словарь. – М., 1991. – С.75.

Ega pozitsiyasida kelgan qurilmaning markazi bo'lgan **kun** leksemasi o'zidan avvalgi sifatdosh oborotning (sifatlovchining) sifatlanmishi bo'lib kelyapti. Sifatlovchi tarkibidagi **tushib turgan** ifodasi boshqa a'zolari o'ziga ergashtirib kelgan:



Bu yerda: Adj - ravish

Temp - payt

N - ot

inst - vosita


V - fe'l

Ak - belgi


P - predikat

Demak, payt uzvli dastlabki birikmaning shakllanishi uchun payt ravishi o'ziga xos o'rin tutadi. Ya'ni, yuqoridagi gapning modeli quyidagicha belgilanishi mumkin.

Substansional tomondan:



Mazmuniy uzvlari:



Ega pozitsiyasida keluvchi qurilma **g'oyib bo'ldi** predikatining argumenti bo'lib kelgani holda, payt belgisini anglatuvchi uzv (**haligina**) argumentning argumenti sifatida umumiy gap uchun emas, balki propositiv nomlanish uchun amal qiladi.

Payt uzvli qurilmalar o'rin uzvli sintaktik qurilmalarga ancha yaqin turadi. Moddaning muayyan zamon va makon bilan aloqadorligi inson ongidan tashqaridagi obyektiv jarayon bo'lib, bu obyektiv jarayonni inson sezgi organlari

orqali ongida aks ettiradi. Inson ongida aks etuvchi moddaning zamonga munosabati zamon (temporal) vaziyati sanaladi¹.

Temur aka o'sha zahoti yugurib kelgan Xayriddinni dast ko'tardi-da...

(O'.Hoshimov)

Berilgan gapda uyushtiruvchi markaz - kesimga ***o'sha zahoti yugurib kelgan Xayriddinni*** to'ldiruvchi vaziyatidagi sintaktik qurilma yaxlit holda bog'lanyapti. Uning tarkibiy qismlari sifatdashning kengaytiruvchilari asosida ko'p a'zoli qurilma yo'l ochgan. Payt anglatuvchi a'zo ***o'sha zahoti*** birligi ***yugurib kelgan*** sifatdashining argumenti sanaladi. Aslida ***Xayriddin o'sha zahoti yugurib keldi*** propozitsiyasidagi kesimlik shaklini olgan predikat transformatsiyaga uchrashi bilan yuqoridagi sintaktik qurilmaga aylanib, ushbu propozitiv nomlanish yaxlit holda to'ldiruvchi bo'lib kelyapti.

Ya'ni:

$$N + \boxed{\text{Adj} + V_{\text{ГАН}} + N_{\text{НИ}}} + V_f - s + \boxed{\text{temp} + p + s} + P_v$$

Turdiyev hali etik kiymagan so'l oyog'i bilan bosdi (Shuhrat) gapida vositali to'ldiruvchi funksiyasida kelgan propozitiv nomlanish ko'p uzvli bo'lib, bu ifoda butun bir holda kesimlik shaklini saqlagan predikatning argumenti sifatida belgilanadi. Sintaktik qurilmaning uyushtiruvchi markazi hisoblangan ***oyog'i bilan*** birligi qator vositalar bilan kengayib kelyapti. ***Hali, etik, kiymagan, so'l*** leksemalari sintaktik pozitsiyaga mustaqil holda ega bo'lmasa-da, ular o'zidagi mazmuniy belgi - semalarni saqlaydi. Shunga ko'ra, payt uzviga xos zamon semasi ham o'z mavqeyini yo'qotgan emas. Ushbu gapning modelini shunday belgilash mumkin:

$$N + \boxed{\text{Adj} + N_{\text{НИ}} + V_{\text{ГАН}} + \text{Adv} + N_{\text{ОЙЛАН}}} + V_f$$

¹ Теория функциональной грамматики. Темпоральность. Модальность. – Л.: Наука, - 1990. – С.5.

Mazmuniy uzvlari:

$$s + \boxed{\text{temp} + s + p + \text{inst}} + P_v$$

Ko‘rinib turibdiki, substansional jihatdan bir necha turkumlardan ifodalangan qurilma *so‘l oyog‘i bilan* mazmuniy munosabatlarda vosita (instrumentalis) ma’nosini anglatish uchun xizmat qilyapti.

Ayrim hollarda payt semasini yuzaga chiqaruvchi vositalar bir necha uzvli bo‘lib, ular birgalikda zamon belgisini namoyon qiladi. *O‘sha voqedan keyin barakda majlis bo‘lganini... Dilyadan eshitdi* (O‘.Hoshimov) gapida to‘ldiruvchi pozitsiyasidagi sintaktik qurilma *o‘sha voqedan keyin barakda majlis bo‘lganini* ifodasi bo‘lib, propozitiv nomlanishning tayanch birligi o‘rin, payt anglatuvchi uzvlar vositasida kengaygan. Payt a’zosi qator substansional shakllar (olmosh, ot, ravish) orqali yuzaga chiqib, transformatsiyaga uchragan bo‘lakning argumenti pozitsiyasida kelgan:

$$\boxed{\text{temp} + \text{lok} + s + p} + s + P_v$$

Fe‘l predikatli propozitiv nomlanishlarning ichki mazmuniy uzvlarini yana davom ettirish mumkin.

OT PREDIKATLI PROPOZITIV NOMLANISHLARNING ICHKI TUZILISHI VA SINTAKTIK POZITSIYASI

Ot predikatli propozitiv nomlanishlarning shakliy tuzilishi va sintaktik pozitsiyasi

Ot asosli gaplarda gapning uyushtiruvchi va semantik markazi ot bo'lganligi uchun ham fe'l asosli gaplardan zamon, shaxs kategoriyalarining qanday ifodalanishi jihatdan farq qiladi. Bu ma'nolar fe'l asosli gaplarda maxsus morfologik ko'rsatkichlar yordamida moddiy ifodalansa, ot asosli gaplarda ko'pincha ot predikatning mazmuni leksik elementlar orqali yashirin ravishda ifodalanadi¹.

Ot predikatli propozitiv nomlanishlar ham shakliy jihatdan moddiy asos va sintaktik vaziyat qarama-qarshiligi hamda birligidan iborat bo'lib, morfologik shakl sintaktik shaklning yuzaga chiqishi uchun asos sanaladi.

Tadqiqotchi N.Ortiqova ot predikatlar haqida fikr yuritib, quyidagilarni yozadi: «Ot leksemalar sintaktik qurilmalarning uyushtiruvchi markazi sifatida o'ziga bog'lanayotgan leksemalar, ya'ni aniqlovchi vazifasidagi so'zlarni ergashtirib keladi. Unga tobe bo'lgan uzvlar esa uyushtiruvchi markaz hisoblanuvchi turli pozitsiyadagi ot turkumi shaklida kelgan vositaning argumenti bo'lib keladi. O'z navbatida, ushbu sintaktik qurilmaning markazi bo'lgan ot leksemalar ham predikatga bog'lanib, uning argumenti sifatida «bo'sh» o'rinlarini to'ldirish uchun xizmat qiladi. Qurilma tarkibidagi tobe va hokim birliklar yaxlit holda butun gapga nisbatan bitta pozitsiyada keladi»².

Ot predikatli propozitiv nomlanishlarning shakliy substansiyasi markazini fe'l va uning shikllaridan boshqa turkumlar tashkil etadi. Ot, sifat, olmosh, ravish kabi leksemalar propozitiv qurilmaning uyushtiruvchi markazi sifatida

¹ Нурмонов А. ва бошқ. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. – Т.: Фан, 1992. – Б. 70.; Тожиев О. Ўзбек тилида от предикатли гапларнинг мазмуний ва синтактик тузилиши: Филол. фанлари номзоди ... дис. – Т., 1995. – 140 б.

² Ортиқова Н.Х. Гап тузилишида аниқловчининг ўрни: Филол. фанлари номзоди ... дис. автореф. – Фарғона, 2005. – Б. 11.

o'ziga bog'lanayotgan leksemalarni ergashtirib keladi. Ularga tobe bo'lgan uzvlar esa uyushtiruvchi markaz hisoblanuvchi ot predikatning «bo'sh o'rin»larini to'ldirib, argumentlar vazifasini bajaradi. Propozitiv nomlanish tarkibidagi tobe va hokim birliklar yaxlit holda butun gapga nisbatan bitta pozitsiyada bo'lib, gap predikatining argumenti sanaladi. Xuddi fe'l predikatli qurilmalar singari ot predikatli bir necha uzvli bo'laklarning ichki tobe qismlari butun gapga nisbatan hech qanday pozitsiya egallamay, uyushtiruvchi markazning kengaytiruvchilarigina bo'la oladi.

Bu yerdan o'g'lingizning kasalligi to'g'risida spravka olib keting (O.Yoqubov) gapida ikkita predikat mavjud bo'lib, ularning birinchisi kesimlik pozitsiyasidan to'ldiruvchi pozitsiyasiga o'tgan. Ushbu jarayon ***o'g'lingiz kasal*** tarzidagi ot asosli sodda gap transformatsiyasi natijasida umumiy gapning bitta bo'lak sifatida belgilanishi orqali yuzaga chiqadi. Bunday holda gapning asosiy predikati bo'lgan ***olib keting*** fe'l-leksemasi markaziy element bo'lib, qolgan barcha bo'laklar uning argumentlari sanaladi. O'rin holi pozitsiyasidagi ***bu yerdan***, to'ldiruvchi pozitsiyasidagi ***spravka*** birliklari singari ***o'g'lingizning kasalligi to'g'risida*** qurilmasi ham yaxlit holda - to'ldiruvchi pozitsiyasida kelib, ***olib keting*** predikatiga sintaktik jihatdan ergashib kelmoqda.


Adj + Nning + Nto'g'risida + N + Vf

Bunda: Adj – ravish, N – ot, V – fe'l

Ot predikatli propozitiv nomlanishlar shakliy jihatdan fe'l predikatli qurilmalardan tubdan farqlanadi. Chunki ularning uyushtiruvchi markazi xilma-xil holda ifodalanadi. Fe'l predikatli propozitiv nomlanishlarda tayanch nuqta fe'l va uning shakllari orqali ifodalansa, ot predikatli qurilmalarda transformatsiyaga uchragan gapning markazi fe'ldan boshqa so'z turkumlari vositasida yuzaga chiqadi. Shuning uchun ot predikatli propozitiv nomlanishlarning uyushtiruvchi markazi bo'lib kelayotgan so'zlarni ifodalanishiga ko'ra alohida tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Uyushtiruvchi markazi ot bo'lgan propozitiv nomlanishlar

Bunday qurilmalar ot + ot yoki olmosh + ot tipidagi bog'lanishli sodda gaplar transformatsiyasi natijasida ko'proq ko'zga tashlanadi (Otam - ishchi, Toshkent - poytaxtimiz; Men - talaba, ular - dugona v.b.). Masalan, ***O'sha qizlarning opa-singil ekanligini Sohibaxon yaxshi bilardi*** (O.Yoqubov) gapida predikatlar ***o'sha qizlar - opa-singil*** va ***Sohibaxon bilardi***. Dastlabki predikat kesimlik shaklini yo'qotib ***o'sha qizlarning opa-singil ekanligini*** tarzida ega pozitsiyasidagi ***Sohibaxon*** va hol pozitsiyasidagi ***yaxshi*** leksemalari kabi kesimga (bilardi) ergashib faqat bitta pozitsiyada - to'ldiruvchi pozitsiyasida kelyapti. Propozitiv qurilmaning uyushtiruvchi markazi bo'lgan ***opa-singil*** leksemasi tayanch, uyushtiruvchi markaz sifatida ***o'sha*** olmoshi hamda ***qizlar(ning)*** so'zini o'ziga ergashtirib kelsa-da, ***o'sha, qizlar(ning)*** leksemalari ***opa-singillar*** leksemasining kengaytiruvchilari bo'lib, asosiy kesimga nisbatan hech qanday vazifa bajarish imkoniga ega emas. Ular bog'lanishiga e'tibor qilamiz:



Ya'ni:

$\boxed{\text{Pron} + \text{Nning} + \text{Nekanligini}} + \boxed{\text{N} + \text{Adj} + \text{Vf}}$

Bu yerda: Pron - olmosh

Yo'q, Shovvoz yaxshi biladi rahbarlikning oson ish emasligini.
(O.Yoqubov)

Berilgan gapda kesimlik shaklini yo‘qotgan predikat inversiyasi kuzatilmoqda. Ya’ni:

1-gap: *Shovvoz yaxshi biladi*

2-gap: *rahbarlikning oson ish emasligini*

Transformatsiyalashgan gapning predikati inkor shaklida bo‘lib, u bir necha so‘zdan iborat: sifat (oson), ot (ish) kesimlik bog‘lanmasining inkor shakli (emas).

Gapda *biladi* kesimi boshqa bir uzvli bo‘laklar singari *rahbarlikning oson ish emasligini* to‘ldiruvchi pozitsiyasidagi qurilmani yaxlit holda ergashtirib kelyapti.

Substansional jihatdan:

Йўқ, + N + Adj + Vf + Ннинг + Adv + N + эмаслигини

Mazmuniy uzvlar:

Neg + s + Ak + Pv + s + Ak + s + Neg

Yuqoridagi ikki gapdan ko‘rish mumkinki, ega va kesim bog‘lanishidagi qurilmalar qaratqich + qaralmish shaklidagi propozitiv nomlanishga o‘tib, yaxlit pozitsiyada keladi.

Demak, uyushtiruvchi markazi ot bo‘lgan propozitiv nomlanishlar *-ligi*, *ekanligi*, *emasligi* shakllari bilan yuzaga chiqadi va qaysi pozitsiyada kelishiga ko‘ra ko‘rsatkichlarini o‘zgartirishi mumkin:

Ega pozitsiyasi: **-ligi, ekanligi, emasligi**

To'ldiruvchi pozitsiyasi: ot + *-ligini*, ot + *ekanligini*,
ot + *emasligini*; ot + *-ligiga*,
ot + *ekanligiga*, ot + *emasligiga*...

Hol pozitsiyasi: ot + *-ligidan*, ot + *ekanligidan*,
ot + *emasligidan*; ot + *-ligi uchun*,
ot + *ekanligi uchun*, ot + *emasligi uchun*...

Bunda propozitiv nomlarning ega, to'ldiruvchi, hol pozitsiyasida kelishi e'tiborga olinadi. Aniqlovchi esa ularning kengaytiruvchisi funksiasini bajaradi. Aniqlanmish funksiasida o'tgan zamon sifatdashidan -lik qo'shimchasini qo'shish orqali yasalgan otlar ham kelishi mumkin. Bu vaqtda ham aniqlovchi bilan aniqlanmish bir butun sifatida butun gap tuzilishida bitta gap bo'lagi pozitsiyasini egallaydi. Aniqlovchi bo'lakning bo'lagi sifatida ajratiladi. Bu haqda to'xtalib, N.Ortiqova quyidagilarni yozadi:

«O'zbek tilida sifatlar aniqlovchi vaziyatida bo'lganda, ot turkumidagi so'zlarga bog'lanib kelishi juda ko'p uchraydi. Sifatlar gapda kesim pozitsiyasini ham egallaydi: Yo'l tekis. Olam go'zal kabi.

Bu kabi ot+sifat shaklli ega+kesim bog'lanishidagi gaplar transformatsiya natijasida qaratuvchi-qaralmish munosabatidagi birikmaga aylanadi va gapda yaxlit pozitsiyani egallaydi. Odatda, bunday gaplarda ikki predikat mavjud bo'lib, biri kesimlik shaklini yo'qotgan bo'lsa, ikkinchisi kesimlik shaklini saqlagan bo'ladi. Kesimlik shaklini yo'qotgan predikat ot+ot yoki olmosh+ot tipida shakllanadi», - deb ta'kidlaydi¹.

Shunday bo'lishiga qaramasdan, N.Ortiqova **aybdorning kimligi**², **insonning yo'qligi**³ tipidagi qurilmalarni ot+olmosh, ot+modal so'z sifatida guruhlaydi.

Bizningcha, -lik qo'shimchasi orqali kim so'roq olmoshidan, yo'q modal so'zidan ot yasalgan bo'lib, bu o'rinda tadqiqotchi aniqlovchining gapdagi

¹ Ортиқова Н.Х. Кўрсатилган асар. –Б. 13.

² Ортиқова Н.Х. Кўрсатилган асар. –Б. 15.

³ Ортиқова Н.Х. Кўрсатилган асар. –Б. 15.

pozitsiyasi masalasini hal etishga berilib ketib, -lik qo'shimchasining yasovchilik vazifasini e'tibordan chetda qoldirgan.

Biroq ushbu ko'rsatkichlarning barchasi asosiy predikatga bog'lanish jarayonida o'z vazifasini yuzaga chiqaradi:

Ularning og'ayni ekanligiga ishora qilib qo'ydi (nimaga? - to'ldiruvchi)

Ularning og'ayni ekanligiga sevindi (nima uchun? - hol)

Uyushtiruvchi markazi sifat bo'lgan propozitiv nomlanishlar

Bunday qurilmalar boshqalariga nisbatan ancha ko'p uchraydi. Ular ko'p hollarda ot + sifat, olmosh + sifat shaklida bo'lib, ega, to'ldiruvchi va hol pozitsiyasida keladi.

Avvalgi uyqu karaxtligidan... ketmoni urgan yeriga borib tushmayotgan edi (S.Ahmad)

Ushbu gapda ot predikatli propozitiv nomlanish ***avvalgi uyqu karaxtligidan*** qurilmasi bo'lib, u o'z doirasida ichki bo'linishlarga ega. Umumiy holda esa ushbu propozitiv nomlanish ***borib tushmayotgan edi*** kesimining kengaytiruvchilaridan biri bo'lib, xuddi ega pozitsiyasidagi ***ketmoni***, hol - pozitsiyasidagi ***urgan eriga*** vositalari kabi funksiya bajaryapti va gapda yaxlit bo'lak sifatida hol pozitsiyasida kelmoqda. Ya'ni:


$$\boxed{\text{Adv} + \text{Nning} + \text{Adv ligidan}} + \text{N} + \boxed{\text{Vgan} + \text{Nga} + \text{Vf}}$$

Uning bachkanaligi Ikromjonning g'ashiga tega boshladi (S.Ahmad) gapida ham ikkita predikat mavjud. Dastlabki gap ***u bachkana*** tarzidan (ega + kesim) ***uning bachkanaligi*** shaklidagi ***qaratqich*** + ***qaralmish*** munosabatiga o'tgan, kesimlik shaklini yo'qotgan predikat qaralmish sifatida bo'lib, o'z qaratqichi bilan birga, umumiy gapning egasi pozitsiyasida kelmoqda: ***g'ashiga***

tega boshladi kesimi uchun ot predikatli qurilma bitta funksiya bajaryapti. Uyushtiruvchi markazning kengaytiruvchisi butun gap uchun emas, balki propozitiv qurilma uchun amal qilyapti.

Shuningdek, ***Qurbonoy ayasining gaplari rostligiga shubha qilmasdi*** (O‘.Hoshimov) gapida ham propozitiv nomlanishning uyushtiruvchi markazi sifat orqali ifodalanmoqda. Predikatlari: ***Qurbonoy shubha qilmasdi; ayasining gaplari rost.*** Ikkinchi predikat sodda gap shaklidan transformatsiyaga uchrashi natijasida ichki qaratqich + qaralmish munosabatidagi yaxlit bo‘lak funksiyasiga o‘tgan. Ushbu qurilmada qaratuvchi va qaralmish munosabatlarining ketma-ketligi mavjud: ***ayasining gaplari, gaplarining rostligi***, ya’ni: ot + ot + sifat.

Shubha qilmasdi predikati ega pozitsiyasidagi ***Qurbonoy*** leksemasi hamda to‘ldiruvchi pozitsiyasidagi ***ayasining gaplari rostligiga*** qurilmasini o‘ziga ergashtirmoqda. Ular predikat argumentlari bo‘lganidek, transformatsiyalashgan gapning markazi ***rost(ligiga)*** leksemasiga nisbatan ***ayasining gaplari*** qurilmasi ham argument funksiyasida kelyapti. Ayni shu argument ichki bog‘lanishiga ham ega: ***ayasining gaplari***. Ya’ni:



Erimning dushman emasligini sen bilarding-ku, vijdonsiz! (O‘.Hoshimov) gapida esa ***bilarding*** predikati ega pozitsiyasidagi ***sen*** olmoshi kabi to‘ldiruvchi pozitsiyasidagi ***erimning dushman emasligini*** qurilmasini o‘ziga ergashtirib kelyapti va ular predikatning argumentlari funksiyasini bajarish uchun xizmat qilyaptilar. Yuqoridagi qurilmalardan farqli holda,

Chol qovunning shirinligidan zavqlandi

(nima sababli? - hol)

Uyushtiruvchi markazi ravish bo'lgan propozitiv nomlanishlar

Bular **ot** + **ravish** tipida (ba'zan otlashgan so'zlarning ravish bilan birikishi tarzida) shakllandi. Ravish turkumi uchun xos bo'lgan leksemalar singari bunday qurilmalar ham kam uchraydi. Jumladan, ***Ish ko'pligidan odamgarchilikdan ham chiqib qoldik-ku!*** (O.Yoqubov) gapida ***chiqib qoldik-ku*** predikatiga nisbatan ***ish ko'pligidan, odamgarchilikdan*** ifodalari argument funksiyasida kelyapti.

Tayanch nuqtasi ravish orqali ifodalangan propozitiv nomlanishning ichki bog'lanishida substansional jihatdan ot va ravishning sodda gap shaklidan, ya'ni ***ish ko'p*** tarzidagi yig'iq gapdan ***ish(ning) ko'pligidan*** ko'rinishida transformatsiyalanishi kuzatilyapti. Kesimlik shaklini yo'qotgan predikat va uning kengaytiruvchi argumenti bo'lgan ***ish(ning)*** leksemalari ***ega + kesim*** tipidagi sodda gap bo'lib, transformatsiya natijasida qaratuvchi + qaralmish tipidagi yaxlit bo'lakka aylangan va butun gap uchun bitta pozitsiya - hol vaziyatini egallagan. Uyushtiruvchi markazning kengaytiruvchisi hisoblangan ***ish(ning)*** leksemasi butun gap uchun amal qilmaydi, balki o'z funksiyasini yo'qotib, o'zi ergashib kelayotgan ravish orqali ifodalangan leksema (***ko'p***) bilan birga hol bo'lib keladi:


$$\boxed{N(\text{нинг}) + \text{Adj}^+ \text{лигидан}} + \boxed{N_{дан} + V_f}$$

Onasining yonida ekanligi qulunga kuch bag'ishladi shekilli, birdan chopqillab ketdi (K.Yashin)

Berilgan gapda kesimlik shaklini saqlagan predikat ikkita ular uyushib kelyapti: **kuch bag‘ishladi, chopqillab ketdi**. Propozitiv nomlanish bilan sintaktik munosabatga kirishuvchi predikat **kuch bag‘ishladi** birligi sanaladi. Bu yerda ega pozitsiyasidagi **onasining yonida ekanligi** hamda to‘ldiruvchi pozitsiyasidagi **qulunga** vositalari **kuch bag‘ishladi** predikatining argumentlari vaziyatida kelyapti. Ega pozitsiyasidagi ushbu qurilma dastlab **onasi yonida ekan** tarzidagi sodda gap shaklida bo‘lib, substansional jihatdan ot + ravish + bog‘lama tipida bo‘lgan va ega + kesim munosabatidan tashkil topgan. Sodda gapning transformatsiyaga uchrashi natijasida ushbu qurilma qaratqich va qaralmish munosabatidagi yaxlit bir bo‘lak vaziyatini egallagan. Ushbu gapdagi **kuch bag‘ishladi** predikatiga nisbatan **onasining yonida ekanligi** qurilmasi bir pozitsiyada bo‘lsa, propozitiv nomlanishning uyushtiruvchi markazi **yonida ekanligi** birligiga nisbatan **onasining** leksemasi kengaytiruvchi funksiyasida kelyapti. Ya’ni:



Bu gapning «shajara daraxti» quyidagicha:



Uyushtiruvchi markazi ravish bo‘lgan propozitiv nomlanishlar quyidagi ko‘rsatkichlar vositasida shakllanadi va ega, to‘ldiruvchi, hol pozitsiyalarini egallaydi:


Ega pozitsiyasi: **ravish** +_{-ligi} , **ravish** +_{ekanligi} ,
ravish +_{emasligi}

To'ldiruvchi pozitsiyasi: **ravish** +_{-ligini} , **ravish** +_{ekanligini}
ravish +_{emasligini}
ravish +_{-ligiga} , **ravish** +_{ekanligiga} ,
ravish +_{emasligiga...}

Hol pozitsiyasi: **ravish** +_{-ligidan} , **ravish** +_{ekanligidan} ,
ravish +_{emasligidan} , **ravish** +_{-ligi uchun} ,
ravish +_{ekanligi uchun} ,
ravish +_{emasligi uchun}

Uyushtiruvchi markazi olmosh bo'lgan propozitiv nomlanishlar

Bunday qurilmalar **ot** + **olmosh** yoki **olmosh** + **olmosh** tipida shakllanadi. Propozitiv nomlanishning tayanch birligi sanalgan olmoshlar aksar o'rinda so'roq olmoshlari orqali ifodalanadi. Masalan, ***Mening kimligimni el bilsa bo'ldi*** gapidagi propozitiv qurilma ***mening kimligimni*** gap kesimi tomonidan boshqarilib, to'ldiruvchi pozitsiyasida kelyapti. Olmosh + olmosh orqali ifodalangan ushbu butunlik dastlab ega va kesim munosabatidan tashkil topgan sodda gap bo'lib, uning transformatsiyaga uchrashi natijasida qaratuvchi + qaralmish tipidagi yaxlit pozitsiyadagi (to'ldiruvchi) birlikka o'tgan.



Qurilmaning qaratuvchi uzvi (*mening*) qaralmish (*kimligimni*)ga ergashib, uning kengaytiruvchisi, ular munosabati orqali shakllangan propozitiv nomlanish esa predikatning kengaytiruvchisi vazifasini bajaryapti. Ichki uzv butun gap uchun mustaqil holda muayyan pozitsiyada kela olmaydi.

Predikati olmosh orqali hosil bo'lgan propozitiv nomlanishlar **kim, nima, qayer, necha, qachon, qanaqa** so'roq olmoshlari, ayrim hollarda ko'rsatish olmoshlari bilan yuzaga chiqadi:

Siz o'zingizning kimligingizni menga aytib bermadingiz (S.Ahmad)

Yoshi nechadaligini bilib bo'lmaydigan, pakana kishi edi (O.Yoqubov)

Yigitning bunaqaligiga hayron qoldim (Shuhrat)

Dastlabki gapning predikati *aytib bermadingiz* ega pozitsiyasidagi siz, to'ldiruvchi pozitsiyasidagi *o'zingizning kimligingizni*, to'ldiruvchi pozitsiyasidagi *menga* ifodalarini o'ziga ergashtirib kelyapti. Ko'rinadiki, *o'zingizning kimligingizni* qurilmasi ham boshqa bo'laklar singari bitta vazifa bajaryapti. Ushbu propozitiv nomlanish olmosh + olmosh tipida bo'lib, dastlab *o'zingiz kim(siz)* tarzidagi sodda gap shaklida, so'ng transformatsiyalanish natijasida esa ega (*o'zingiz*) qaratuvchi (*o'zingizning*) hamda kesim (*kimsiz*) qaralmish (*kimligingizni*) pozitsiyasiga o'tgan. Butun gapga nisbatan esa uyushtiruvchi leksema o'z kengaytiruvchisi bilan birga faqat bir pozitsiyada turibdi. Ya'ni:

$$\overbrace{\text{Pron} + [\text{Pron} - \text{НИНГ} + \text{Pron} - \text{НИ}] + \text{Pron} - \text{ГА} + \text{Vf}}^{\text{Butun gap}}$$

Ikkinchi gapda *yoshi nechada* shaklidagi sodda gap transformatsiyaga uchrashi natijasida *yoshi (ning) nechadaligini* tarzidagi ot + olmosh shaklida

bo'lgan qaratuvchi + qaralmish munosabatiga kelib qolgan va yaxlit holda keyingi leksemaning kengaytiruvchisi vazifasini bajaryapti. Ya'ni:

$N(\text{нинг}) + P_{\text{ron}} \xrightarrow{\text{лигини}} + V_{\text{ган}} + Adv + N_{\text{эди}}$

Ot + olmosh tipidagi propozitiv nomlanish orqali shakllangan gapda **hayron qoldim** predikati uyushtiruvchi markazi ko'rsatish olmoshi bo'lgan propozitiv nomlanishning o'zini ergashtirib kelyapti. Gapda faqat bitta argumenti bo'lgan predikat mavjud. Biroq propozitiv nomlanish **yigit bunaqa** shaklidagi sodda yig'iq gapning transformatsiyasi bilan, xuddi yuqoridagi vositalar kabi, qaratuvchi + qaralmish munosabatli yaxlit bo'lakka aylangan. Ya'ni:

$N_{\text{нинг}} + P_{\text{ron}} \xrightarrow{\text{лигига}} + V_f$

Anglashiladiki, propozitiv nomlanishning uyushtiruvchi markazi olmosh orqali ifodalansa, olmosh uchun xos bo'lgan mavhum ma'no propozitiv nomlanishga, butun gapga ham tegishli bo'lishi mumkin. Qiyoslang:

йигитнинг бунақалигига
 фикрининг теранлигига
 ишининг кўплигига

хайрон қолдим


Ot predikatli propozitiv nomlanishning uyushtiruvchi markazi qanday so'z turkumi bilan ifodalanishiga ko'ra ham ular ma'nosidagi, gap mazmunidagi aniqlik darajasi belgilanishi mumkin.

Uyushtiruvchi markazi olmosh bo'lgan propozitiv nomlanish olmoshning qanday ko'rsatkichlar bilan birikishiga ko'ra gapda ega, to'ldiruvchi va hol pozitsiyasini egallashi mumkin. Aksar hollarda ichki bog'lanishi qaratuvchi + qaralmish munosabatidagi to'ldiruvchi pozitsiyasida ekani kuzatiladi.

Uyushtiruvchi markazi modal so'zlar bilan ifodalangan propozitiv nomlanishlar


Bunday qurilmalar *bor, yo‘q, mavjud, kerak, lozim, zarur, farz, darkor* leksemalarining ko‘proq ot turkumidagi leksemalarni ergashtirib kelishi bilan shakllanadi. Professor N.Mahmudov *bor, yo‘q* modal so‘zlari hamda *-lik* affiksi bilan hosil bo‘lgan ifodalar haqida fikr yuritib, bu kabi bir qator birliklarni semantik-sintaktik jihatdan sifatdosh oborotlarga yaqin deb hisoblaydi¹.

Masalan, *Maktab pedagogika kollektivi Hakimovning yapon razvedkasi bilan aloqasi borligini o‘z vaqtida tushunib yetmagan* (O‘.Hoshimov) gapida *Hakimovning yapon razvedkasi bilan aloqasi borligini* qurilmasi to‘ldiruvchi pozitsiyasidagi propozitiv nomlanish bo‘lib, qurilmaning tayanch nuqtasi borligini leksemasiga ot turkumidagi *aloqasi* leksemasi tobe bo‘lyapti. Propozitiv qurilmaning boshqa a‘zolari uyushtiruvchi markaz bo‘lgan *borligini* so‘ziga emas, balki *aloqasi* leksemasiga bog‘lanyapti:




Bu qurilma yaxlit holda *tushunib yetmagan* predikatining argumenti sifatida ega pozitsiyasidagi *maktab pedagogika kollektivi*, hol pozitsiyasidagi *o‘z vaqtida* birliklari kabi funksiya bajaryapti. Propozitiv nomlanish tarkibidagi a‘zolar bosqichma-bosqich o‘zi bog‘lanib kelayotgan vositaning kengaytiruvchilari vazifasini bajaryapti. Yuqoridagi propozitiv qurilma gapning yadrosi sanalgan predikatning kengaytiruvchisi bo‘lgani holda, propozitiv nomlanishning uyushtiruvchi markazi ham o‘z kengaytiruvchisiga ega. Ya’ni:

¹ Махмудов Н.М. Семантико-синтаксическая асимметрия в простом предложении узбекского языка: Автореф. дисс... д-ра филол.наук. –Т., 1984. – С.45.




Bu ishda Shoqosimning ham aybi borligini bildi (O.Yoqubov)

Berilgan gapda ***bildi*** kesimi ***bu ishda Shoqosimning ham aybi borligini*** qurilmasini o‘ziga ergashtirib kelmoqda. Demak, propozitiv nomlanish predikatning kengaytiruvchisi sifatida to‘ldiruvchi pozitsiyasida turibdi. ***Bu ishda Shoqosimning ham aybi bor*** shaklidagi sodda gap transformatsiyaga uchrashi natijasida bir necha uzvdan iborat qurilma – propozitiv nomlanishga aylangan. Ushbu qurilmaning uyushtiruvchi markazi ***bor*** leksemasi ***aybi*** va ***bu ishda*** vositalarini tobelantirib, ***aybi*** leksemasiga ***Shoqosimning*** qaratqichi bog‘lanyapti:




Bu gapning «shajara daraxti» quyidagicha:



Shuningdek, ***Farmonov Toshkentdan hech qanday xabar yo‘qligidan bezovta edi*** (O.Yoqubov) gapida ham uyushtiruvchi markazning modal so‘z bilan ifodalanganini kuzatish mumkin. Biroq yuqoridagi ikki gapdan farqli holda, propozitiv nomlanishning tayanch nuqtasi bo‘lgan so‘z inkor ma’noli sanaladi. Uyushtiruvchi markaz ***yo‘qligini*** ifodasi o‘z kengaytiruvchilari bilan

birga ega pozitsiyasidagi **Farmonov** leksemasi singari **bezovta edi** predikatining argumenti bo‘lib, hol pozitsiyasida kelmoqda.

Ushbu qurilma o‘z ichki bog‘lanishlariga ega bo‘lib, **Toshkentdan hech qanday xabar yo‘q** shaklidagi sodda gapdan qaratuvchi + qaralmish tipidagi murakkab bo‘lakka aylangan. Bu yerda uyushtiruvchi markaz hisoblangan yo‘qligidan leksemasi **xabar(ning)** leksemasini o‘z kengaytiruvchilari bilan ergashtirib kelyapti. **Toshkentdan** va **hech qanday** ifodalari alohida-alohida holda **xabar** leksemasiga bog‘lanyapti:



Hol pozitsiyasi:

$N + \boxed{N_{дан} + Pron + N + \boxed{Йўқлигидан}} + Adv \text{ эди}$

Tasdiq yoki inkor ifodalovchi leksemalar (**bor-yo‘q**) juft holda ham ishlatilishi mumkin bo‘lgan hollarda, bizningcha, sodda gapning transformatsiyasi kuzatilmaydi.¹ Nazarimizda, transformatsiyaga uchrashish mumkin bo‘lgan sodda gapning o‘zi mavjud emas.

Xotini Sheraliga dori-darmon kerakligini aytdi gapida **aytdi** predikati ega pozitsiyasidagi **xotini**, to‘ldiruvchi pozitsiyasidagi **Sheraliga dori-darmon kerakligini** tobelantirib kelyapti. Propozitiv nomlanish o‘z ichida **Sheraliga, dori-darmon** leksemalarini ergashtirib to‘ldiruvchi + ega + kesim tipidagi **Sheraliga dori-darmon kerak** sodda gapining transformatsiyaga uchrashi bilan shakllanyapti. Barcha bo‘laklar o‘z pozitsiyasini yo‘qotib nofunktsional

¹ Бундай шаклларни Махматкулов С. “Шерали ёнидаги кизнинг умуман бор-йўқлигидан буткул беҳабар” тарзидаги мисоллар орқали асослашга интилади. Қаранг: Махматкулов С. Ўзбек тилида предикатив синтагманинг трансформацияси... – Б. 24.

pozitsiyada yuzaga chiqyapti va kesimning bitta argumenti bo'lib kelmoqda.
Ya'ni:

$$\overbrace{N + N_{\text{га}} + N(\text{нинг}) + \text{керakлигини} + V_f}^{\text{...}}$$

Uyushtiruvchi markazi modal so'zlar bo'lgan propozitiv nomlanishlar gapda qanday pozitsiyada kelishi ularning tayanch nuqtasi olayotgan morfologik ko'rsatkichlar vositasida, ayni zamonda, asosiy predikatga qay yo'sinda bog'lanishi bilan belgilanadi:

Ega pozitsiyasi:

borligi, yo'qligi, kerakligi, zarurligi, farzligi...

To'ldiruvchi pozitsiyasi:

borligini, yo'qligini, kerakligini, zarurligini, farzligini...; borligiga, yo'qligiga, kerakligiga, zarurligiga, farzligiga...; borligidan, yo'qligidan...

Hol pozitsiyasi:

borligi uchun, yo'qligi uchun, kerakligi uchun, zarurligi uchun, farzligi uchun...

Gapning asosiy predikatiga bog'lanish usuli bilan ayrim shakllar hol yoki to'ldiruvchi pozitsiyasini egallashi mumkin. Masalan:

... ishi borligiga (nimaga? - to'ldiruvchi)

... ishi borligiga (nima uchun? - hol)

... ishi borligidan (nimadan? - to'ldiruvchi)

... ishi borligidan (nima sababli? - to'ldiruvchi)

... ishi borligida (nimada? - to'ldiruvchi)

... ishi borligida (qachon? - hol)

Bunday shakldagi propozitiv nomlanishlarning sintaktik pozitsiyasi predikatning mazmuniy ifodasi orqali konkretlashadi:

Uning ishi borligiga ishora qildi (to'ldiruvchi)

Zarur ishi borligiga ko'p o'tirmadi (hol)

Ishi borligidan nolib qoldi (to'ldiruvchi)

Ishi borligidan shoshildi (hol)

Propozitiv qurilmaning sintaktik pozitsiyalari uyushtiruvchi markazi ot, sifat, olmosh, ravish bo'lgan ifodalarda ham asosiy predikat va unga bog'lanuvchi so'zning morfologik ko'rsatkichi orqali namoyon bo'ladi.

Ot predikatli propozitiv nomlanishlarning ichki mazmuniy bo'linishi

Ma'lumki, ot kesimning mazmuniy tuzilishi morfologik ma'no va sintatik ma'noning qarama-qarshiligi va birligidan iborat. Sintaktik ma'no umumlashgan (invariant) ma'no sifatida morfologik ma'nolar orqali ro'yobga chiqadi¹.

Ot predikatli propozitiv nomlanishlarning mazmuniy tuzilishi ham turli morfologik ma'nolar vositasida reallashadi. Fe'l predikatli propozitiv nomlanishlarning uyushtiruvchi markazidan farqli holda, bunday qurilmalarning uyushtiruvchi markazlari turlicha mazmuniy birliklardan iborat bo'ladi. Shunga ko'ra, ot predikatli propozitiv nomlanishlarni mazmuniy jihatdan ajaratishda uyushtiruvchi markazining qanday uzv ekanligini aniqlash muhim.

Predmet uzvli propozitiv nomlanishlar

Propozitiv nomlanishlarning uyushtiruvchi markazi predmetni bildiruvchi leksemalar bo'lganda, predmet anglatuvchi leksema boshqa predmet anglatuvchi leksema bilan qarashlilik munosabatida bo'lishi, har qanday predmet muayyan belgisi va miqdoriga ega bo'lishi sababli belgi va miqdor anglatuvchi leksemalar bilan kengayib kelishi kuzatiladi. Masalan:

¹ Махмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Синтаксис. – Т.: Ўқитувчи, 1995. – Б. 73.

(S.Ahmad)

бировага аралашмайдыган
камгапроқ

бола бўлганидан


belgi

$$\boxed{s + \underset{\downarrow}{\boxed{s + p}} + Ak + Ak + s(p)} + s + s + s + Pv$$

P - predikat, kesimlik

shaklida bo'lgan predikat Pv tarzida, transformatsiyaga uchragan predikat (P) shaklida belgilandi. Shuningdek, ot predikatli propozitiv nomlanishlarning uyushtiruvchi markazi turlicha mazmuniy vositalar bilan shakllanishini nazarda tutib, ularni ham shartli ravishda alohida belgiladik. Masalan, yuqoridagi gapda S (P) - mazmuniy subyekt kesimlik shaklini yo'qotgan predikat funksiyasida.

Yuqoridagi gapning «shajara daraxti» quyidagicha izohlanada:




Bu kishi Nigoraning amakisi ekanligini ham o'shanda bilgan edi (S.Zunnunova) gapida propozitiv nomlanishning, uyushtiruvchi markazi sanalgan *amakisi ekanligini* ifodasi asosiy predikatning - *bilgan edi* leksemasining argumenti sifatida *o'shanda* leksemasi kabi pozitsiyada turibdi. *Amakisi ekanligini* tayanch nuqtasi *Bu kishi Nigoraning amakisi ekan* sodda gapining kesimi bo'lib, o'ziga bir necha uzvlarni ergashtirib kelyapti va transformatsiya natijasida kesimlik shaklini yo'qotib, o'z argumentlari bilan birga yaxlit bir bo'lak funksiyasini egallayapti. Uning argumentlari esa nofunksional pozitsiyaga o'tmoqda, ya'ni o'zi bog'lanib kelayotgan leksema bilan birga sintaktik pozitsiyada kelyapti. Ushbu propozitiv qurilma to'rt uzvli bo'lib, uyushtiruvchi markaz *amakisi ekanligini* ikki qaratuvchi uzvlar *bu kishi* va *Nigoraning* vositalarini ergashtirib kelyapti. Dastlabki qaratuvchi a'zoning o'zi ikki a'zoli bo'lib, ko'rsatuvchi *bu* va predmet uzv *kishi(ning)* leksemalaridan iborat. Ya'ni:

бу киши Нигоранинг амакиси эканлигини

Predmet uzvli propozitiv nomlanishlar ayrim hollarda ot oʻrnida qoʻllanilgan olmoshlar orqali ham shakllanishi mumkin.

Biroq Risolat gapning nimada ekanligini payqamadi (S.Ahmad)



Ushbu gapning asosiy predikati ***payqamadi*** leksemi boʻlib, ega pozitsiyasidagi ***Risolat*** hamda toʻldiruvchi pozitsiyasidagi ***gapning nimada ekanligini*** ifodalari predikatning argumentlari sanaladi. Propozitiv nomlanish shaklidagi qurilma ***Gap nimada ekan?*** tarzidagi sodda gapning transformatsiyalanishi natijasida hosil boʻlgan. Bunda ega + kesim tipidagi sodda gap qaratuvchi + qaralmish tipidagi yaxlit bir boʻlakka aylangan. Qaratuvchi uzv ot bilan, qaralmish esa olmosh bilan ifodalangan. Garchi ushbu qurilmaning uyushtiruvchi markazi ham predmet anglatish uchun xizmat qilsa-da, yuqorida berilgan gaplardan farqlanib, uyushtiruvchi markaz hisoblangan predmet uzvi umumiy, abstrakt maʼno anglatish xususiyatiga ega. Chunki olmosh boshqa turkumlar, xususan, otlarga nisbatan mavhum tushunchani ifoda etadi.

$s + [s + s(p)] + Pv$

Belgi uzvli propozitiv nomlanishlar

Uyushtiruvchi markazi belgi anglatuvchi leksema boʻlgan propozitiv nomlanishlar ot predikatli qurilmalar orasida ancha koʻp uchraydi. Belgi uzvli

propozitiv nomlanishlar tarkibidagi belgi anglatuvchi uzvlar qanday belgini ifodalashiga ko‘ra ayrim mualliflar tomonidan ikkiga bo‘linadi:

1) sezgi organlarimiz bilan idrok qilinadigan yoki turli fizik o‘lchov tizimi bilan o‘lchash mumkin bo‘lgan belgi;

2) fizik o‘lchov tizimi bilan o‘lchab bo‘lmaydigan, so‘zlovchining ma’lum pozitsiya nuqtayi nazaridan bahosini bildiruvchi belgi¹.

Bularning har qaysisi alohida-alohida LSGni tashkil qiladi. Shu bilan birga, har ikki guruh muayyan belgilariga ko‘ra yana mayda LSGlarga bo‘linadi. Masalan, ikkinchi guruh S.G‘iyosov tomonidan yana sakkiz LSGga bo‘linadi:

1) umumiy ijobiy bahoga ega bo‘lgan LSG:

yaxshi, durust, tuzuk;

2) belgining noodatiy ekanligini bildiruvchi LSG:

qiziq, ajoyib, g‘alati;

3) predmetning tashqi belgisini bildiruvchi LSG:

so‘lim, chiroyli, go‘zal;

4) subyektning aqliy tavsifini bildiruvchi LSG:

dono, aqlli, odil;

5) ta’sirga munosabat qobiliyatiga ko‘ra subyekt bahosini bildiruvchi LSG:

hushyor, sezgir, ziyrak;

¹ Гиясов С.Т. Семантическая структура и компонентный анализ качественных прилагательных узбекского языка: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Т., 1983. –С.8.

6) harakatni bajarish qobiliyatiga ko‘ra subyekt bahosini bildiruvchi LSG:

chaqqon, epchil, uddaburon;

7) subyektning emosional holatini bildiruvchi LSG:

xursand, shod, quvnoq;

8) xulq nuqtayi nazaridan subyekt bahosi:

sho‘x, quvnoq¹.

Ana shunday turlicha belgi anglatuvchi uzvlar uyushtiruvchi markaz sifatida predmet va o‘rin uzvlari vositasida kengayib, yaxlit bo‘lak pozitsiyasidagi propozitiv nomlanish hosil qiladi.

Asrora o‘zining sho‘xligi, og‘zi botirligi bilan butun qishloqda nom chiqargan edi (S.Ahmad)

$$\boxed{N + \overbrace{P_{ron} (НИНГ)} + \overbrace{AdV + AdV_{билан}} + \overbrace{P_{ron} + N_{да} + V_f}}$$

Gapning asosiy predikati *nom chiqargan edi* qurilmasining kengaytiruvchilari sifatida ega pozitsiyasidagi *Asrora*, to‘ldiruvchi pozitsiyasidagi *o‘zining sho‘xligi, og‘zi botirligi bilan*, hol pozitsiyasidagi *butun qishloqda* ifodalarini ko‘rsatish mumkin. Gap doirasida boshqa bo‘laklar singari mavqega ega bo‘lgan propozitiv nomlanish o‘z ichida qator uzvlardan iborat qurilma hisoblanadi. Ushbu qurilma tarkibida qaratuvchi + qaralmish tipidagi bog‘lanish mavjud bo‘lib, uyushib kelmoqda. Ularning ikkinchisi barqaror birikma vositasida shakllangan bo‘lishiga qaramay, transformatsiyaga qadar *og‘zi botir* tarzida faqat kesimdan iborat bo‘lgan.

Bu haqda N.Ortiqova bahs yuritar ekan, quyidagilarni yozadi:

«Belgi uzvli argumentlarning shakllanishida ot turkumidagi leksemalar belgi valentligining reallashuvi muhim. Biroq belgi uzvining substansional

¹ Фиёсов С.Т. Ўша асар. – Б. 9.

shakli faqat sifat uchun xoslanmay, son, ravish, fe'l, yoki ot bo'lishi mumkin. Ma'no jihatdan ular xususiy, hajm, maza, hid, holat, rang-tus kabi guruhlardan iborat»¹.

Ko'rinadiki, propozitiv nomlanish transformatsiyalanishiga qadar ikki sodda gap shaklida bo'lgan:

o'zi sho'x - predmet + belgi

(u) og'zi botir - (predmet) + belgi

Bu gapda predmetga xos bo'lgan xulq belgisi namoyon bo'lmoqda.

$$s + [s + Ak(p) + Ak(p)] + lok + Pv$$

Bu yerda *o'zining sho'xligi* bilan va *og'zi botirligi bilan* vosita ma'nosida kelyapti, shu sababli mazmuniy uzvlarni shartli holda shunday belgilash mumkin:

$$s + [s + inst(p) + inst(p)] + lok + Pv$$

Tursunboyning sal notob bo'lishi ikkovini oyoqdan yiqitardi (S.Ahmad) gapida propozitiv nomlanish ega pozitsiyasida kelyapti. ***Tursunboy sal notob*** shaklidagi sodda gap transformatsiyaga uchrashi natijasida qaratuvchi + qaralmish tipidagi yaxlit qurilmaga aylanyapti va ushbu ifoda asosiy predikat hisoblangan ***oyoqdan yiqitardi*** kesimining argumenti bo'lib kelyapti. Propozitiv nomlanish to'ldiruvchi pozitsiyasidagi ***ikkovini*** leksemasi kabi gapda faqat bitta funksiyani (ega) bajarish uchun xizmat qilyapti. Ushbu qurilma predmet anglatuvchi uzv ***Tursunboyning*** leksemasi bilan belgi anglatuvchi uzv ***sal notob bo'lishi*** ifodasi o'rtasidagi bog'lanishni ko'rsatyapti.


Ot leksemalar (predmet uzvlar) orqali uyushgan propozitiv nomlanishlar singari, belgi anglatuvchi uzvlar ham ayrim vaziyatlarda olmosh turkumidagi leksemalar vositasida yuzaga chiqishi mumkin. Bunda ular anglatgan belgi ma'nosi ancha mavhum xususiyatga ega bo'lish kuzatiladi.

Masalan:


¹ Ортикова Н. Х. Гап тузилишида аниқловчининг ўрни: Филол. фанлари номзоди дис автореф. – Фарғона, 2005. –Б.16

Uning qanaqaligi kishining xayoliga ham kirib chiqmas
(O.Yoqubov)

Berilgan gapda ***kirib chiqmas*** predikati ega pozitsiyasidagi ***uning qanaqaligi***, to'ldiruvchi pozitsiyasidagi ***kishining xayoliga*** birikmalarini tobelantirib kelmoqda. Propozitiv nomlanish sanalgan ***uning qanaqaligi*** ifodasi ***U qanaqa?*** yig'iq sodda gapining transformatsiyalanishi natijasida yuzaga kelgan. Ega (u) + kesim (***qanaqa***) tipidagi sodda gapdan qaratuvchi (***uning***) + qaralmish (***qanaqaligi***) ichki bog'lanishidagi yaxlit bo'lakka aylangan. Belgi ifodalovchi leksema ***qanaqaligi*** noaniq, mavhum ma'noni aks ettirishi bilan yuqoridagi uzvlardan farqlanadi. Ular bog'lanishiga e'tibor qilamiz:



Ya'ni:



Bu gap quyidagicha mazmuniy uzvlardan tashkil topgan:

$$s + Ak(p) + s + s + Pv$$

Bunda: s - subyekt

Ak - belgi

P - predikat

Miqdor uzvli propozitiv nomlanishlar

Ma'lumki, miqdor belgisi predmet hamda harakat ifodalovchi birliklar uchun taalluqli bo'lishi mumkin. Predmet harakati miqdori bilan predmet miqdori bir-biriga teng hodisalar emas. Predmet harakatining miqdor belgisi shu tipdaligi harakatning bir martaligi yoki takroriyiligini yoki harakat predmetning

bir qismi bilan aloqador ekanligini ifodalasa, predmetning miqdor belgisi shu turdagi predmetlarning bir yoki birdan ortiqligini ifodalaydi. Predmet harakati va uning miqdori o'rtasidagi munosabat miqdor vaziyatini hosil qiladi. Inson ongida aks etgan miqdor vaziyati lisoniy vositalar orqali o'z ifodasini topadi. Tilda predmet harakati va uning miqdorini ifodalovchi maxsus leksik vositalar mavjud. Bu leksik vositalar mazmunida miqdor semasi markaziy o'rinni egallaydi: *ko'p, oz, picha, mo'l, kam* va boshqa.

Miqdor uzvli predikativ ifodalarning predikati predikativ shaklini nopredikativ shaklga aylantirish yo'li bilan transformatsiya qilinganda, transforma gaplik xususiyatini yo'qotadi va gapning asosiy predikatiga o'z argumentlari (ichki uzvlari) bilan bir butun holda argument bo'lib qoladi. Masalan:




Ннинг + Adv лигини + Vf

$s + Ak(p) + Pv$

Ushbu gapda to'ldiruvchi pozitsiyasidagi propozitiv nomlanish *dasturxonning to'kinligini* ifodasi gapning asosiy predikati *aytmaysanmi* leksemasining argumenti bo'lib kelyapti, to'ldiruvchi + kesim shaklidagi boshqaruv munosabati yuzaga chiqyapti. Bosh kelishikdagi predmet (ega) va uning miqdoriy belgisini ifodalovchi kesim orqali shakllangan sodda gap - *dasturxon to'kin* ifodasi qaratuvchi (*dasturxonning*) uzvning qaralmish (*to'kinligini*) uzvga bog'lanishi tipidagi transforma bo'lib, uyushtiruvchi markazi miqdor anglatgan argument sifatida funksiya bajaryapti. Miqdor uzvning argumenti bo'lgan predmet uzvi transformaning ichki uzvi, asosiy predikat argumentining ichki argumenti hisoblanadi.

Bu gapning «shajara daraxti» quyidagicha:



Shuningdek, *Sultonali endi yordam kam ekanligini juda yaxshi bilardi* gapida asosiy predikat *bilardi* leksemasining argumentlari *Sultonali*, *endi yordam kam ekanligini*, *juda yaxshi* ifodalari hisoblanadi. Predikatning kengaytiruvchilari sifatida ega pozitsiyasidagi *Sultonali*, hol pozitsiyasidagi *juda yaxshi* leksemalari singari to'ldiruvchi pozitsiyasidagi *endi yordam kam ekanligini* ifodasi ham o'z ichki argumentlari bilan birga xizmat qilyapti. Ushbu transforma *endi yordam_kam ekan* sodda gapining transformatsiyasi vositasida hosil bo'lib, butun gapga nisbatan yaxlit bir pozitsiya – to'ldiruvchi pozitsiyasida kelishi bilan harkterlanadi. Propozitiv nomlanish tarkibidagi uyushtiruvchi markaz hisoblanuvchi *kam ekanligini* miqdor anglatuvchi uzvi o'ziga endi payt bildiruvchi uzvini hamda *yordam(ning)* predmet anglatuvchi uzvlarini ergashtirib, ana shu ichki argumentlari bilan gap predikatiga bog'lanib kelyapti. Ularning umumiy bog'lanishiga e'tibor qilamiz:



Ya'ni:

$$s + \boxed{\text{temp} + s + \text{quan} (P)} + Ak + Pv$$

Bunda: s- subyekt, temp - payt


Ak - belgi, P - predikat

quan - miqdor.

Ushbu gapning substansional shaklini shunday belgilash mumkin:

$N + \boxed{\text{Adj} + N(\text{нинг}) + \text{Adj} \text{ эканлигини}} + \text{жуда} \text{ Adv} + \text{Vf}$

Uyushtiruvchi markazi miqdor ma'nosini anglatuvchi leksema son turkumi bilan ifodalanganda, miqdorning aniq ko'rinishi namoyon bo'ladi. Masalan:



$Cni + Cga + Vsa + Cekanini + Pron + Vf$

Bu yerda: C - son

Pron- olmosh

V - fe'l

Gapning asosiy predikati **biladi** leksemasining argumentlari to'ldiruvchi pozitsiyasidagi **beshni beshga qo'shsa o'n ekanini**, ega pozitsiyasidagi **hamma** birliklari sanaladi. Bu propozitiv nomlanish ko'rinishidagi transformasiya **Beshni beshga qo'shsa - o'n** shaklidagi gapdan hosil bo'lgan va o'z ichki argumentlari bilan (kengaytiruvchilari bilan) predikatning argumenti vazifasini bajaryapti.

Berilgan gapning mazmuniy uzvlarini shunday belgilash mumkin:

$\boxed{\text{quan} + \text{quan} + P + \text{quan} (P)} + s + Pv$


Ko'rinadiki, uyushtiruvchi markaz aniq miqdor (son) bo'lsa, uning kengaytiruvchilari orasida aniq miqdor bildiruvchi leksemalar bo'lishi tabiiy. Miqdor bildiruvchi uzvlarning umumiy holdagi ifodasi so'roq olmoshlari orqali ham yuzaga chiqadi:

***Inoyat oqsoqol uning tangasi qanchaligini obdan surishtirdi* (S.Ahmad)**

To'ldiruvchi pozitsiyasidagi propozitiv nomlanishning tayanch nuqtasi ***uning tangasi qanchaligini*** o'z ichki argumentlari bilan xuddi ega pozitsiyasidagi ***Inoyat oqsoqol***, hol pozitsiyasidagi ***obdan*** leksemalari singari ***surishtirdi*** predikatining argumenti hisoblanadi. Qurilma tarkibidagi uyushtiruvchi markaz bo'lgan ***qanchaligini*** miqdor anglatuvchi uzv ***tangasi*** predmet uzvini o'z argumenti bilan birga tobelantirib kelyapti. Transformatsiyalashgunga qadar ushbu ifoda ***uning tangasi qancha*** tipidagi sodda gap bo'lib, so'ng qaratuvchi + qaralmish tipli transformaga aylangan. E'tibor berilsa, tangasi qaratuvchisi ham o'z qaratuvchisiga ega: ***uning tangasi***. Bu ifoda yaxlit holda ***qanchaligini*** leksemasining qaratuvchisi sanaladi:



Berilgan gap substansional jihatdan shunday shakllangan:



Mazmuniy uzvlari:

$$s + [s + s + \text{quan}(P)] + Ak + Pv$$

Demak, miqdor anglatuvchi uzvlar aniq miqdor anglatuvchi (son leksemalar orqali) va mavhum, noaniq miqdor anglatuvchi (ravish, olmosh leksemalar orqali) miqdor uzvlari sifatida ajratilishi mumkin.

O'rin uzvli propozitiv nomlanishlar

O‘rin uzvli propozitiv nomlanishlarning uyushtiruvchi markazi o‘zining argumentlari bilan birga yaxlit pozitsiyada turadi. Uyshtiruvchi markazi o‘rin anglatuvchi leksema bo‘lgan propozitiv nomlanishlar predmet anglatuvchi birliklarni o‘ziga ergashtiradi. Jumladan:



Pron + Adj + Nning + N + Vf


Berilgan gapning asosiy predkati **eshitgan edi** fe'li bo'lib, ega pozitsiyasidagi **u**, hol pozitsiyasidagi **hozir**, to'ldiruvchi pozitsiyasidagi **shovvozning qishloqda ekanini** ifodalari predikat «bo'sh o'rin»lari - valentligini to'ldirish uchun xizmat qilmoqda. Propozitiv nomlanish **Shovvoz qishloqda ekan** shaklidagi sodda gap bo'lib, ega + kesim tipli sodda gapdan qaratuvchi (**Shovvozning**) + qaralmish (**qishloqda ekanligini**) uzvli propozitiv nomlanishga aylangan. Tayanch so'z bo'lgan o'rin uzvining kengaytiruvchisi **shovvozning** leksemasi argumentning argumenti sanaladi.

$s + \boxed{\text{temp} + s + \text{lok (P)}} + P_v$


Bunda: Temp - payt

lok – o‘rin

Bu gapning «shajara daraxti» quyidagicha izohlanadi:



Menga uning qayerdan ekanligi muhim emas gapida propozitiv qurilma ega pozitsiyasini egallayapti. Uning uzvlari ikkisi ham abstrakt ma'noli bo'lib, olmosh vositasida ifodalanyapti. O'rin anglatuvchi kesimlik shaklini yo'qotgan predikat transformaning qaralmishi hisoblanadi. Bu uyushtiruvchi markaz *qayerdan* leksemasi yuqoridagi *qishloqda* leksemasiga nisbatan noaniq ma'no anglatishi bilan farqlanadi. Gap predikati *muhim emas* ifodasining kengaytiruvchilari sifatida to'ldiruvchi pozitsiyasidagi *menga* leksemasi bilan birga, *uning qayerdan ekanligi* qurilmasini ham ko'rsatish mumkin. Ushbu qurilma tarkibida ham kengaytiruvchi uzv mavjud bo'lib (*uning leksemasi*), ushbu uzv kengaytiruvchining kengaytiruvchisi sanaladi. Ya'ni:



Pron - ning + Pron dan ekanligi

Ushbu gapning mazmuniy uzvlariga e'tibor bering:

$$s + [s + \text{lok} (P)] + \text{Ak} + \text{Neg}$$

Bunda: s - subyekt

Lok - o'rin

Ak - belgi

Neg - inkor


Demak, propozitiv nomlanish tarkibidagi o‘rin anglatuvchi leksemaning substansional shakli u ifoda etayotgan ma’noning aniqlik darajasini ham belgilash uchun xizmat qilishi mumkin.

Payt uzvli propozitiv nomlanishlar

Yuqorida aytib o‘tilganidek, payt uzvli propozitiv nomlanishlar ko‘p jihatdan o‘rin uzvli qurilmalarga yaqin turadi. Qurilmaning uyushtiruvchi markazi payt bildiruvchi leksemalar bo‘lganda ham xuddi o‘rin uzvlari singari, ot, ravish va ular o‘rnidagi olmoshlar xizmat qiladi. Bunday kesimlik shaklini yo‘qotgan predikatlar argumentlari ko‘proq predmet anglatuvchi uzvlar bo‘ladi. Ayrim hollarda ana shu uzv qo‘llanilmasligi ham kuzatiladi, biroq bunday qurilmalarda predmet anglatuvchi uzvning mazmuni saqlanadi. Masalan:

Mehriniso endi juda kech ekanligini tushundi (O.Yoqubov)

gapida *endi juda kech ekanligini* qurilmasining uyushtiruvchi markazi *juda kech ekanligini* qaralmish sanalib, uning qaratqichi bevosita ishtirok etmagan. Biroq, ayni shu vaziyat uchun *vaqt* leksemasi mazmunan qaratuvchi tarzida anglashilishi mumkin. Ushbu gapning asosiy predikati *tushundi* leksemasi argumentlari sifatida ega pozitsiyasidagi *Mehriniso* hamda to‘ldiruvchi pozitsiyasidagi *endi juda kech ekanligini* ifodalarini ko‘rsatish mumkin. Propozitiv qurilma ikki mazmuniy uzvdan iborat bo‘lib, ularning ikkisi ham payt anglatuvchi uzvlar sanaladi: *endi*, *kech*. Demak, bunday qurilmalar payt anglatuvchi uzvning payt anglatuvchi uzv bilan bog‘lanishi orqali ham yuzaga chiqishi mumkin. Biroq bu yerda ular munosabati qaratuvchi + qaralmish tipida deb hisoblash to‘g‘ri bo‘lmaydi. Chunki ularning bog‘lanishi quyidagicha:



Substansional jihatdan ushbu gap quyidagicha shakllanadi:

$$N + \boxed{\text{Adj} + \text{Adj} \text{ эканлигини}} + \text{Vf}$$

Uning mazmuniy uzvlari:

$$s + \boxed{\text{temp} + \text{temp (P)}} + \text{Pv}$$

Aksar hollarda bu kabi propozitiv qurilmalar to'ldiruvchi pozitsiyasida kelsa-da, ularning ega yoki hol funksiyasida kelishini ham ko'rish mumkin:


Hali vaqt erta ekanligi uchun ko'chalarda odam siyrak (O.Yoqubov)

$$\text{Adj} + N + \text{Adj} \text{ эканлиги} \text{ учун} + \text{Nда} + N + \text{Adv}$$

Ushbu gapning predikati ***siyrak*** leksemasi argumentlari sabab holi pozitsiyasidagi ***hali vaqt erta ekanligi uchun***, o'rin holi pozitsiyasidagi ***ko'chalarda***, ega pozitsiyasidagi odam ifodalari sanaladi. O'z argumentlari bilan yaxlit funksiya bajarayotgan propozitiv qurilma o'z kengaytiruvchilariga ega. Ulardan biri payt uzv, ikkinchisi predmet uzvdan iborat. Demak, ushbu qurilmada birdan ortiq payt anglatuvchi leksema mavjud. Uning mazmuniy uzvlari:

$$\boxed{\text{temp} + s + \text{temp (P)}} + \text{lok} + s + \text{Pv}$$

Bu gapning «shajara daraxti» quyidagicha:



Ekzistensial uzvli propozitiv nomlanishlar

Mavjudlik bildiruvchi (ekzistensial) gaplarda obyektiv olam yoki uning ayrim parchasidagi ma'lum belgiga ega bo'lgan obyektning mavjud ekanligi tasdiq yoki inkor qilinadi. Tabiiyki, bunday gaplarda so'zlovchi va tinglovchiga u yoki bu darajada ma'lum bo'lgan fazo tushunchasi boshlang'ich nuqta sanaladi. Bu fazoda mavjud bo'lgan ma'lum obyekt haqida esa yangi ma'lumot beriladi¹.


Mavjudlik bildiruvchi gaplar denotati makon va bu makondagi predikatlar hisoblanadi. Shunga ko'ra, bu kabi gaplar tarkibida, albatta, o'rin va predmet anglatuvchi uzvlar ishtirok etadi.

Ekzistensial uzvli propozitiv nomlanishlar ham ayni shu asosda yuzaga chiqadi. ***Bu yerda bir sir bor*** (O'.Hoshimov) gapi **o'rin** + **predmet** + **munosabat** tarzidagi strukturali qurilma bo'lib, u transformatsiyaga uchrashi bilan gapning markaziy nuqtasi bo'lgan kesimga nisbatan faqat bitta pozitsiyada keladi. Sodda gap doirasidagi **ega** + **kesim** tipi **qaratqich** + **qaralmish** tipiga aylanadi: **bir sir bor - bir sirning borligi...**

Bu foniyl dunyoda adolatning yo'qligidan nola qildi (O.Yo.)

Berilgan gapda ***nola qildi*** predikati (kesimi) o'ziga ***bu foniyl dunyoda adolatning yo'qligidan*** qurilmasini ergashtirib kelyapti. Ushbu propozitiv nomlanish dastlab ***bu foniyl dunyoda adolat yo'q*** tipidagi sodda gap bo'lib, unda **ega** (adolat) + **kesim** (yo'q) munosabati mavjud bo'lgan. Gapning transformatsiyalanishi natijasida bu munosabat qaratqich + qaralmish tipidagi bitta bo'lakka aylangan: ***adolatning yo'qligidan***. Propozitiv nomlanishning uyushtiruvchi markazi yo'qligidan modal so'zi o'z argumentlari bo'lgan ***bu, foniyl, dunyoda*** leksemalari bilan birga, ***nola qildi*** predikati (kesimi)ning argumenti sifatida kelyapti. Ularning bog'lanishiga e'tibor qilamiz:

¹ Нурмонов А. Махмудов Н., Ахмедов А., Солихўжаева С. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. – Т.: Фан, 1992. – Б. 63.




Ushbu gapning mazmuniy uzvlarini quyidagicha belgilash mumkin:

deix + Ak + lok + s + Neg (P) + PV

Bunda: deix - ko'rsatuvchi; lok - o'rin;


Ak - belgi; s - subyekt; Neg - inkor; P – predikat

Ushbu gapning «shajara daraxti» quyidagicha bo'ladi:




Marat Hilolaning ovozida sovuq qat'iyat borligini sezdi (O'.Hoshimov)

gapidagi propozitiv nomlanish **Hilolaning ovozida sovuq qat'iyat borligini** qurilmasi o'z kengaytiruvchi argumentlari bilan yaxlit pozitsiyada - to'ldiruvchi vazifasida kelyapti. bu yerda **Hilolaning ovozida sovuq qat'iyat bor** sodda gapi transformatsiyalanishi bilan o'z funksiyasini o'zgartirgan, predikat kesimlik shaklini yo'qotgan. Natijada sodda gapning ega va kesimi qaratqich + qaralmish tipli qurilmaga aylangan:



Umumiy holda gapdagi bo‘laklarning bog‘lanish tartibini ko‘rib chiqamiz:


$$S + \boxed{S + S + Ak + Pos} + Pr$$

Bunda: Poz - tasdiq

XULOSALAR

1. Bevosita kuzatishda berilgan, sezgi a'zolarimizga ta'sir qiladigan alohida narsa va hodisalarning zamirida yashiringan mohiyatni belgilashda va uning tabiatini yoritishda sistemaviy tadqiqotlarning ahamiyati katta. Sistemaviy tadqiqotlar deduktiv metodga asoslangan holda, asosiy e'tiborni umumiyliklarning tarkibiy qismlari, ular o'rtasidagi munosabat turlarini o'rganishga qaratadi.

2. Tilning barcha sath birliklari, hatto eng kichik birlik sanaluvchi fonema ham muayyan ichki uzvlarning o'zaro munosabatidan tashkil topgan yaxlitlik sanaladi. Gap yuqori sath birligi sifatida fonemadan ko'ra murakkabroq strukturaga ega bo'lgan sistemadir.

3. Gap sistema sifatida ikki va undan ortiq sintaktik birliklarning o'zaro mazmuniy va grammatik munosabatidan tashkil topgan yaxlitlik sanaladi. Gapning gap bo'lmagan boshqa sintaktik birliklardan farqi predikativlik (kesimlik)dir. Predikativ ma'noni ifodalovchi vositalar asosan kesimga qo'shiladi. shuning uchun predikativlik shakllarini kesimlik shakllari deb hisoblash mumkin.

4. Gapni gap qilib turgan asosiy belgi predikativlik belgisi ekan, shu belgini ifodalovchi har qanday minimal birlik gap hisoblanadi. Shuning uchun bitta so'z shakllning o'zi ham predikativlik shakliga va ma'nosiga ega bo'lib gap mavqeyiga ega bo'lishi mumkin.

5. Turkiy tillarda gapning mazmuniy va grammatik markazi kesimdir. Shuning uchun gapda eganing ifodalanishi doimo zarur bo'lavermaydi, uning mazmuni kesimdan anglashilib turadi. Gapning boshqa ishtirokchilari esa kesimning bo'sh o'rinlarini (valentliklarini) to'ldirib keladi. Bu esa gapning tuzilishini yig'iq va yoyiq tiplarga ajratishga imkon beradi: faqat kesimdan iborat bo'lgan gaplar yig'iq, kesim va uning bo'sh o'rinlarini to'ldirib keluvchi bo'laklar ishtirok etgan gaplar yoyiq gaplar sanaladi.

6. Turkiy tillarda gapning mazmuniy va konstruktiv markazi kesim sanalar ekan, gap tarkibida ishtirok etgan barcha sintaktik shakllarni (sintaksemalarni) kesimga qanday munosabatda bo'lish belgisiga qarab darajalarga bo'lish mumkin bo'ladi. Bu esa turkiy tillarda, xususan o'zbek tilida,

gapning sintaktik (shakliy) uzvlarining gapdagi mavqeyini belgilashda sintaktik pozitsiya nuqtayi nazardan yondoshish qulay usul ekanligini ko'rsatadi.

7. Gapning shakliy tuzilish birliklarining gapdagi mavqeyini belgilashda, sintaktik pozitsiya usulini qo'llash natijasida, ularning umumiy gap strukturasi uchun ikki xil mavqega – amaliy va noamaliy mavqega ega ajratish ehtiyoji tug'iladi. Amaliy mavqega ega bo'lganlar gapning, noamaliy mavqega ega bo'lganlar esa gapning emas, balki uning bo'lagining bo'lagi sanaladi.

8. Sintaktik shakllarning gapning yoki gap bo'lagining bo'lagi mavqeyida bo'lishi ularning kesimga bo'lgan munosabatiga qarab belgilanadi. Kesimlik shakli yoki kesimlik shaklini olgan leksik birlikning leksik ma'nosi valentligini to'ldirib, ular bilan bevosita munosabatda bo'lgan bo'laklar gapning bo'laklari, kesimdan boshqa bo'laklar bilan munosabatda bo'lgan bo'laklar esa bo'lakning bo'laklari sanaladi.

9. Bo'lakning bo'lagiga ega bo'lgan sintaktik birliklar bir necha so'z shakllarining o'zaro munosabatidan tashkil topgan butunlik sifatida yaxlit holda kesimga nisbatan bitta sintaktik pozitsiyani (vaziyatni) egallaydi. Bunday bitta sintaktik vaziyatni egallagan va ichki bo'linish xususiyatiga ega bo'lgan sintaktik qurilmalarni tarkibiy qismlarga bo'lish gapni bo'laklarga ajratishdan keyingi, bo'lakni bo'laklarga ajratish darajasiga mansubdir.

10. Ot, sifat, son, olmosh, ravishlar ham boshqa so'zlarni ergashtirib, kengayib kelish xususiyatiga ega. Bunday vaqtda u predikativ shaklga ega bo'lib, kesim vaziyatini egallashi mumkin. Kesimi ismlardan (ot, sifat, son, olmosh, ravish) tashkil topgan gaplar ot asosli gaplar sanaladi.

Boshqa so'zlar bilan kengayib kelgan otlar (ismlar) ot predikatlar hisoblanadi. Predikativ shaklni olmagan ot predikatlar o'zi kengayib kelgan so'zlar bilan propozitiv nomlanishni tashkil qiladi va gapda yaxlit holda bitta gap bo'lagi pozitsiyasini egallaydi.

11. Tarkibiy qismlarga bo'linish-bo'linmaslik belgisiga ko'ra tasnif qilish faqat so'zlarga va gaplargagina emas, balki gap bo'lagiga ham daxldordir. Bunga ko'ra gap bo'laklari uch guruhga bo'linadi: 1) sodda gap bo'laklari; 2) murakkab gap bo'laklari; 3) birikmali gap bo'laklari.

12. Sodda gap bo'laklari, tarkibiy qismlarining mustaqil so'zlarga bo'linish-bo'linmaslik belgisiga ko'ra, keyingi ikki turdagi gap bo'laklari bilan

privativ zidlanish munosabatida bo‘ladi. Ayni paytda, keyingi ikki turdagi bo‘laklar ham o‘zaro oppozitsiyaga kirishadi. Bu vaqtda zidlanishga asos belgi bo‘lib gap bo‘lagi tarkibidagi qismlarning o‘zaro bog‘lanish xarakteri xizmat qiladi. Bog‘lanish erkin va hokim-tobe munosabatni o‘zida saqlab tursa, bunday bo‘lak birikmali, ana shunday belgiga ega bo‘lmasa murakkab gap bo‘lagi bo‘ladi.

13. Bo‘lakning bo‘lagi doimo birikmali gap bo‘lagi doirasida amal qiladi.

M U N D A R I J A

KIRISH	3
GAPNI BO‘LAKLARGA AJRATISH MASALASI.....	5
Gap bo‘laklarini o‘rganish va uning asosiy bosqichlari.....	5
Lisoniy birliklarda shakl va mazmun dialektikasi.....	17
Sintaktik vaziyat	23
GAPNING SHAKLIY TUZILISHI	30
Gapning sistemaviy tuzilishi.....	30
Gap bo‘laklarining tuzilish turlari.....	35
Gapning nominativ aspekti.....	44
Kommunikativ belgi va predikat.....	47
PROPOZITIV NOMLANISHLAR VA GAP TUZILISHI.....	52
Propozitiv nominatsiya va denotat tuzilishi.....	52
Sintagmatik munosabat va sintagmatik ma’no.....	58
Propozitiv nomlanishlar tasnifi.....	68
FE’L PREDIKATLI PROPOZITIV NOMLANISHLAR.....	81
Fe’l predikatli propozitiv nomlanishlarning shakliy tuzilishi va sintaktik pozitsiyasi.....	81
Fe’l predikatli propozitiv nomlanishlarning ichki mazmuniy bo‘linishi.....	104
OT PREDIKATLI PROPOZITIV NOMLANISHLARNING ICHKI TUZILISHI VA SINTAKTIK POZITSIYASI.....	123
Ot predikatli propozitiv nomlanishlarning shakliy tuzilishi va sintaktik pozitsiyasi.....	123
Ot predikatli propozitiv nomlanishlarning ichki mazmuniy bo‘linishi...	140
XULOSALAR	159

Ilmiy nashr

USMONOVA HURINISO

GAP BO‘LAKLARINING POZITSION STRUKTURASI

Monografiya

Muharrir: Gulchehra ZOKIROVA
Dizayner: Abdulaziz TOSHPO‘LATOV
Musahhah: Madina MAMAJONOVA

Terishga berildi 15.11.2022-yilda.
Bosishga ruxsat etildi 02.12.2022-yilda.
Bichimi 64x42 1/16. Ofset qog‘ozi
Times New Roman garniturasida. Hajmi 10 bosma taboq
Adadi 100 nusxa.

“ARJUMAND MEDIA” NASHRIYOTI
Namangan shahri, Navoiy ko‘chasi, 36.
Tasdiqnoma raqami 1743
2020-yil 30-sentabrda berilgan.

Murojaat uchun telefon: +99899 002-94-39

“Toshbuloq oqshomi” bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Namangan shahri, I.Karimov ko‘chasi, 10-uy.